

YANGI TAHRIRDAGI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI

Mazkur o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-67-son Farmoni ijrosini ta‘minlash, shuningdek, oliy ta‘lim tizimida yangilangan Bosh qomusimiz normalarini talaba-yoshlar o‘rtasida samarali o‘rgatish maqsadida ishlab chiqilgan.

Qo‘llanmada yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinish zarurati, mazmun-mohiyati, inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari, ijtimoiy davlat tamoyillari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda davlat hokimiyati tizimidagi eng muhim konstitutsiyaviy islohotlar tizimi ravishda yoritilgan. Kitob tarkibiy jihatdan 6 ta asosiy bo‘lim va 16 ta paragrafni qamrab olgan bo‘lib, unda mavzularni mustahkamlash uchun nazorat savollari, topshiriqlar hamda keng qamrovli glossariy (lug‘at) berilgan. Ushbu o‘quv qo‘llanma oliy ta‘lim muassasalarining barcha bakalavriat yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar, sohaga qiziquvchi tadqiqotchilar va pedagoglar uchun mo‘ljallangan.

D.T. Yakubova – t.f.d., professor, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tarix va falsafa kafedrasini mudiri. O‘zbekiston tarixi va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar muallifi.

P.O. Normamatova – t.f.f.d. (PhD), kafedra katta o‘qituvchisi, huquqiy va ijtimoiy fanlar bo‘yicha izlanuvchi, darsliklar muallifi.



Globe
EDIT

Dilaram Yakubova, Pardaxol Normamatova

Globe
EDIT



Dilaram Yakubova · Pardaxol Normamatova

YANGI TAHRIRDAGI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI

Konstitutsiyaviy islohotlar mazmun-mohiyati va
inson huquqlari kafolatlari

**Dilaram Yakubova
Pardaxol Normamatova**

**YANGI TAHRIRDAGI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KONSTITUTSIYASI**

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

**Dilaram Yakubova
Pardaxol Normamatova**

**YANGI TAHRIRDAGI
O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
KONSTITUTSIYASI**

**Konstitutsiyaviy islohotlar mazmun-mohiyati va
inson huquqlari kafolatlari**

FOR AUTHOR USE ONLY

GlobeEdit

Imprint

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: www.ingimage.com

Publisher:

GlobeEdit

is a trademark of

Dodo Books Indian Ocean Ltd. and OmniScriptum S.R.L publishing group

120 High Road, East Finchley, London, N2 9ED, United Kingdom

Str. Armeneasca 28/1, office 1, Chisinau MD-2012, Republic of Moldova, Europe

Managing Directors: Ieva Konstantinova, Victoria Ursu

info@omniscryptum.com

Printed at: see last page

ISBN: 978-66-30-04987-9

Copyright © Dilaram Yakubova, Pardaxol Normamatova

Copyright © 2026 Dodo Books Indian Ocean Ltd. and OmniScriptum S.R.L publishing group

FOR AUTHOR USE ONLY

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**YANGI TAHRIRDAGI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KONSTITUTSIYASI**

O‘QUV QO‘LLANMA

**Barcha bakalavriat yo‘nalishi
talabalari uchun**

FOR AUTHOR USE ONLY

DENOV - 2026

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-67-son Farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, oliy ta'lim tizimida yangilangan Bosh qomusimiz normalarini talaba-yoshlar o'rtasida samarali o'rgatish maqsadida ishlab chiqilgan.

Qo'llanmada yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinish zarurati, mazmun-mohiyati, inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari, ijtimoiy davlat tamoyillari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda davlat hokimiyati tizimidagi eng muhim konstitutsiyaviy islohotlar tizimli ravishda yoritilgan. Kitob tarkibiy jihatdan 6 ta asosiy bo'lim va 16 ta paragrafni qamrab olgan bo'lib, unda mavzularni mustahkamlash uchun nazorat savollari, topshiriqlar hamda keng qamrovli glossariy (lug'at) berilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma oliy ta'lim muassasalarining barcha bakalavriat yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar, sohaga qiziquvchi tadqiqotchilar va pedagoglar uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchilar:

Yakubova Dilaram Tadjiyevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix va falsafa kafedrasini mudiri. t.f.d (DSc), professor

Normamatova Pardaxol Ochildiyevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix va falsafa kafedrasini katta o'qituvchisi t.f.f.d.(PhD)

Ma'sul

muharrir:

Nazirov Baxtiyor Safarovich

T.f.b.f.d (PhD), dotsent

Taqrizchilar

G'afforov Shokir Safarovich

Tarix fanlari doktori, professor

MUNDARIJA

Kirish.....4

I. BO‘LIM. KONSTITUTSIYA. ASOSIY PRINSPLAR

1-§. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi fanining maqsadi va vazifalari.....5-13

2-§. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining qabul qilinishi zarurati.....14-23

3-§. Konstitutsiya - demokratiya poydevori. Dunyo va demokratiya evolyutsiyasi.....24-37

II. BO‘LIM. O‘ZBEKISTON FUQAROLARINING ASOSIY HUQUQLARI, ERKINLIK LARI VA BURCHLARI

4-§. Fuqarolar huquqlarining konstitutsiyaviy asoslari va uning davr talabiga mosligi.....38-55

5-§. Fuqarolarning shaxsiy huquq erkinliklari va burchlarining kafolatlanganligi.....56-70

6-§. Inson huquq va erkinlarining ta‘minlanishi. inson huquqlari haqidagi xalqaro qarashlar.....71-91

III. BO‘LIM. JAMIYAT VA SHAXS

7-§. Jamiyatning asosiy iqtisodiy negizlari.....92-101

8-§. O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyati institutlari.....102-115

IV. BO‘LIM. MA‘MURIY-HUDUDIY VA DAVLAT TUZILISHI

9-§. Dunyoda amal qiladigan davlat boshqaruv usullari.....116-125

10-§. O‘zbekiston Respublikasi ma‘muriy-hududiy tuzilishi.....126-133

V. BO‘LIM. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT HOKIMIYATINING TASHKIL ETILISHI

11-§. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.....134-163

12-§. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.....164-184

13-§. Mahalliy davlat hokimiyati asoslari. Fuqorolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari.....185-196

14-§. O‘zbekiston Respublikasi saylov tizimi.....197-207

15-§. O‘zbekiston Respublikasi Sud hokimiyati. Advokatura va prokuratura tizimi.....208-234

VI. BO‘LIM. YAKUNLOVCHI QISM

16-§. O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyotida qonunlar va ularning xalqchil ishlash mexanizmi235-245

GLASARIY246

IV Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro‘yxati.....249

KIRISH

Konstitutsiya - erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir.

Sh.M.Mirziyoyev

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi davlatimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir. U hech kimga tobe bo'lmasdan erkin va ozod va obod, tinch va osoyishta, farovon yashashning qonuniy kafolati bo'lib kelmoqda. Bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish borasida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Konstitutsiyamiz asosida mamlakatimizda milliy qonunchilik tizimi, davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari shakllandi. Bugungi kunda barcha jabhalarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyatimiz yuksalib, fuqarolarimizning dunyoqarashi tobora o'sib bormoqda. Bularning barchasi, eng avvalo, Bosh qomusimizning hayotbaxsh kuch-qudrati natijasidir. Bugungi kunda dunyoda 230 dan ortiq mamlakat mavjud. Yer yuzida turli xil xalqlar, elatlar, etnik toifalar hamda insoniyatning turli guruhlari ijtimoiy sherikchilik asosida hayot kechirib keladi. Evolyutsion jarayonning turli bosqichlarida insoniyat jamoa va jamiyatlarni bashariyatning asosi va ertangi kunini belgilovchi omil sifatida barpo etib keldi hamda uning asosiy ishtirokchisi sifatida faol harakat qildi. Asrlar qaridan bugungi kungacha yetib kelgan insoniyat taraqqiyotining eng yaxshi ko'rinishiga bizning ota – bobolarimiz ham ilmiy ijodiy, ma'naviy – ma'rifiy hamda ta'lim va tarbiyaning institutsionallashtirilganligi barobarida hissa qo'shganligi barchamizni quvontiradi. O'zbek xalqi yangi davrga qadam qo'yishi ostonasida o'zining huquqiy sohadagi strategik islohatlarini yuksaltishdagi hamda xalqaro me'yorlarga tayangan holda ishlab chiqilgan o'zining qonunlari va konstitutsiyasi bilan jamiyatni demokratik poydevorini mustahkamladi. Yangi O'zbekistonning yangilangan konstitutsiyasi to'laqonli zamonaviy davlat tamoyillariga mos holda ishlab chiqilgan, va mamlakatning strategik rivojlanish tendensiyalarini ta'minlovchi asosiy me'yoriy hujjat ekanligini tan olib anglashimiz kerak.

ASOSIY QISM

1-MAVZU. YANGI TAHRIRDAGI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI FANINIG MAQSADI VA VAZIFALARI.

REJA:

1. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining jamiyat taqaddiyotidagi o‘rni.

2. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fanining manbalari.

3. Konstitutsiya tushunchasi, mohiyati va belgilari. Konstitutsiyalarning funksiyalari va ularning turlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-67–sonli Farmoni oliy ta‘lim tizimida asosiy o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi. Mazkur hujjat talablaridan kelib chiqqan holda, barcha ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarining o‘quv rejalariga “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi” fanini tanlov fanlari blokiga kiritish majburiyati belgilandi. Ushbu fanning joriy etilishi oliy ma‘lumotli kadrlar tayyorlash jarayonida talaba-yoshlarning taxrirlanadigan bosh qomusimizda mustahkamlangan huquqiy normalar bo‘yicha nazariy bilimlarini tizimlashtirishga qaratilgan. Shu bilan birga, Konstitutsiyaning davlat boshqaruvi, jamiyat evolyutsiyasi hamda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan adolatli va xalqparvar davlat modelini barpo etishdagi konseptual ahamiyatini yoritish fanning ustuvor vazifasi hisoblanadi. ¹ Zero, “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyatini o‘rganish” fanining o‘qitilishi talabalarda zamonaviy konstitutsiyaviy dunyoqarashni shakllantirish

¹ <https://lex.uz/docs/-6461609>

barobarida, asosiy qonun normalarini ijtimoiy va kasbiy faoliyatda samarali qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Oliy ta‘lim muassasalarida “Yangi talqindagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyatini o‘rganish” o‘quv kursini o‘qitishdan ko‘zlangan asosiy maqsad talaba-yoshlarning yangilangan bosh qomusimizda mustahkamlangan fundamental normalar bo‘yicha huquqiy savodxonligini tizimli ravishda yuksaltirishdir. Mazkur kurs Konstitutsiyaning davlat boshqaruvi, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik hamda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan xalqparvar va adolatli davlat qurish yo‘lidagi konseptual ahamiyatini atroflicha yoritishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ta‘lim oluvchilarda yangi konstitutsiyaviy dunyoqarashni shakllantirish, ularda asosiy qonun normalarini kundalik hayot va kasbiy faoliyatda samarali qo‘llash bo‘yicha ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish o‘quv jarayonining ustuvor yo‘nalishlari belgilangan. Shuni aytish kerak-ki, Konstitutsiya nafaqat oliy yuridik kuchga ega hujjat, balki xalqimizning ijtimoiy-siyosiy irodasini aks ettiruvchi murakkab tarixiy-huquqiy fenomen hisoblanadi. Shu bois, uning mazmun-mohiyatini jamiyat ongiga chuqur singdirish uchun hujjatning yaratilish genezisini, uning evolyutsion bosqichlarini tarixiy tahlil prizmasi orqali tadqiq etish va o‘rganish ob‘ektiv zaruriyatdir.

Har qanday mamlakatning davlat boshqaruvi tizimi tarixiy jarayonlar davomida muayyan huquqiy asoslarga tayangan holda vujudga kelgan. Biroq mazkur qonuniy manbalar turli davrlarda rang-barang shakllarda va turlicha nomlar bilan atab kelingan. Hozirda O‘zbekiston Respublikasi sarhadlarida qadimdan konstitutsiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan, ya‘ni ijtimoiy-siyosiy tuzumning tub mohiyatini belgilovchi tayanch me‘yoriy hujjatlarga amal qilingan. Tarixiy ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, VIII asrdan e‘tiboran Movarounnahrda ijtimoiy aloqalarni muvofiqlashtiruvchi Bosh qonun vazifasini Islom Qur‘oni bajargan. Shuningdek, XIII-XIX asrlar oralig‘ida mintaqada shariat qoidalari bilan bir vaqtda davlatning huquqiy maqomiga sezilarli ta‘sir o‘tkazgan Chingizxon yosoq qonunlari hamda Amir Temur

tuzuklari Sharq sivilizatsiyasiga xos bo'lgan konstitutsiyaviy hujjatlar hisoblangan. Konstitutsiya atamasi lotincha so'zdan olingan bo'lib, (tuzilish yoki o'rnatish) ma'nolarini anglatadi va davlatning oliy yuridik kuchga ega hujjati hisoblanadi. O'zbekiston tarixining 1992-yilgi asosiy qonunigacha bo'lgan davrida ham bir qator konstitutsiyalar amalda bo'lgan, biroq ularning barchasini mustaqil davlatning chinakam huquqiy hujjatlari deb bo'lmasdi. Binobarin, O'zbekiston SSR tashkil etilishidan avval yurtimiz hududida RSFSR tarkibiga kirgan Turkiston ASSR, shuningdek, Xorazm va Buxoro Xalq Sovet Respublikalari kabi qaram davlat tuzilmalari mavjud edi. Bolsheviklar boshqaruvidagi Sovet ittifoqi davrida ittifoqdosh va muxtor respublikalar tomonidan konstitutsiyalarning qabul qilinishi, asosan, davlat mustaqilligining soxta ko'rinishini yaratish hamda tashqi mafkuraviy targ'ibotni kuchaytirishga xizmat qilgan. Mazkur huquqiy hujjatlar mohiyatan mustaqil xarakterga ega bo'lmay, RSFSR va keyinchalik SSSR asosiy qonunlarining andoza nusxasi sifatida shakllantirilgan. Xususan, 1918-yil 15-oktyabrda tasdiqlangan Turkiston ASSRning birinchi Konstitutsiyasi bevosita RSFSRning 1918-yilgi Konstitutsiyasi negizida ishlab chiqilib, o'lkaning Rossiya Federatsiyasiga tarkibiy jihatdan qaramligini huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'ydi. O'lkaning mustamlakachilik maqomi 1920-yil 24-sentyabrda Turkiston Sovetlarining IX syezdida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada yanada aniq ifodalangan. 20 bob va 109 moddadan iborat bo'lgan ushbu hujjatga binoan, mahalliy hukmdorlar va ularning sulolalariga tegishli barcha boyliklar davlat mulki deb e'lon qilinib, Markaz (Moskva) tasarrufiga o'tkazildi.

Xuddi shunday siyosiy manipulyatsiya (nazorat) XXS Respublikasida ham kuzatildi. 1920-yilda qabul qilingan XXSR Konstitutsiyasida dastlab xususiy mulkchilik va yerga egalik qilish huquqlari saqlab qolinishi e'lon qilingan bo'lsa-da, bu bolsheviklar tomonidan milliy va tabiiy resurslarni to'liq nazoratga olishga qaratilgan vaqtinchalik taktik yurish edi. Keyinchalik, 1923-yil 20-oktyabrdagi IV Butun Xorazm Sovetlari syezdida qabul qilingan

navbatdagi Konstitutsiya sovet rejimining mintaqadagi gegemonligini yanada kuchaytirdi. Mazkur hujjat bilan jamiyatning muayyan qatlamlari — mulkdorlar, s va d---saylov huquqidan mahrum etilib, siyosiy hokimiyatning to'liq sinfiy (sovetlar) nazoratiga o'tishi qonuniylashtirildi.

Buxoro amirligi hududida 1920-yilning sentyabr oyida sovet rejimi o'rnatilishi natijasida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) tashkil etildi. 1921-yil 23-sentyabrda bo'lib o'tgan II Butun Buxoro Sovetlari syezdida mazkur respublikaning ilk Konstitutsiyasi tasdiqlandi va u bevosita RSFSRning asosiy qonuni andozalari asosida shakllantirildi. Keyinchalik, 1924-yil 31-yanvarda qabul qilingan SSSR Konstitutsiyasi ittifoqdosh respublikalar, jumladan, O'zbekiston SSR uchun ham yangi huquqiy tartibni belgilab berdi. 1927-yil 30-martda O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi qabul qilingach, uning ma'muriy tarkibiga Tojikiston muxtor respublikasining kiritilishi markaziy hokimiyat uchun mintaqadagi siyosiy nazoratni yanada mustahkamlashga xizmat qiluvchi qulay mexanizm bo'lib xizmat qildi.

1936-yil 5-dekabrda SSSR Konstitutsiyasi talablaridan kelib chiqqan holda, 1937-yilda O'zbekiston SSRning navbatdagi Konstitutsiyasi ishlab chiqildi. Unda davlat boshqaruv tizimi, mahalliy sovetlarning shakllanish tartibi, vakolat muddatlari hamda saylov huquqiga doir ayrim normalar oldingi tahrirlarga nisbatan qisman transformatsiyaga uchradi. 1978-yil 19-martda esa respublikaning yangi Konstitutsiyasi loyihasi jamoatchilik muhokamasiga havola etildi. Mazkur loyiha 1977-yil 7-oktyabrdagi SSSR Konstitutsiyasiga to'liq muvofiqlashtirilgan holda, 1978-yil 15-aprelda O'zSSR Oliy Soveti sessiyasida ko'rib chiqildi va 19-aprel sanasida rasman qabul qilindi.

Shu sababli, 1990-yil iyun oyida Respublika Oliy Kengashining ikkinchi sessiyasida yangi Asosiy Qonun loyihasini ishlab chiqish maqsadida 64 nafar mutaxassisdan iborat Konstitutsiyaviy komissiya tashkil etildi. Mazkur loyiha ustida bir yarim yil davomida izchil tayyorgarlik ishlari olib borildi va natijada 1992-yil 8-dekabrda Oliy Kengashning o'n ikkinchi chaqiriq XI sessiyasida mustaqil O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi rasman qabul qilindi.

Dastlabki tahrirda Konstitutsiya 6 bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat qilib belgilandi. O'tgan davr mobaynida mamlakatimiz parlamenti tomonidan Konstitutsiya normalari asosida 750 dan ziyod qonunlarning qabul qilinishi hamda 200 dan ortiq ko'p tomonlama xalqaro shartnomalarning ratifikatsiya qilinishi natijasida Asosiy Qonunni hayotga tatbiq etishning yaxlit va samarali huquqiy mexanizmi shakllantirildi.

Hozirgi vaqtda mamlakatlar miqyosida 500 dan ortiq amaldagi Konstitutsiyalar mavjud bo'lib, ularning 200 ga yaqini mustaqil davlatlarga, 300 tadan ortig'i esa federatsiya sub'ektlariga tegishlidir. Tarixiy jihatdan olib o'rganilganda Shumer hukmdori Ur-Nammining qonunlar to'plami dunyodagi eng qadimgi yozma huquqiy manba hisoblanib, ushbu sopol lavhalarning yoshi 4 ming yildan oshadi. Ta'kidlash joizki, Konstitutsiya o'zgarmas tamoyil emas, balki jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi harakatlar dasturidir. Shu bois, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish imkoniyati barcha zamonaviy Konstitutsiyalarning fundamental xususiyati sanaladi. Jamiyat rivojining turli bosqichlarida barcha davrlar uchun birdek xizmat qiladigan abadiy konstitutsiyaviy matn yaratishning imkoni yo'q.

Shu nuqtai nazardan, XX asrning so'nggi o'n yilligi va XXI asrning boshlari jahon yurisprudensiyasi tarixiga konstitutsiyaviy islohotlarning yangi sifat bosqichiga chiqishi hamda huquqiy dunyoqarashning tubdan yangilanish davri sifatida kirdi. Xususan, oxirgi 30 yil davomida dunyoning 100 dan ortiq mamlakatida konstitutsiyaviy islohotlar o'tkazilgan bo'lsa, shundan 57 tasida yangi Konstitutsiyalar qabul qilindi. O'zgartirishlar soni bo'yicha Kolumbiya, Hindiston Braziliya, Shveysariya, Gruziya, Meksika, Yangi Zelandiya, Avstriya, Isroil va Chili kabi davlatlar yetakchi o'rinlarni egallaydi. Mazkur islohotlar, asosan, davlat va jamiyatni modernizatsiya qilish hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan inqirozlarning oldini olishga qaratilgandir. Bugungi kunda dunyoda o'zining dastlabki tahririni saqlab qolgan Konstitutsiyalar deyarli mavjud emas. Masalan, eng qadimgi hisoblangan AQSh

Konstitutsiyasiga 27 ta tub o'zgartirish kiritilgan bo'lsa, Norvegiyada ushbu ko'rsatkich 200 tadan oshgan (moddalarning atigi uchdan bir qismi asl holida qolgan), Niderlandiyada esa 24 marotaba keng ko'lamlı modernizatsiya ishlari amalga oshirilishi natijasida deyarli barcha normalar yangilangan.

Zamonaviy globallashuv tendensiyalari sharoitida dunyo mamlakatlari konstitutsiyaviy rivojlanishning barqaror va samarali modellarini jadal shakllantirmoqda. Bu jarayonda Konstitutsiya davlatning siyosiy-ijtimoiy barqarorligini ta'minlovchi fundamental omil bo'lib xizmat qiladi. Konstitutsiyaviy tamoyillar mohiyatan uchta konseptual yo'nalishni o'z ichiga oladi: birinchidan, insonning asosiy huquq va erkinliklari (shaxs Konstitutsiyasi); ikkinchidan, jamoat huquqlari va ijtimoiy munosabatlar (jamiyat Konstitutsiyasi); uchinchidan, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tizimini optimallashtirish (davlat Konstitutsiyasi).

Konstitutsiyaviy islohotlar hozirgi va kelajakdagi izchil taraqqiyotning mustahkam yuridik poydevori hisoblanadi. Xususan, hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro nazorat va muvozanat tizimini takomillashtirish, boshqaruvda shaffoflik, hisobdorlik va prognozlashtirish darajasini oshirishga qaratilgan huquqiy o'zgarishlar "samarali boshqaruv" mexanizmining hayotiy ientiga aylanadi. Boshqaruv sifati va samaradorligining yuksalishi siyosiy tizim barqarorligini kafolatlaydi, bu esa o'z navbatida iqtisodiy o'sish, investitsiyaviy jozibadorlik va umumiy ijtimoiy farovonlik uchun qulay zamin yaratadi.

Jahon tajribasini tahlil qilish shuni ko'rsatmoqdaki, davlatning Bosh qonunini davr talablariga moslashtirish va uning zamonaviy tahdidlarga nisbatan barqarorligini oshirish ob'ektiv zaruriyatdir. Bugungi kunda konstitutsiyaviy rivojlanishning ustuvor tendensiyalari Konstitutsiyani milliy taraqqiyotning oliy kafolati sifatida belgilashga qaratilgan. Har bir xalqning strategik maqsadlari va ezgu intilishlari, avvalo, uning asosiy qonunida o'zining huquqiy ifodasini topadi.

Mustaqillik davrida mamlakatimizda inson qadri ustuvor bo'lgan demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida boy tarixiy tajriba shakllandi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan hayotga tatbiq etilayotgan Yangi O'zbekiston strategiyasi ushbu islohotlarni sifat jihatidan yangi va yuksak bosqichga ko'tardi. Zero, Yangi O'zbekistonni barpo etishning barcha strategik yo'nalishlari bevosita yangilangan Konstitutsiyaviy normalalar bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu jarayon fuqarolarning eng muhim orzu-niyatlari va hayotiy manfaatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

O'zbekiston bugungi kunda o'z taraqqiyotining sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'yimoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan adolatli va xalqparvar davlat barpo etish yo'lidagi konseptual vazifalarni to'laqonli ro'yobga chiqarish, uning ko'lami va maqsadlariga monand bo'lgan mustahkam konstitutsiyaviy makonni shakllantirishni ob'ektiv ravishda taqozo etmoqda. Binobarin, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli yangilanishlar shunchaki ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar majmuasi emas, balki davlatchilik asoslarini mustahkamlovchi konstitutsiyaviy hayotiy zaruriyatdir.

Shu nuqtai nazardan, amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlarni quyidagicha tavsiflash mumkin:

-Jamiyat evolyutsiyasining mahsuli: Islohotlar jamiyat rivojlanishining tabiiy va mantiqiy natijasi sifatida namoyon bo'ladi;

-Strategik yo'naltiruvchi: Millat sifatida kelajakdagi istiqbolli qadamlarimizni belgilab beruvchi huquqiy mayoq vazifasini o'taydi;

-Siyosiy poydevor: Adolatli va xalqparvar davlat qurish yo'lidagi eng muhim huquqiy asos hisoblanadi.

Amaldagi konstitutsiyaviy o'zgarishlarning bosh strategik maqsadi insonning sha'ni, qadr-qimmatini va fundamental huquqlarini barcha sohalarida ustuvor qoida sifatida mustahkamlashdan iboratdir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya mazmun-mohiyatiga "Inson qadri uchun" degan olijanob g'oya hamda "Inson

– jamiyat – davlat” paradigmasi chuqur singdirilgan. Ushbu tamoyil davlat organlari faoliyati faqat va faqat inson manfaatlariga xizmat qilishi lozimligini konstitutsiyaviy darajada muhrlab qo‘yadi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, O‘zbekistondagi konstitutsiyaviy islohotlar shunchaki huquqiy matnni tahrirlash emas, balki davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida inson omilini ulug‘lashga qaratilgan fundamental burilishdir. Yangilangan Bosh qomusimiz:

1. Huquqiy kafolat: Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining barcha yo‘nalishlari uchun mustahkam poydevor yaratadi;

2. Ijtimoiy adolat: “Inson – jamiyat – davlat” tizimi orqali davlatning fuqarolar oldidagi mas’uliyatini yangi bosqichga ko‘taradi;

3. Barqarorlik: Milliy manfaatlar va xalqning orzu-intilishlarini qonuniy muhrlash orqali mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Binobarin, yangilangan konstitutsiyaviy makon adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishda hamda har bir shaxsning huquq va erkinliklarini kafolatlashda eng asosiy hayotiy dastur bo‘lib xizmat qiladi.

Savol va topshiriqlar

1. "Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi" fanining predmeti nimalardan iborat va ushbu fan boshqa yuridik fanlar (masalan, Davlat va huquq nazariyasi) bilan qanday bog‘liq?

2. 2023-yil 30-apreldagi referendum orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning asosiy siyosiy va huquqiy zaruriyati nimada edi?

3. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada "inson – jamiyat – davlat" bog‘liqliklar inson huquqlarini himoya qilishning yangi mexanizmlarini qanday tushuntirib berasiz?

4.O'zbekistonning "Ijtimoiy davlat" deb e'lon qilinishi Konstitutsiyaviy huquq fanining vazifalarini qanchalik kengaytirdi?

5.Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga binoan Oliy Majlis, Prezident va Vazirlar Mahkamasi o'rtasidagi vakolatlar taqsimoti qanday o'zgardi?

FOR AUTHOR USE ONLY

2-MAVZU. YANGI TAHRIRDAGI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING QABUL QILINISHI ZARURAT

REJA:

1. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Konstitusiyasi va uning o‘ziga xos jihatlari.
2. Yangi tahrirdagi Konstitusiyaning qabul qilinishi va unga bo‘lgan hayotiy zarurat.
3. Yangilangan Konstitutsiyaning tuzilishi va undagi asosiy yangi o‘zgarishlar.

Hozirgi vaqtda jahon miqyosida 500 dan ziyod amaldagi Konstitutsiyalar mavjud bo‘lib, ularning 200 ga yaqini mustaqil davlatlarning, 300 dan ortig‘i esa federatsiya sub‘ektlarining asosiy qonunlari hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyoda o‘zining ilk tahririni o‘zgarishsiz saqlab qolgan Konstitutsiyalar deyarli mavjud emas. Hatto eng qadimiy hisoblangan AQSh Konstitutsiyasiga 27 marotaba tub o‘zgartirish kiritilgan. Norvegiyada esa bu ko‘rsatkich 200 tadan oshib, Bosh qonun moddalarining atigi uchdan bir qismigina dastlabki ko‘rinishini saqlab qolgan. Niderlandiyada ham 24 marta amalga oshirilgan modernizatsiya jarayonlari, xususan, 1983-yildagi tizimli islohotlar natijasida deyarli barcha moddalar yangilangan. Zamonaviy globallashuv sharoitida dunyo mamlakatlari o‘ziga xos konstitutsiyaviy rivojlanish modellarini izlamoqda, bu esa Konstitutsiyaning siyosiy va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlovchi eng muhim omil sifatidagi maqomini yanada mustahkamlamoqda. Konstitutsiyaviy islohotlarning konseptual asoslari va strategik yo‘nalishlari quyidagi uchta fundamental ustuvorlik negizida shakllantirilgan:

1. Shaxs Konstitutsiyasi: Inson huquqlari va qadr-qimmatining ustuvorligi. Islohotlarning mazkur yo‘nalishi insonning fundamental huquq va erkinliklari ko‘lamini kengaytirishga xizmat qiladi. Bu borada har bir

shaxsning daxlsizligi, uning jamiyatdagi ijtimoiy-huquqiy maqomi hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning samarali mexanizmlari takomillashtirilmoqda. Asosiy maqsad — davlatning har bir fuqaro oldidagi mas’uliyatini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlash va shaxs manfaatining davlat manfaatlaridan ustunligini ta’minlashdir.

2. Jamiyat Konstitutsiyasi: Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish.

Ikkinchi yo‘nalishda "umumjamiyat huquqlari" hamda jamoat manfaatlarini huquqiy himoya qilish masalalariga asosiy urg‘u beriladi. Ushbu tizim quyidagi muhim tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

-Fuqarolik institutlari: Nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi rolini tizimli oshirish.

-Ijtimoiy sheriklik: Davlat organlari va jamiyat o‘rtasida konstruktiv hamda samarali muloqot platformasini shakllantirish.

-Jamoatchilik nazorati: Ijro hokimiyati va boshqa davlat tuzilmalari faoliyati ustidan xalq nazoratining ta’sirchan shakllarini huquqiy jihatdan mustahkamlash.

3. Davlat Konstitutsiyasi: Davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish.

Mazkur yo‘nalish davlat hokimiyati apparati faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishga qaratilgan. Bunda vakillik demokratiyasi institutlari (saylov va referendumlar) bevosita xalq irodasining real ifodasi bilan uyg‘unlashtiriladi. Shuningdek:

-Hokimiyatning uchta tarmog‘i (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud) o‘rtasidagi tiyib turish va muvozanat tizimi (checks and balances) konseptual jihatdan mustahkamlanadi.

-Sud hokimiyatining mustaqilligi va xolisligi to'liq kafolatlanadi.

-Barcha darajadagi mansabdor shaxslarning jamoatchilik oldidagi hisobdorligi hamda shaxsiy mas'uliyati kuchaytiriladi.

Konstitutsiyaviy islohotlarning strategik istiqbollari Konstitutsiyaviy yangilanishlar shunchaki huquqiy o'zgarishlar majmuasi emas, balki mamlakat barqaror taraqqiyotining yuridik kafolatidir. Ushbu islohotlar xalqaro miqyosda e'tirof etilgan "samarali boshqaruv" (*good governance*) tamoyillarini milliy davlatchilik amaliyotiga tatbiq etishning fundamental huquqiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Boshqaruv sifati va iqtisodiy barqarorlik o'rtasidagi uzviy bog'liqlik zamonaviy davlat taraqqiyotining fundamental asosini tashkil etadi. Boshqaruv tizimidagi shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlarining takomillashuvi siyosiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omildir. Bu o'z navbatida mamlakatning iqtisodiy jozibadorligini yuksaltirib, xorijiy investitsiyalar oqimi va umumiy ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish uchun mustahkam zamin yaratadi. Zero, adolatli va barqaror huquqiy makon — har qanday taraqqiyotning birlamchi va zaruriy shartidir. Dunyo miqyosidagi konstitutsiyaviy o'zgarishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, davlatning Bosh qonunini zamon talablariga moslashtirish hamda uning global chaqiriqlarga javob berish qobiliyatini oshirish ob'ektiv zaruriyatga aylangan.

Zamonaviy konstitutsiyaviy rivojlanishning ustuvor tendensiyalari hamda mamlakatimizdagi yangilanish jarayonlari quyidagi tizimli yo'nalishlarga tayanadi:

1. Islohotlarning kompleks va tizimli xarakteri: Konstitutsiyaviy o'zgarishlar faqatgina huquqiy soha bilan cheklanib qolmay, balki siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va gumanitar jabhalardagi modernizatsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv jamiyat hayotining barcha tarmoqlarida o'zaro muvozanatni va izchil taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladi.

2.Davlat boshqaruvi mexanizmlarini takomillashtirish: Konstitutsiyaviy tartibga solish doirasining kengayishi davlat apparatini tubdan isloh qilishni nazarda tutadi. Bunda boshqaruv shaklining demokratlashuvi hamda davlat organlari faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni joriy etish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon davlatning xalq oldidagi mas'uliyatini yanada kuchaytiradi.

3.Milliy suverenitet va konstitutsiyaviy o'ziga xoslik: Konstitutsiyaviy ko'lamning kengayishi milliy huquqiy suverenitetni mustahkamlashga xizmat qiladi. Mazkur jarayon davlatning tarixiy, madaniy va milliy qadriyatlarini saqlagan holda, uning o'ziga xos konstitutsiyaviy identifikatsiyasini shakllantirish imkonini beradi. Shunday qilib, yangilangan konstitutsiyaviy makon milliy davlatchilik an'analari va zamonaviy demokratik tamoyillarning uyg'unligini ta'minlaydi. Odil sudlov va huquqiy himoya mexanizmlari: Fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlashda sud hokimiyatining roli tubdan oshirilmoqda. Bu borada konstitutsiyaviy odil sudlovni ta'minlash maqsadida Konstitutsiyaviy sud vakolatlari sezilarli darajada kengaytirildi. Xususan, fuqarolarga o'zlarining konstitutsiyaviy huquqlari buzilgan taqdirda, bevosita Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqi berildi. Ushbu to'g'ridan-to'g'ri murojaat mexanizmi inson huquqlari himoyasini oliy darajaga ko'tarishga xizmat qiladi. Huquq ijodkorligining globallasuvi: Zamonaviy konstitutsiyaviy islohotlar xalqaro huquqiy standartlar bilan hamohang tarzda amalga oshirilmoqda.

Dunyo tajribasini inobatga olgan holda, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va normalari milliy qonunchilik tizimiga izchil singdirilmoqda. Mazkur jarayon O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi nufuzini mustahkamlash barobarida, davlat va jamiyat hayotini ekologiyalashtirish, sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish prinsipini hayotga tatbiq etish, raqamli huquqlarni rivojlantirish hamda kiberxavfsizlikni huquqiy tartibga solish kabi zamonaviy vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan. Konstitutsiya har bir davlat taraqqiyotining poydevori bo'lgan huquqiy,

siyosiy va mafkuraviy hujjat — mamlakatning asosiy qonuni hisoblanadi. Fuqarolarning eng muhim orzu-intilishlari va strategik maqsadlari aynan ushbu Asosiy qonunda o'zining to'liq ifodasini topadi. Mustaqillik yillarida Konstitutsiya negizida inson qadri ulug'lanadigan demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilib, boy tajriba to'plandi. Hozirgi kunda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida olib borilayotgan ulkan yangilanishlar jarayonida Bosh qomusimiz markaziy o'rinni egallaydi. Zero, Yangi O'zbekiston strategiyasining barcha yo'nalishlari o'zining huquqiy asosi bo'yicha Konstitutsiya bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston bugun o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yar ekan, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan adolatli va xalqparvar davlat barpo etish vazifalari uning ko'lami va maqsadlariga monand bo'lgan yangi, mustahkam konstitutsiyaviy makonni shakllantirishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, konstitutsiyaviy islohotlar jamiyat rivojlanishining ob'ektiv natijasi bo'lib, millat va xalq sifatida kelgusi strategik qadamlarimizni aniqlab olishda, shuningdek, adolatli jamiyat qurishda hayotiy ahamiyatga egadir.

Binobarin, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida insonning sha'ni, qadr-qimmatini, huquq va erkinliklari barcha sohalarida ustuvor ahamiyat kasb etishini qat'iy qoidaga aylantirish strategik vazifa hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda, "Inson qadri uchun" g'oyasini hamda zamonaviy yangilanishlarning bosh tamoyili bo'lgan "Inson – jamiyat – davlat" yondashuvini yangi tahrirdagi Konstitutsiya mazmun-mohiyatiga chuqur singdirish konseptual ahamiyatga ega. Bugungi kunda O'zbekistonda konstitutsiyaviy islohotlar jarayoni yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. Bosh qomusimiz va uning asosida qabul qilingan qonunchilik hujjatlarining mazmunini chuqur anglash fuqarolarning o'z huquq va manfaatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarishiga xizmat qilish bilan birga, jamiyatda huquqiy ong va qonunlarga hurmat hissini mustahkamlaydi.

Tarixiy xronologiyaga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2022-yil 16-may kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yirik fraksiyalari — O'zLiDeP va "Milliy tiklanish" demokratik partiyalarining alohida, 17-may kuni esa konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirish masalasini parlament palatalari kengashlari muhokamasiga kiritishga bag'ishlangan qo'shma yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Mazkur jarayonlarning mantiqiy davomi sifatida 20-may kuni Senat va Qonunchilik palatasi kengashlarining qo'shma majlisi o'tkazildi. Ushbu yig'ilishda Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflarni shakllantirish hamda tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan Konstitutsiyaviy komissiya tashkil etilib, uning tarkibi va vazifalari aniq belgilandi.

Konstitutsiyaviy komissiya tarkibiga barcha hududlardan xalq vakillari, senatorlar, jamiyatning turli qatlamlari va fuqarolik jamiyati institutlari vakillari, shuningdek, yetuk huquqshunoslar, siyosatshunoslar hamda soha ekspertlaridan iborat 46 nafar a'zo kiritildi. Ta'kidlash joizki, O'zbekistondagi konstitutsiyaviy islohotlarning g'oyaviy ilhomlantiruvchisi Prezident Shavkat Mirziyoyev bo'lsa, uning asosiy tashabbuskori va harakatlantiruvchi kuchi mamlakatimiz aholisining keng qatlamlari hisoblanadi. Mazkur islohotlar xalq irodasining huquqiy ifodasi sifatida Yangi O'zbekiston poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Birinchidan, 2021-yil oktyabr oyida bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi jarayonida barcha nomzodlarning elektorat vakillari bilan uchrashuvlari chog'ida demokratik islohotlarning mantiqiy davomi sifatida konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirish bo'yicha hayotiy takliflar ilgari surildi. Xususan, Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan dastlabki tashabbus Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan Prezidentlikka nomzod Shavkat Mirziyoyevning Qoraqalpog'iston Respublikasining Bo'zatov tumanidagi saylovchilar bilan uchrashuvida bayon etildi. Mazkur muloqotda Orol dengizining qurishi bilan bog'liq global ekologik fojia sharoitida

insonning ekologik huquqlari, xususan, aholining hozirgi va kelajak avlodlari uchun qulay hamda toza atrof-muhitga ega bo'lish huquqini Bosh qonunda mustahkamlashning dolzarb ahamiyati alohida ta'kidlandi.

Prezidentlikka nomzod Shavkat Mirziyoyevning respublikamizning boshqa hududlaridagi saylovchilar bilan o'tkazgan uchrashuvlari davomida ham konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarni takomillashtirishga doir qator muhim tashabbuslar o'rtaga tashlandi. Jumladan, xususiy mulk daxlsizligini kuchaytirish, yer va yerosti boyliklariga bo'lgan huquqiy munosabatlarni tartibga solish, inson qadr-qimmati va qonuniy manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarini mustahkamlash masalalari ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilandi. Shu bilan birga, mamlakatda millatlararo totuvlikni ta'minlash, noyob demokratik institut hisoblangan mahalla tizimining maqomini oshirish, oila institutini muhofaza qilish hamda an'anaviy insoniy qadriyatlarni kelajak avlodlarga bezavol yetkazishga oid takliflar ilgari surildi. Shuningdek, davlatning yoshlar va gender siyosati, innovatsion iqtisodiyot hamda "bilimlar iqtisodiyoti"ni rivojlantirish, ijtimoiy soha va iqtisodiyotga investitsiyalar jalb etish ko'lamini kengaytirish kabi tashabbuslar yangilangan konstitutsiyaviy makonning konseptual asosini tashkil etdi.

Eng asosiysi, yuqorida qayd etilgan barcha masalalar bevosita saylovchilar, jumladan, pedagoglar, tadbirkorlar, agrar soha vakillari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda milliy-madaniy markazlar a'zolari — oddiy fuqarolar tomonidan ilgari surilgan. Bu holat, bir tomondan, Prezidentimizning Yangi O'zbekiston strategiyasi doirasidagi demokratik islohotlar kursi xalq tomonidan keng qo'llab-quvvatlanayotganini tasdiqlasa, ikkinchi tomondan, aholining ushbu yangilanishlar natijadorligiga bo'lgan yuksak ishonchini va islohotlarni yanada chuqurlashtirishdan manfaatdorligini ko'rsatadi.

Shuningdek, saylovoldi jarayonlarida boshqa siyosiy partiyalardan ko'rsatilgan nomzodlarning uchrashuvlari davomida ham qator konseptual takliflar bildirildi. Xususan, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik

partiyasi tomonidan milliy an'ana va qadriyatlarni asrab-avaylash hamda ularning konstitutsiyaviy himoyasini kuchaytirish yuzasidan muhim tashabbuslar ilgari surilgan bo'lsa, O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi e'tiborni sud hokimiyati mustaqilligi, qonun ustuvorligi, korrupsiyaga qarshi kurashishning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlash hamda ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirishga qaratdi.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi vakillari aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, ayniqsa, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini kengaytirish hamda ijtimoiy davlat tamoyillarini qonuniy muhrlash zarurligini ta'kidladilar. O'zbekiston Ekologik partiyasi esa mamlakatda "yashil iqtisodiyot"ga o'tishning huquqiy mexanizmlarini yaratish va ekologik noqulay hududlardagi vaziyatni yaxshilash bo'yicha o'z takliflarini bildirdi. Mazkur tashabbuslarning barchasi saylovchilarning real xohish-istaklari hamda jamiyatning bugungi rivojlanish ehtiyojlaridan kelib chiqqan bo'lib, yangilangan Konstitutsiyaning umumxalq irodasi mahsuli ekanligini anglatadi.

Ikkinchidan, saylovchilarning xohish-istaklarini tizimli tahlil qilgan holda, O'zbekiston Prezidenti konstitutsiyaviy islohotlar zaruriyatiga alohida to'xtalib o'tdi. Xususan, 2021-yil 6-noyabrdagi o'zining inauguratsiya nutqida davlat rahbari akademik va ekspertlar hamjamiyati oldiga konstitutsiyaviy rivojlanishning milliy va xorijiy tajribasini chuqur o'rganish vazifasini qo'ydi. Shu bilan birga, deputat va senatorlarni ushbu masalaga mas'uliyat bilan yondashib, aniq va asoslantirilgan takliflar ishlab chiqishga chaqirdi.

Bundan tashqari, Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" nomli fundamental monografiyasining to'ldirilgan nashriga konstitutsiyaviy islohotlarning hayotiy zaruriyatiga bag'ishlangan alohida bo'lim kiritildi. Unda saylovoldi kampaniyasi davomida bildirilgan barcha tashabbuslar umumlashtirilib, islohotlarning strategik ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi.

Konstitutsiyaviy yangilanish jarayoni keng ko'lamli demokratik tamoyillarga tayandi. Birinchi bosqichda 60 mingdan ziyod, ikkinchi bosqichda esa 150 mingdan ortiq takliflar kelib tushdi. Jami hisobda 10 mingdan ortiq qo'shimcha tashabbuslar bildirilib, loyiha bilan 5 milliondan ortiq aholi ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlari orqali yaqindan tanishib chiqdi. Mazkur jarayonda 190 dan ortiq davlatlar tajribasi va xalqaro-huquqiy hujjatlar chuqur o'rganilib, loyiha 6 turdagi ekspertizadan o'tkazildi. Natijada Asosiy qonun matnining 65 foizi aynan xalq takliflari asosida yangilandi.

Qonunchilik palatasi tomonidan ma'qullangan umumxalq referendumi 2023-yil 30-aprel, yakshanba kuni bo'lib o'tdi. Ushbu siyosiy tadbirda mamlakat bo'yicha 10 758 ta, xorijiy davlatlarda esa 55 ta referendum uchastkasi faoliyat yuritdi. Ovoz berish jarayonlarida 964 nafar mahalliy va xorijiy OAV vakillari ishtirok etib, shaffoflikni ta'minladilar. Referendum yakunlariga ko'ra, unda ishtirok etgan 16 667 097 nafar (84,51 foiz) fuqarodan 15 034 608 nafari (90,21 foiz) yangi tahrirdagi Konstitutsiyani qo'llab-quvvatladi. Ovoz beruvchilarning 9,35 foizi loyihaga qarshi ovoz bergan bo'lsa, 73 672 ta byulleten yaroqsiz deb topildi.

Islohotlar natijasida Konstitutsiyadagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, mavjud normalar esa 275 tadan 434 taga ko'paydi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 1-maydan rasman kuchga kirdi. Bu o'zgarishlar yangilangan Bosh qomusimizning shunchaki rasmiyatchilik emas, balki jamiyatimizning bugungi taraqqiyot darajasi va xalqimizning real ehtiyojlaridan kelib chiqqan hayotiy zaruriyat ekanligini tasdiqlaydi. O'zbekiston respublikasi yangi Konstitutsiyada ozgariysh va qo'shimchalar kiritilgan ayrim moddalarni sanab o'tishimiz mumkin. Masalan 2023 yilgi qonunning 1-moddasida O'zbekiston Respublikasi boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatdir deb qoshimcha norma sifatida ijtimoiy va dunyoviy davlat tushunchalari kiritilgan bo'lsa, ushbu qonunning 18, 19, 24, 53,54, 60,61,80,80, 94,95,96,

va boshqa bir qancha moddalaridagi normalar o'zgarishini misol tariqasida aytib o'tishimiz mumkin.

Savol va topshiriqlar

1. Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilgan katta o'zgarishlar (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy) nima sababdan eski hujjat doirasiga sig'may qo
2. Ilgari "Davlat – jamiyat – inson" tamoyili amal qilgan bo'lsa, nima uchun hozirgi yangilanishda "**Inson – jamiyat – davlat**" tartibiga o'tish zarur deb topi
3. O'zbekiston aholisi 37 milliondan oshgani va yoshlar soni ko'paygani sababli, ta'lim va mehnat huquqlari bo'yicha qanday yangi ehtiyojlar paydo b
4. Davlatning kambag'allikni qisqartirish, uysizlarni uy bilan ta'minlash va tibbiy xizmatlarni kafolatlash majburiyatlarini Konstitutsiyaga kiritishga qanday ehtiyoj bor edi.
5. Iqtisodiyotni rivojlantirish uchun tadbirkorlarga qanday yangi huquqiy kafolatlar kerak bo'ldi va bu nima uchun aynan Bosh qomusimizda mustahkamlanishi zarur edi?
5. Orol dengizi fojiasi va global iqlim o'zgarishlari sharoitida, fuqarolarning "qulay atrof-muhitga ega bo'lish" huquqini Konstitutsiyaga kiritish qanchalik zarur edi?

3-MAVZU. KONSTITUTSIYA VA DEMOKRATIYA: EVOLYUTSIYA VA TARIXIY TARAQQIYOT

REJA:

1. Konstitutsiyada demokratik prinsiplarning aks ettirilishi (Xalq hokimiyatchiligi).
2. Inson huquq va erkinliklarinig oliy qadriyat sifatidagi axamiyati
3. Qunun ustivorligi va hokimiyatning bo‘linish prinsipi

Konstitutsiya shunchaki me‘yoriy hujjatlar to‘plami emas, balki demokratik jamiyatning barqarorligini va hayotiyiligini ta‘minlovchi asosiy huquqiy qonundir. Demokratiya tamoyillari faqatgina aniq huquqiy normalar va kafolatlar tizimi asosidagina o‘zining amaliy kuchini namoyon eta oladi. Shu nuqtai nazardan, Bosh qomusimiz davlat mustaqilligining oliy ramzi, milliy o‘zlikning asosi hamda xalq irodasining qonuniy ifodasi hisoblanadi. Asosiy qonunimizning shakllanish tarixi xalqimizning ozodlik, adolat va huquqiy davlat sari bosib o‘tgan mashaqqatli hamda shonli yo‘lining mahsulidir. Bugungi kunda mamlakatimizda kechayotgan barcha strategik yangilanishlar va islohotlar zamirida aynan Konstitutsiya tomonidan belgilab berilgan konseptual yo‘nalishlar yotadi.

Konstitutsiyaviy islohotlarning bosh mezonini sifatida inson qadri belgilangan. Mamlakatimizning Asosiy qonunida mustahkamlangan “Xalq - davlat hokimiyatining yagona manbaidir” degan ustuvor tamoyil bugun real hayotda o‘z tasdig‘ini topmoqda. Mazkur norma nafaqat nazariy-huquqiy qoida, balki davlat boshqaruvining yangi ijtimoiy falsafasiga aylandi. Endilikda davlat organlari va mansabdor shaxslar xalq manfaatlaridan ustun turmaydi, aksincha, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Yangilangan Konstitutsiyamiz markazida “Inson — jamiyat — davlat” g‘oyasi turibdi. Bu har bir shaxsning huquqlari, uning erkin kamol topishi va

farovon turmush kechirishi davlatning oliy burchi hamda asosiy vazifasi ekanini anglatadi. Binobarin, inson manfaatlarini ustuvor bo'lgan jamiyatdagina barqaror yuksalish kuzatiladi. Bunday huquqiy makonda fuqaro har tomonlama barkamol shaxs bo'lib shakllanadi, o'z Vatani uchun taraqqa uchun daxldorlik hissi bilan yashaydi. Eng muhimi, inson huquqlari to'laqonli ta'minlangan jamiyatda sog'lom raqobat muhiti shakllanadi, bu esa ijobiy o'zgarishlar va innovatsion yangilanishlar sur'atini jadallashtirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida mustahkamlab qo'yilganidek, mamlakatimizda demokratiya umuminsoniy tamoyillarga tayanadi. Unga ko'ra, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadriyat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Mazkur demokratik huquq va erkinliklar majmuasi bevosita Asosiy qonun va qonun hujjatlari bilan davlat himoyasiga olingan. Insoniyat taraqqiyoti tarixiga nazar tashlasak, jamiyat va inson haqidagi dastlabki tushunchalar mifologik qarashlar bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanganini ko'rish mumkin. Garchi qadimgi tasavvurlar asotirlar bilan qorishib ketgan bo'lsa-da, ularning zamirida jamoaviy hayotni tartibga soluvchi muayyan qonun-qoidalar mavjud bo'lgan. Qadimgi davrlardan boshlab har bir ijtimoiy tuzilmada jamoa a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan axloqiy va diniy xarakterdagi normalar shakllangan. Odatda jamiyatning boshqaruvchi elita qatlami tomonidan ishlab chiqilgan ushbu tizim ijtimoiy tartibni saqlashning asosiy vositasi bo'lib xizmat qilgan.

Mazkur qoidalar majmuasi, u ixtiyoriy amal qilinadigan an'ana yoki majburiy kuchga ega bo'lgan norma bo'lishidan qat'i nazar, barcha jamoa a'zolari uchun majburiy hisoblangan. Jamiyatlar taraqqiy etib borishi sari shaxslararo munosabatlar tizimi ham murakkablashib, yuksala bordi. Davlat institutlarining shakllanishi, ijtimoiy sohalarining tizimlashuvi va boshqaruv mexanizmlarining rivojlanishi yangi yuridik tartibotni shakllantirish zaruratini tug'dirdi. Dastlabki davrlarda ushbu munosabatlar sulolaviy xarizma va

an'anaviy qoidalardan qorishgan holda ko'plab huquqiy nizolarga sabab bo'lgan bo'lsa, keyinchalik insoniyat tafakkuri va ijtimoiy mafkuralar evolyutsiyasi yuksak yuridik madaniyatning qaror topishiga zamin yaratdi. Natijada zamonaviy dunyoda davlat taraqqiyoti va jamiyat hayotining huquqiy kafolati sifatida Konstitutsiya instituti markaziy o'ringa chiqdi. Zamonaviy konstitutsiyalarning aksariyati davlatning asosiy tamoyillari, boshqaruv tuzilmalari va jarayonlari, fuqarolarning asosiy huquqlari oliy qonunda tasvirlangan bo'lib, ularni oddiy qonun hujjatlari bilan bir tomonlama o'zgartirish mumkin emas. Ushbu Oliy qonun odatda Konstitutsiya deb ataladi. Muayyan konstitutsiyaning mazmuni va tabiati, shuningdek, uning boshqa huquqiy va siyosiy tuzum bilan bog'liqligi mamlakatlarda sezilarli darajada bir-biridan farq qiladi. Konstitutsiya universal va shubhasiz uning ta'rifi yo'qdir. Shunga qaramay, konstitutsiyaning xalqaro miqyosidagi ta'rifi uning huquqiy va siyosiy qoidalar to'plami sifatida tasvirlashi mumkin:

Konstitutsiyaning asosiy o'ziga xos xususiyatlari va huquqiy maqomi quyidagi fundamental jihatlar bilan belgilanadi. Birinchidan, Asosiy qonun mamlakatdagi barcha shaxslar, shu jumladan, qonun ijodkorligi bilan shug'ullanuvchi institutlar uchun ham majburiy xarakterga ega. Ikkinchidan, u davlat hokimiyati organlarining tuzilishi, faoliyat prinsiplari, siyosiy tizim asoslari hamda fuqarolarning fundamental huquq va erkinliklarini belgilab beradi. Uchinchidan, Konstitutsiya keng ko'lamli ijtimoiy qonuniylikka tayanadi. To'rtinchidan, uning barqarorligini ta'minlash maqsadida o'zgartirish kiritish tartibi oddiy qonunlarga nisbatan murakkabroq qilib belgilangan bo'lib, bu jarayon odatda parlamentning uchdan ikki qism ko'pchiligi yoki umumxalq referendumini orqali amalga oshiriladi. Beshinchidan, zamonaviy Konstitutsiya kamida vakillik demokratiyasi va inson huquqlari nuqtai nazaridan xalqaro miqyosda e'tirof etilgan demokratik mezonlarga to'la javob berishi talab etiladi. Konstitutsiyaning vazifalari va qonun ustuvorligi prinsipi ko'plab sohaviy qonun hujjatlarida ham o'z aksini

topgan. Xususan, “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 2-moddasida qonun ustuvorligini ta‘minlash ushbu tizimning asosiy vazifalaridan biri sifatida mustahkamlab qo‘yilgan. Mazkur Qonunning 6-moddasiga muvofiq, ichki ishlar organlari xodimlari o‘z xizmat faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonun hujjatlariga qat’iy rioya qilishlari shart. Qonun talablarini bajarishdan har qanday chekinish, uning sababidan qat’i nazar, qonuniylikni buzish deb baholanadi va tegishli javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Shuningdek, xodimlar o‘zlarining qonunga zid harakatlarini yoki harakatsizligini oqlash maqsadida xizmat manfaatlarini, iqtisodiy maqsadga muvofiqlikni yoki yuqori turuvchi rahbarlarning g‘ayriqonuniy buyruqlarini ro‘kach qilishlari mutlaqo taqiqlangan. Qonunchilikda ichki ishlar organlari xodimlariga shaxslarni noqonuniy harakatlar sodir etishga bevosita yoki bilvosita qiziqtirish yoki undash qat’iyan man etilishi belgilangan. Bu esa davlat organlari faoliyatida konstitutsiyaviy normalarning so‘zsiz ijrosini ta‘minlashning muhim kafolatidir.

1. Konstitutsiyalar siyosiy jamiyatning amal qilish doirasi va chegaralarini belgilab beradi. Mazkur chegaralar ham hududiy, ham shaxsiy xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Hududiy jihatdan davlatning geografik sarmadlari hamda uning yurisdiksiyasiga tegishli hududlar aniqlashtirilsa, shaxsiy jihatdan fuqarolik maqomi va uning huquqiy ta‘rifi shakllantiriladi. Shunday qilib, asosiy qonun siyosiy tizimning ichki sub’ektlari va tashqi ishtirokchilari o‘rtasidagi huquqiy tafovutni belgilovchi vosita hisoblanadi.

2. Konstitutsiyalar siyosiy hamjamiyatning mohiyati va vakolatlar doirasini qonuniy muhrlaydi. Ular odatda milliy huquqiy tizimning fundamental poqdevorini tashkil etib, mamlakat suvereniteti, uning ma‘muriy-hududiy tuzilishi hamda boshqaruv prinsiplarini o‘zida mujassam etadi. Masalan, Fransiya Konstitutsiyasida davlatning ajralmas, dunyoviy, demokratik va

ijtimoiy respublika ekanligi hamda milliy suverenitetning yagona manbai xalq ekanligi mustahkamlangan. Shunga o'xshash normalar Gana Konstitutsiyasida ham o'z aksini topgan bo'lib, unda davlat hokimiyati xalq farovonligi yo'lida va uning nomidan amalga oshirilishi belgilangan.

3. Konstitutsiyalar milliy o'zlikni hamda jamiyatning ma'naviy-huquqiy qadriyatlarini ifoda etuvchi asosiy hujjatdir. Davlat qurish jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida unda davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi kabi ramzlar belgilab qo'yiladi. Shu bilan birga, asosiy qonunda millatning tarixiy yo'li, o'ziga xosligi va kelajak avlodlar uchun saqlanishi lozim bo'lgan fundamental qadriyatlar e'lon qilinadi.

4. Konstitutsiyalarda fuqarolarning huquqiy maqomi, ya'ni ularning huquq va majburiyatlari tizimi shakllantiriladi. Aksariyat zamonaviy konstitutsiyalar inson va fuqaroning asosiy huquqlari deklaratsiyasini o'z ichiga oladi. Bunga demokratik jamiyat uchun poydevor hisoblangan fikrlash, so'z, uyushmalarga birlashish va yig'ilishlar o'tkazish erkinliklari, shuningdek, asossiz hibsga olish va noqonuniy jazolardan himoyalaniş huquqlari kiradi. Ko'pgina mamlakatlarning bosh qonunlari ushbu minimal talablardan kengroq ko'lamni qamrab olib, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy huquqlar hamda etnik ozchiliklarning jamoaviy huquqlarini ham kafolatlaydi. Ayrim huquqlar, xususan, qiynoq va jismoniy zo'rvonlikdan xoli bo'lish kabi daxlsiz huquqlar shaxsning fuqaroligidan qat'i nazar, barcha uchun teng taalluqlidir.

5. Konstitutsiya davlat siyosiy tizimini shakllantirish va uning barqaror faoliyatini ta'minlashning fundamental huquqiy asosi hisoblanadi. U boshqaruv organlarining nafaqat tarkibi va tuzilishini, balki ularning vakolat doirasi hamda o'zaro hamkorlik mexanizmlarini ham tartibga soladi. Zamonaviy konstitutsiyaviylik tamoyillariga ko'ra, davlat hokimiyati uchta mustaqil tarmoqqa — qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linadi. Shu bilan birga, tizimda shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash maqsadida Markaziy saylov komissiyasi, Ombudsman (Inson huquqlari

bo'yicha vakil) kabi maxsus institutlar joriy etiladi. Demokratik muvozanatni saqlash va hokimiyatni suiiste'mol qilishning oldini olish uchun erkin saylovlar orqali rahbarlarni yangilash hamda qonunbuzarlikka yo'l qo'ygan mansabdorlarni lavozimidan chetlatish imkonini beruvchi impeachment kabi huquqiy vositalar ko'zda tutiladi.

6. Konstitutsiyalar hokimiyat vakolatlarining turli ma'muriy qatlamlar yoki sub-davlat jamoalari o'rtasida taqsimlanishini huquqiy jihatdan tartibga soladi. Davlat tuzilishiga qarab, federal, kvazi-federal yoki markazlashmagan boshqaruv modellarini joriy etish orqali hududiy sub'ektlar (viloyatlar, shtatlar, avtonomiyalar) o'rtasida vakolatlar bo'lishiladi. Bu taqsimot Argentina yoki Hindiston kabi geografik jihatdan aniqlangan bo'lishi yoki Belgiya tajribasidagi kabi madaniy va lingvistik hamjamiyatlarning avtonomiyasini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi mumkin.

7. Konstitutsiyalar davlatning diniy va dunyoviy munosabatlardagi pozitsiyasini hamda rasmiy o'ziga xosligini belgilab beradi. Ko'pgina mamlakatlarda asosiy qonun e'tiqod erkinligini kafolatlashi barobarida, muqaddas din va dunyoviy hokimiyat o'rtasidagi huquqiy chegaralarni aniqlashtiradi. Bu, ayniqsa, diniy qadriyatlar milliy o'zlik bilan uzviy bog'langan yoki shaxsiy maqomga oid nizolar an'anaviy diniy qoidalar asosida hal qilinadigan jamiyatlarda ijtimoiy barqarorlikni saqlashning muhim omili hisoblanadi.

8. Konstitutsiyalar davlat zimmasiga muayyan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanish maqsadlariga erishish majburiyatini yuklaydi. Bu majburiyatlar sud tartibida himoya qilinadigan ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar yoki hukumat uchun siyosiy dasturilamal bo'lib xizmat qiladigan direktiv tamoyillar shaklida bo'lishi mumkin. Bunday normalar davlatning nafaqat tartib o'rnatuvchi, balki jamiyat farovonligini oshirish va barqaror yuksalishni ta'minlashga mas'ul bo'lgan strategik sub'ekt sifatidagi rolini mustahkamlaydi.

Konstitutsiya: Huquqiy hujjat, ijtimoiy deklaratsiya va siyosiy mexanizm sifatida: Konstitutsiya zamonaviy davlatning nafaqat bosh qonuni,

balki jamiyat hayotining barcha jabhalarini tartibga soluvchi ko'p funksiyali hujjatdir. Uning mohiyatini quyidagi uchta asosiy yo'nalishda ko'rish mumkin:

Konstitutsiya huquqiy hujjat sifatida Konstitutsiya davlat hokimiyatini adolat va qonuniylik mezonlari bilan bog'lovchi oliy yuridik kuchga ega hujjatdir. U hokimiyat organlarining faoliyat ko'rsatish tartibini protsessual jihatdan oldindan belgilab beradi, qonun ustuvorligini kafolatlaydi va vakolatlarni suiiste'mol qilish yoki o'zboshimchalik bilan qaror qabul qilishga to'siq qo'yadi. Davlatning oliy qonuni sifatida u barcha boshqa qonunlar va normativ hujjatlar rioya qilishi shart bo'lgan oliy standart va huquqiy o'lchov vazifasini o'taydi.

Konstitutsiya ijtimoiy deklaratsiya sifatida Konstitutsiyalar ko'pincha jamiyatning aniq qiyofasini aks ettirish va uning kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu hujjat xalqning umumiy o'zligini, tarixiy intilishlarini, umuminsoniy qadriyatlari va milliy g'oyalarini tantanali ravishda e'lon qiladi. Bunday qoidalar, qoida tariqasida, Konstitutsiyaning muqaddima qismida, davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya), shiorlar va qasamyod matnlarida o'z ifodasini topadi. Shunday ekan, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar, madaniy va lingvistik siyosat hamda ta'lim tizimiga oid normalar ham jamiyatning ijtimoiy qiyofasini belgilovchi muhim elementlar hisoblanadi.

Konstitutsiya siyosiy asbob sifatida

Konstitutsiya mamlakatdagi muhim siyosiy qarorlar qabul qilinadigan institutlar tizimini va ularning faoliyat doirasini belgilab beradi. Unda oliy hokimiyatni shakllantirish normalari kiritilgan bo'lib, hokimiyat samarali boshqaruvni ta'minlaydigan darajada taqsimlanadi. Bu esa siyosiy kuchlar o'rtasidagi raqobat va muloqot uchun huquqiy maydon yaratadi. Konstitutsiyaviy qoidalar davlat institutlari qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat, sudlar, davlat rahbari, mahalliy boshqaruv va mustaqil nazorat

organlarining qanday tuzilishi, qanday vakolatlarga ega bo'lishi hamda ularning o'zaro hamkorlik mexanizmlarini aniq ko'rsatib beradi. Aynan yuqorida qayd etilgan normalar Konstitutsiyaning 11-moddasida mustahkamlangan va 1992 yilgi Konstitutsiyaga nisbatdan o'zgarishsiz qolgan, sababi mamalakatda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatning bo'lishi bu davlat boshqaruvining samalari tamoyillarida bir ekanligini ilk davlatchiligimizning shakllanishidan anglab kelmoqdamiz. Konstitutsiyalarning funksional vazifalari va ichki tuzilishi ularning qaysi arxetipga mansubligini belgilab beradi. Ilmiy tahlillarga ko'ra, konstitutsiyaviy modellarni asosan ikki turga — protsessual va retseptiv arxetiplarga ajratish mumkin. Ushbu modellar o'rtasidagi farq hujjatning jamiyat oldiga qo'ygan maqsadlari va uning huquqiy tabiatidan kelib chiqadi.

Protsessual konstitutsiyalar

Protsessual konstitutsiya mohiyatini davlat boshqaruvining "huquqiy ramkasi" vazifasini o'taydi. Uning asosiy e'tibori jamiyat qanday turmush kechirishi kerakligiga emas, balki davlat hokimiyati mexanizmlari qanday ishlashiga qaratilgan. Bunday konstitutsiyalar davlat institutlarining huquqiy-siyosiy tuzilmasini shakllantiradi hamda demokratik jarayonlarni va inson huquqlarini kafolatlash maqsadida hokimiyatning qonuniy chegaralarini aniq belgilab qo'yadi. Protsessual model qadriyatlar, milliy o'zlik yoki mafkuraviy masalalar bo'yicha jamiyatda yagona va umumiy to'xtamga kelish qiyin bo'lgan sharoitlarda juda qo'l keladi. Bunday holatda mavjud tafovutlarni bartaraf etish uchun demokratik tartib-taomillardan foydalanish bo'yicha pragmatik konsensusga erishiladi. Kanada (1867/1982) va Niderlandiya (1848/1983) konstitutsiyalari protsessual arxetipning yaqqol namunalaridir. Mazkur hujjatlar "ideal jamiyat" haqida yagona mafkuraviy qarashni ilgari surmaydi. Buning o'rniga, ular turli qarashlarga ega bo'lgan ijtimoiy qatlamlarning birgalikda yashashi, umumiy muammolarni siyosiy institutlar orqali hal qilishi hamda o'zaro huquqlarni hurmat qilishi uchun zarur bo'lgan

minimal huquqiy majburiyatlarga tayanadi. Ularda davlat qurilishi yoki falsafiy-mafkuraviy tamoyillar haqida keng qamrovli izohlar deyarli uchramaydi. Faqatgina plyuralistik jamiyatdagi amaliy hamkorlik ehtiyojlaridan kelib chiqib, ayrim xususiy masalalar (masalan, Kanadada til huquqlari, Niderlandiyada ta'lim tizimi) bo'yicha pragmatik normalar kiritilishi mumkin.

Ko'rsatma beruvchi (Preskriptiv) konstitutsiyalar

Ko'rsatma beruvchi konstitutsiya modelida asosiy e'tibor hujjatning "davlat o'ziga xosligining asosiy nizomi" sifatidagi funksiyasiga qaratiladi. Bu turdagi konstitutsiyalar davlat hokimiyati intilishi lozim bo'lgan yakuniy maqsadlar, ijtimoiy prinsiplar va umumiy qadriyatlarni belgilab beruvchi strategik dastur vazifasini o'taydi. Mazkur arxetipda huquqiy va siyosiy normalar muayyan mafkuraviy shaklda bayon etiladi. Agar jamiyat o'zini yangi axloqiy va ijtimoiy asosda qayta tiklashni maqsad qilib olgan bo'lsa, ko'rsatma beruvchi konstitutsiya eng maqbul tanlov hisoblanadi. Bunday konstitutsiyalarga Janubiy Afrika (1996) va Ekvador (2008) asosiy qonunlari yaqqol misol bo'la oladi. Shuni ta'kidlash lozimki, protsessual va ko'rsatma beruvchi (retseptiv) arxetiplar mutloq ajralgan toifalar emas balki, aksariyat zamonaviy konstitutsiyalar har ikkala modelning xususiyatlarini o'zida mujassam etadi. Janubiy Afrika Konstitutsiyaviy sudining sobiq sudyasi Albi Saks konstitutsiyalarni "**millatlarning harakteristikasi**" deb ta'riflagan. Hatto eng ixcham protsessual konstitutsiya ham jamiyatning o'zini qanday ko'rishi va millat timsolida kimlarni tasavvur qilishini aks ettiradi. Ayrim hollarda bu "avtobiografik" funksiya faqat konstitutsiya bilan cheklanib qolmay, balki Mustaqillik deklaratsiyasi kabi boshqa tarixiy-huquqiy hujjatlar orqali ham namoyon bo'lishi mumkin. Masalan: **Konstitutsiya va konstitutsiyaviy tuzum**- Demokratik konstitutsiyaga ega bo'lishning o'zi yetarli emas; muhimi — barqaror **konstitutsiyaviy tuzumni** saqlab qolish kerak. Agar hokimiyat tepasidagilar konstitutsiyani o'z xohishlariga ko'ra jazosiz o'zgartira olsa yoki

qonun ustuvorligi zaif bo'lib, normalar tanlab qo'llanilsa, konstitutsiyaviy matn o'z qiymatini yo'qotadi.

Konstitutsiyaviy tuzum — bu shunchaki qog'ozdagi matn emas, balki:

- Konstitutsiya normalari va tartib-qoidalariga bo'lgan umumiy sadoqat;
- Siyosiy madaniyat, urf-odatlar va an'analar;
- Ma'muriy tuzilmalar va partiya tizimlarining barqaror faoliyati;
- Sud qarorlari va huquqni qo'llash amaliyoti.

Konstitutsiyaviy tuzumni chuqur ijtimoiy-madaniy darajada shakllantirish murakkab jarayon bo'lib, u pirovardida xalqning erkin va fuqarolik turmush tarzida jamlanadi

Demokratik konstitutsiyaviylikni barpo etish-

Demokratik konstitutsiyaviy tuzumni shakllantirish — bu bir lahzalik akt emas, balki uzoq muddatli va bosqichma-bosqich kechadigan evolyutsion jarayondir. Bunda nafaqat Konstitutsiyani qonuniy kuchga kiritish (ratifikatsiya qilish), balki uning **ruhi va falsafasiga** hayotda sodiq qolish o'ta muhim hisoblanadi. Ushbu jarayonning har bir keyingi bosqichi muvaffaqiyati bevosita avvalgi bosqichda erishilgan ijtimoiy va siyosiy kelishuvlarning mustahkamligiga bog'liq bo'ladi.

Konstitutsiya va demokratiya: Yangi metodologik yondashuv

Bugungi kunda mamlakatimiz taraqqiyotining yangi ko'lami va xususiyatlari an'anaviy "Davlat–jamiyat–inson" tushunchalari metodologik jihatdan eskirganligini ko'rsatmoqda.

Dixotomiya — ikkita bir-biriga qarama-qarshi yoki bir-birini istisno qiluvchi tushunchalar, g'oyalar yoki toifalar o'rtasidagi keskin bo'linish yoki kontrastdir. Eski yondashuvda davlat va inson ko'pincha bir-biriga zid qo'yilgan bo'lsa, zamonaviy bosqichda ushbu uch unsur o'rtasidagi uyg'unlik birinchi o'ringa chiqmoqda. Qachonki an'anaviy qadriyatlar zamon talabiga javob bermasa, ular demokratik qadriyatlar bilan almashtiriladi yoki demokratik qadriyatlar an'anaviy qadriyatlarni to'ldirgan holda amaliyotga tatbiq etiladi. "**Inson – jamiyat – davlat**" paradigmasi ya'ni bu termin

Tomas Kunning fikricha **paradigma** ilmiy jamoatchilik birligini ta'minlaydi deya e'tirof etadi.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, har qanday ijtimoiy jarayon inson omiliga tayanmas ekan, u yuzaki bo'lib qolaveradi. Yangi O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida ikki muhim jihat o'zaro bog'liqlikda namoyon bo'lmoqda:

1.Huquqiy-siyosiy muhitning shaxsga ta'siri: Davlat va jamiyat tomonidan yaratilayotgan sharoitlar inson uchun keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

2.Shaxsning muhitga ta'siri: Faol va huquqiy ongi yuksak shaxs o'z harakatlari bilan mamlakatning huquqiy-siyosiy iqlimini o'zgartirmoqda. Yangilanayotgan Konstitutsiyamizda quyidagi fundamental g'oyalar o'z aksini topgan:

“Inson – jamiyat – davlat” ijtimoiy davlat tamoyili;

“Inson o'zgarsa, jamiyat o'zgaradi” degan xalqchil g'oya;

Ushbu uch unsur o'rtasidagi muvozanat va ularning baravar rivojlanishi;

Huquq, erkinlik va majburiyatlarning o'zaro tengligi;

Shaxsiy manfaat va jamoaviylik o'rtasidagi uyg'unlik.

Ushbu tamoyillar O'zbekistonning yangi tahrirdagi Bosh qomusida shunchaki huquqiy norma emas, balki davlat qurilishining strategik yo'nalishi sifatida muhrlab qo'yildi. Konstitutsiya bevosita yo'l qurmasligi, tibbiy xizmat ko'rsatmasligi yoki ta'lim bermasligi mumkin, biroq u ushbu barcha jarayonlarning samarali va adolatli ishlashini ta'minlovchi fundamental huquqiy muhitni yaratadi. Konstitutsiyaviylik insoniyat sivilizatsiyasining eng yuksak yutuqlaridan biri sifatida e'tirof etilishining boisiki, aynan konstitutsiyaviy boshqaruv o'rnatilgan mamlakatlar ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning oldingi saflarida turadi. Aksincha, bunday tizimni saqlab qola olmagan davlatlar ko'pincha o'z rivojlanish salohiyatidan

mahrum bo'ladi. Buning asosiy sababi shundaki, konstitutsiyaviy hukumat hokimiyatning xolis va adolatli amalga oshirilishini kafolatlaydi, jamiyatda tinchlik va tartibni ta'minlaydi, resurslarni to'g'ri taqsimlash va iqtisodiy o'sish uchun zamin yaratadi. Konstitutsiyaviylik mohiyatan qonuniy hokimiyat organlariga umumiy manfaatlarni boshqarish huquqini berish bilan birga, fuqarolarni hukmdorlarning o'zboshimchaligidan himoya qiladi. U siyosiy hokimiyatning manbasi, javobgarligi va undan foydalanish qoidalarini belgilash orqali davlatning doimiy institutlari va amaldagi vaqtinchalik hukumat o'rtasida aniq chegara o'rnatadi. Bu esa hukumat davlatga egalik qilmasligini, balki fuqarolar nomidan va yuqori qonunlar asosida boshqaruvni amalga oshirishini kafolatlaydi. Shu nuqtai nazardan, konstitutsiyaviylik despotizmning mutlaq zididir. Despotik tizimlarda boshqaruv organlarining irodasi qonun o'rnida bo'lib, ular fuqarolar oldida hisobdor bo'lmaydi va xalqning umumiy manfaati uchun emas, balki hukmron sinf yoki imtiyozli ozchilik manfaati yo'lida harakat qiladi. Konstitutsiya esa bunday o'zboshimchalikka chek qo'yib, hokimiyatni xalq xizmatiga yo'naltiradi. Despotik hukumatlarning barchasi ham har doim ochiqdan-ochiq zulmkor bo'lmasligi mumkin. Amalda bunday boshqaruv shakli ma'lum darajada o'zini-o'zi jilovlashi, bevosita tazyiq esa faqat hukmron doira manfaatlariga tahdid soluvchi shaxslar bilan cheklanishi ehtimoldan xoli emas. Biroq despotizmning eng asosiy va xavfli xususiyati — uning **o'zboshimchaligidir**. Bu tizimda qudratli monarx, suveren parlament, harbiy xunta yoki avtoritar prezident bo'lishidan qat'i nazar, hukmdorlar to'g'ri va noto'g'ri o'rtasidagi chegarani xalqning roziligisiz, jamoatchilik nazoratisiz va muvozanatlovchi institutlar ishtirokisiz, faqat o'zlarining bir tomonlama qarorlari orqali belgilaydilar. Zamonaviy demokratik konstitutsiyaviy tamoyillar esa bunday o'zboshimchalikka qarshi ikki fundamental tamoyilga tayanadi:

1.Vakillik boshqaruvi: Fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda bevosita yoki bilvosita ishtirok etishi hamda hukumatning o'z xalqi oldida hisobdorligining ta'minlanishi.

2.Huquqlarni himoya qilish: Fuqarolarni hokimiyatni suiiste'mol qilishdan asraydigan kafolatlar, xususan, qonun ustuvorligi, so'z erkinligi va diniy bag'rikenglikning qaror topishi bilan bog'liq tushunchalar mustaxkamlangan. Ushbu tamoyillar XIX asr va XX asr boshlarida uzoq davom etgan siyosiy kurashlar natijasida dastlab barcha erkaklarga, so'ngra ayollarga ham saylov huquqining berilishi bilan kengayib bordi. XX asrga kelib esa proporsional saylov tizimlari va to'g'ridan-to'g'ri demokratiya mexanizmlari kabi jamoatchilik ishtirokining yangi, inklyuziv shakllari ommalashdi. Bugungi kunda demokratik konstitutsiyaviylik global miqyosdagi umuminsoniy qadriyatga aylandi. XX asrning ikkinchi yarmida ushbu tizim G'arbiy Yevropa va Shimoliy Atlantika hududidan tashqariga chiqib, dunyoning barcha qit'alarida muvaffaqiyatli ildiz otdi.

Savol va topshiriqlar

1. Konstitutsiyaning "Bosh qomus" deb atalishi uning demokratik davlatdagi o'rini qanday ifodalaydi?
2. Nima uchun xalq hokimiyatchiligi prinsipi demokratiyaning asosi hisoblanadi va bu Konstitutsiyada qanday aks etgan?
3. Konstitutsiyada belgilangan inson huquq va erkinliklari demokratik jamiyat qurishda qanday ahamiyatga ega?
- 4."Hokimiyatlarning bo'linishi" prinsipi (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud) demokratiyani mustahkamlashga qanday xizmat qiladi?

5.Konstitutsiyaviy islohotlar va ularning jamiyatni demokratlashtirishdagi roli nimalardan iborat?

FOR AUTHOR USE ONLY

IV BO'LIM

4-MAVZU. FUQAROLAR HUQUQLARINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI VA UNING DAVR TALABIGA MOSLIGI

REJA:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga muvofiq huquqlar.
2. Zamonaviy ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy sharoitlarda fuqarolar huquqlarining roli.
3. Davlat tomonidan fuqarolar huquqlarining ta'minlanishi.

Inson huquqlari sohasida **standart** tushunchasi xalqaro hujjatlarda mustahkamlab qo'yilgan majburiy talablar va normalar majmuini anglatadi. Garchi "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" qabul qilingan paytda yuridik jihatdan majburiy hujjat hisoblanmagan bo'lsa-da, u bugungi kunda inson huquqlari standartlarining eng yorqin va poydevor misoli bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu standartlar milliy huquqiy tizimlarni yaratish va xalqaro huquqiy tartibotni shakllantirish uchun asosiy manba hisoblanadi. Inson huquqlari standartlari qabul qilingan xalqaro tashkilotning ko'lamiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

1.Universal standartlar: BMT doirasida qabul qilingan va butun dunyo uchun amal qiladigan normalar.

2.Mintaqaviy standartlar: Muayyan hududiy tashkilotlar (masalan, Yevropa Kengashi) doirasida qabul qilingan va o'sha mintaqa uchun xos bo'lgan normalar.

Universal va mintaqaviy standartlar o'rtasida ziddiyat mavjud emas, balki ular bir-birini to'ldiradi va huquqiy yaxlitlikni ta'minlaydi. BMT tasarrufida qabul qilingan "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi hamda "Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro paktlar (1966 yil) xalqaro shartnomalar sifatida ishtirokchi davlatlar uchun majburiy yuridik kuchga ega. Bu standartlar nafaqat davlatlar, balki davlat nomidan ish ko'ruvchi barcha mansabdor shaxslar, ayniqsa, jamoat tartibini saqlashga mas'ul huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun ham so'zsiz bajarilishi lozim bo'lgan

qoidalaridir. 1993-yildagi Vena deklaratsiyasi va Harakat dasturida inson huquqlarining umumiy tabiati quyidagicha belgilangan: **“Barcha inson huquqlari umumiy, bo‘linmas, bir-biri bilan bog‘liq va aloqadadir”**. Bunda har bir davlat o‘zining tarixiy, madaniy va diniy o‘ziga xosliklarini inobatga olgan holda, siyosiy va iqtisodiy tizimidan qat’i nazar, inson huquqlari va asosiy erkinliklarini rag‘batlantirish hamda himoya qilish majburiyatini zimmasiga oladi. Mustaqil O‘zbekistonning ustuvor vazifasi ham inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarga so‘zsiz amal qilish hamda demokratik huquqiy davlat barpo etishdir. Hozirgi kunda mamlakatimizda inson huquqlari to‘g‘risidagi qonunchilikning yaxlit tizimi shakllangan bo‘lib, u shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni to‘laqonli kafolatlovchi qonun hujjatlarini o‘z ichiga oladi. Yangilangan Konstitutsiyamiz mazkur xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka singdirishning yuksak huquqiy asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquqlari bo‘yicha milliy qonunchilik tizimining asosi va o‘zagi hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimiz inson huquqlariga doir 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 6 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ bayonnomasiga a‘zo bo‘lib, o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni izchil bajarib kelmoqda. Mazkur majburiyatlar doirasida BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi va shartnomalari bo‘yicha qo‘mitalariga muntazam ravishda milliy ma‘ruzalar taqdim etilmoqda. Xalqaro-huquqiy standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilishda hisobot berish mexanizmi muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston xotin-qizlar huquqlari, irqiy kamsitishga barham berish, bola huquqlari, qiynoqlarga qarshi kurash hamda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqarolik va siyosiy huquqlar bo‘yicha xalqaro konvensiyalar ijrosi yuzasidan o‘z hisobotlarini taqdim etib, xalqaro hamjamiyat bilan faol muloqot olib bormoqda. Bu boradagi sa’y-harakatlarning mantiqiy davomi sifatida 2018-yil noyabr oyida Samarqandda Inson huquqlari bo‘yicha Osiyo forumi tashkil etildi. Forum yakunida qabul

qilingan va BMT Bosh Assambleyasining hujjat sifatida tasdiqlangan Samarqand deklaratsiyasi inson huquqlarini himoya qilishning yangi mexanizmlarini yaratishda muhim qadam bo'ldi. O'zbekiston parlamenti tomonidan tasdiqlangan maxsus "Yo'l xaritasi"da inson huquqlarini himoya qilish har qanday sivilizatsiya va davlat uchun birlamchi vazifa ekanligi yana bir bor o'z isbotini topdi. O'zbekistonda inson huquqlari sohasida amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Inson huquqlari bo'yicha mukammal qonunchilik bazasi shakllantirildi;
2. Huquqlarni ta'minlashning zamonaviy institutsional mexanizmlari yaratildi;
3. Mazkur sohada xalqaro tashkilotlar bilan tizimli hamkorlik yo'lga qo'yildi;
4. Jamiyatda inson huquqlari bo'yicha ta'lim va ma'rifat ishlari keng qamrovda olib borilmoqda.

Xalqaro standartlarni milliy huquq tizimiga tatbiq etish jarayoni bugun barqaror, tizimli va ortga qaytmas xarakter kasb etib, Yangi O'zbekistonning demokratik qiyofasini belgilab bermoqda.

2. Insonning huquqiy maqomi tushunchasi- Konstitutsiyaviy huquq fanida insonning huquqiy maqomi masalasi markaziy o'rinlardan birini egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida shaxsning huquqiy holatiga daxldor yetarli darajada normalar tizimi shakllantirilgan. Shaxs huquqiy maqomining mazmun-mohiyatiga Konstitutsiyaning 13-moddasidagi normalar bevosita asos bo'lib xizmat qiladi. Bu normalar shaxsning huquqiy holatini belgilashdagi fundamental prinsipial qoidadir. Mazkur normaga muvofiq, inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat hisoblanadi. Inson va shaxs tushunchalari o'zaro uzviy bog'liqligini inobatga olsak, ushbu qoida har bir individga teng taalluqlidir. Shaxsning huquqiy maqomi deganda, unga tegishli bo'lgan huquqlar, erkinliklar va majburiyatlarning qonuniy yig'indisi tushuniladi. Har bir jamiyatda shaxs va davlat o'rtasida o'rnatilgan o'zaro munosabatlar shaxsning huquqiy maqomiga ta'sir ko'rsatsa, o'z navbatida, shaxsning maqomi ham davlat bilan bo'ladigan munosabatlar tabiatini

belgilaydi. Shaxsning huquqiy holatini belgilashda uning konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari hamda burchlarining hajmi va darajasi muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, shaxsning huquqiy statusini aniqlashda fuqarolik masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda shaxs huquqiy holatining asosiy ahvoli Konstitutsiyaning V bobidagi (Umumiy qoidalar) normalarda o'z aksini topgan. Xususan, Bosh qomusimizning 18-moddasida "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar", deb mustahkamlab qo'yilgan. Bu norma shaxsning (avvalo, fuqaroning) jamiyatdagi mavqei va tengligini ta'minlovchi fundamental huquqiy asosdir. Yuqorida ta'kidlanganidek, shaxsning huquqiy holati huquqlar, erkinliklar va burchlardan iborat. Huquq va burchlarning o'zaro kki tomonlama bog'liqligini Konstitutsiyaning 19-moddasida ham ko'rish mumkin. Unda qayd etilishicha, fuqarolar va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va majburiyatlari bilan o'zaro bog'liqdirlar. Ya'ni, fuqaro muayyan huquqqa ega bo'lsa, uni amalda ta'minlash majburiyati bevosita davlat zimmasiga yuklanadi. Aksincha, fuqarolarning muayyan konstitutsiyaviy burchlarga ega bo'lishi davlatga ushbu burchlarning bajarilishini talab qilish huquqini beradi. Shunday ekan, ushbu modda fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan huquqlari daxlsiz ekanligini, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emasligini qat'iy belgilaydi. Demak, fuqarolarning konstitutsiyaviy va qonuniy huquqlari daxlsizligi oliy darajada kafolatlangan bo'lib, ularni cheklashga faqat qonuniy asoslarda va sud qarori orqali yo'l qo'yiladi. Har qanday cheklov qonuniy, asosli va sud qarorida batafsil dalillangan bo'lishi shart. Konstitutsiyaning 20-moddasida ham "O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan o'zaro huquq va majburiyatlar bilan bog'liqdir", degan qoida mustahkamlanib, bu shaxs va davlat o'rtasidagi huquqiy aloqalarning o'zgarmas poydevori bo'lib xizmat qiladi. Boshqalarning qonuniy manfaatlariga, shuningdek, jamiyat va davlat

xavfsizligiga zarar yetkazilgan taqdirda, aybdor shaxsning huquqlari sud qaroriga asosan cheklanishi mumkin. Inson huquqlarini cheklash imkoniyati xalqaro huquqiy hujjatlarda ham ko‘zda tutilgan bo‘lib, O‘zbekiston Konstitutsiyasidagi mazkur qoida xalqaro standartlarga to‘la muvofiq keladi. Shaxsning huquqiy maqomi bir qator asosiy elementlardan tashkil topadi: Asosiy huquqlar va burchlar, Huquqiy javobgarlik, qonuniy manfaatlar, fuqarolik maqomi, huquq sub’ekti bo‘lish qobiliyati, huquqiy tamoyillar. Huquqiy maqom o‘z navbatida uch turga bo‘linadi: **umumiy**, **maxsus** va **individual**. Ushbu tasnif falsafiy kategoriyalar hisoblangan “umumiylik”, “xususiyat” va “yagonalik” nisbatlarini o‘zida aks ettiradi.

Umumiy maqom — shaxsning Konstitutsiyada belgilangan davlat fuqarosi sifatidagi universal holati.

Maxsus maqom — muayyan toifadagi sub’ektlar (harbiylar, advokatlar, talabalar, tadbirkorlar) faoliyatining o‘ziga xosligini belgilaydi.

Individual maqom — shaxsning individual xususiyatlarini (yoshi, jinsi, oilaviy ahvoli, lavozimi, ish staji) va unga xos bo‘lgan huquq va majburiyatlar to‘plamini ifodalaydi.

Shaxs huquqiy maqomining asosiy prinsiplari sifatida huquq va erkinliklarning daxlsizligi, qonun oldida tenglik, huquqlarning kafolatlanishi, huquqlarni asossiz cheklash va suiiste‘mol qilishning taqiqlanishi hamda xalqaro huquq normalarining tan olinishini ko‘rsatish mumkin. Ayrim huquqiy normalarda uchraydigan atamalarning huquqiy mohiyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak:

-“**Inson**” — biologik mavjudot, tirik olam vakili sifatidagi fiziologik xususiyatlarga ega shaxs.

-“**Shaxs**” — jamiyatdagi o‘rni, roli va mas’uliyatini anglaydigan ijtimoiy mavjudot (masalan, inson ruhiy holati tufayli muomalaga layoqatsiz deb topilsa, uning shaxs sifatidagi huquqiy harakatlari cheklanadi).

-**“Fuqaro”** — muayyan davlat bilan barqaror huquqiy munosabatda bo‘lgan, rasmiy hujjatga ega jismoniy shaxs. U davlat bilan doimiy aloqada bo‘lib, mamlakatning siyosiy hayoti va boshqaruvida ishtirok etish huquqiga egaligi bilan chet el fuqarolari va fuqaroligi yo‘q shaxslardan ajralib turadi. Shu bilan birga, yashash huquqi va shaxsiy erkinlik kabi fundamental huquqlar nafaqat fuqarolarga, balki barcha “inson”larga tegishli deb hisoblanadi. “Fuqaro” tushunchasi “xalq” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Konstitutsiyamizning 8-moddasiga binoan, millatidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari O‘zbekiston xalqini tashkil etadi. Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan va mehnat qilayotgan har bir shaxs, milliy va irqiy mansubligidan qat’i nazar, teng huquqli fuqarodir.

Inson huquqlari — bu tabiiy ravishda shakllanadigan, har bir insonga u tug‘ilgan lahzadan boshlab shaxs sifatida tegishli bo‘lgan daxlsiz va ajralmas huquqlar majmuidir. Barcha insonlar erkin hamda teng huquqli bo‘lib dunyoga keladilar. Inson huquqlari inson tabiatining ajralmas qismi bo‘lib, shaxsning jamiyatda xavfsiz, erkin va munosib yashashi uchun zarur bo‘lgan eng fundamental imtiyozlar hamda sharoitlardan foydalanish imkoniyatini ifodalovchi universal tushunchadir. Zamonaviy dunyoda bu tushuncha shaxs erkinligi sohasidagi millatusti va umuminsoniy talablar hamda standartlarni aks ettiruvchi ijtimoiy kategoriya sifatida talqin etiladi. Inson huquqlari quyidagi fundamental xususiyatlar bilan xarakterlanadi:

-ular jamiyatning doimiy o‘zgarib turuvchi sharoitlarini inobatga olgan holda, insonning tabiiy va ijtimoiy mohiyati asosida vujudga keladi hamda rivojlanadi;

-ushbu huquqlar ob‘ektiv ravishda shakllanadi va ularning mavjudligi davlat tomonidan rasmiy tan olinishiga bog‘liq emas;

-har bir shaxsga u tug‘ilgan kundan boshlab tegishli hisoblanadi;

-ajralmaslik va uzviylik xarakteriga ega bo‘lib, xuddi havo, yer va suv kabi insoniyat uchun tabiiy ne‘mat sifatida e’tirof etiladi;

- davlatda bevosita va to'g'ridan-to'g'ri amal qilish kuchiga ega;
- jamiyatdagi eng yuksak ijtimoiy qadriyat sifatida tan olinadi;
- huquq tizimining asosiy mazmunini ifodalovchi zaruriy shakl sifatida namoyon bo'ladi;
- shaxs va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tamoyillarini belgilab, insonga o'z xohishiga ko'ra harakat qilish yoki muayyan imtiyozlarni olish imkoniyatini beradi;
- inson huquqlarini tan olish, ularga rioya qilish va ularni himoya qilish davlatning ustuvor majburiyati hisoblanadi;
- yashash va munosib hayot kechirish kabi fundamental huquqlarni amalga oshirish uchun shunchaki insonning tug'ilish fakti kifoya qiladi, boshqa bir qator huquqlardan foydalanish uchun esa shaxsdan muayyan fuqarolik yoki huquqiy maqom talab etiladi.

Fuqarolarning huquqlari — bu shunchaki har qanday shaxsning emas, balki muayyan davlat bilan mustahkam huquqiy bog'liqlikka ega bo'lgan individning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, qonun bilan muhofaza etiladigan imkoniyatlar majmuidir. Konstitutsiyaviy huquq doirasidagi “fuqarolarning huquq va majburiyatlari” tushunchasi bevosita 1948-yilgi “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” hamda 1966-yilgi fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarga doir xalqaro paktlar tamoyillariga asoslanadi. Ushbu xalqaro andozalarga ko'ra, fuqarolik huquqlari tizimi quyidagi asosiy elementlarni qamrab oladi:

- yashash huquqi va har qanday ko'rinishdagi qiynoqlarning taqiqlanishi;
- adolatli sudlovga bo'lgan huquq va shaxsiy hayot daxlsizligi;
- fikrlash va so'z erkinligi hamda aybsizlik prezumpsiyasi tamoyili;
- o'z huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan qarorlar va hujjatlar bilan erkin tanishish imkoniyati;
- vijdon erkinligi — xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqi;

-oilaning davlat va jamiyat tomonidan muhofaza etilishi, nikoh yoshiga yetganda oila qurish hamda bolalar huquqlarining maxsus himoyasi;
-xalqaro hujjatlarda alohida qayd etilgan xususiy mulkka egalik qilish huquqi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligiga muvofiq, fuqarolarning huquq va majburiyatlari tizimiga sub’ektlarning mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy huquqlari kiritiladi. “Fuqaroviy huquq” atamasi o‘z mohiyatiga ko‘ra shaxsiy xarakterga ega bo‘lib, bevosita har bir fuqaroning qadr-qimmatiga daxldordir. Xususan, Fuqarolik kodeksining 100-moddasiga binoan, har bir shaxs o‘zining sha’ni, qadr-qimmatini yoki ishchanlik obro‘sigacha putur yetkazuvchi ma’lumotlarga nisbatan huquqiy himoya talab qilishga haqlidir. O‘zbekistonda shaxsning ma’naviy qadriyatlarini himoya qilish tizimi xalqaro mezonlar bilan to‘la uyg‘unlashgan. Masalan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasi hamda 1966-yilgi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi paktning 17-moddasida hech kimning sha’ni va obro‘sigacha qonunga zid ravishda tajovuz qilinishiga yo‘l qo‘yilmasligi qat’iy belgilangan.

Shunday qilib, xalqaro huquqiy normalar fuqarolik huquq va erkinliklarini insonning shaxsiy hayotiy ehtiyojlaridan kelib chiqib ta’riflaydi hamda shaxs erkinligi va daxlsizligini jamiyatning eng oliy qadriyati sifatida e’tirof etadi.

3. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning konstitutsiyaviy-huquqiy holati

O‘zbekiston Respublikasi hududida istiqomat qiluvchi barcha toifadagi shaxslarning huquqiy maqomi Konstitutsiya va amaldagi qonun hujjatlari bilan qat’iy tartibga solingan. Konstitutsiyaning 21-moddasiga binoan, har bir shaxs o‘z qobiliyati va shaxsiyatini erkin kamol toptirish huquqiga ega. Shu bilan birga, fuqarolarga ularning roziligisiz qonunchilikda ko‘zda tutilmagan majburiyatlarni yuklash taqiqlanadi. Erkinliklar mutloq emas — inson o‘z

huquqlaridan foydalanishda jamiyat, davlat va boshqa shaxslarning qonuniy manfaatlariga zarar yetkazmasligi lozim. Inson huquq va erkinliklarini cheklashga faqat qonuniy asoslarda hamda muayyan maqsadlarda yo'l qo'yiladi:

- Konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish;
- Aholining salomatligi va ijtimoiy axloqni asrash;
- Jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash;
- Boshqa shaxslarning huquqlarini muhofaza qilish.

Fuqaroligi bo'lmagan shaxslar (apatridlar) — bu muayyan davlatda yashab turgan, biroq biron-bir mamlakat fuqaroligiga mansubligini tasdiqlovchi huquqiy hujjatga ega bo'lmagan shaxslardir. Fuqarolikning yo'qolishi odatda quyidagi holatlarda kuzatiladi:

- Shaxs bir davlat fuqaroligidan chiqib, hali boshqasini olib ulgurmagan o'tish davrida;
- Fuqarolikdan mahrum qilingan holatlarda;
- Shaxs mansub bo'lgan davlat o'z faoliyatini to'xtatib, huquqiy vorislik masalasi hal bo'lmaganda;
- Shaxsiy hujjatlar yo'qolib, ularni tiklash imkoni bo'lmagan vaziyatlarda. Xalqaro hamjamiyat, xususan, 1961-yildagi konvensiyaga muvofiq, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar sonini kamaytirishdan manfaatdor. Shu bois davlatlar o'z hududida tug'ilganlarga fuqarolik berishda ko'pincha individ manfaatlarini ustuvor deb biladi.

Chet el fuqarolari — O'zbekiston hududida bo'lib turgan, biroq boshqa davlat fuqaroligini tasdiqlovchi hujjatga ega shaxslardir. Bunda boshqaruv shakliga qarab "xorijiy fuqaro" (respublikalar uchun) yoki "xorijiy fuqaro/mansub" (monarxiyalar uchun) atamaları qo'llaniladi. Xorijiy fuqarolar mamlakatimizga turizm, o'qish, davolanish, ish faoliyati yoki doimiy yashash maqsadida kelishlari va qonuniy tartibda chiqib ketishlari mumkin. Konstitutsiyaning 23-moddasi davlatning o'z fuqarolari oldidagi mas'uliyatini

kafolatlaydi. O'zbekiston o'z fuqarolarini mamlakat ichida ham, uning tashqarisida ham himoya qilish va homiylik ko'rsatishni o'z zimmasiga oladi. Eng muhimi, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi mamlakatdan majburiy chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berib yuborilishi (ekstraditsiya) mumkin emas. Shuningdek, davlat xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni rivojlantirish va ularga g'amxo'rlik qilishni xalqaro huquq normalari asosida amalga oshiradi. Asosiy va qo'shimcha huquqlar: Asosiy huquq - davlat bosh qomusida muhrlab qo'yilgan fuqaroning muayyan xulq-atvori, ya'ni shaxsning konstitutsiyaviy vakolatidir. Asosiy huquqning boshqa huquqiy normalardan farqi shundaki, u eng fundamental huquqlar toifasiga kiradi, oliy qonunda mustahkamlanadi va fuqarolarning barcha boshqa huquqlarini oldindan belgilab beradi. Shundan kelib chiqib, qolgan barcha huquqlarni qo'shimcha huquqlar qatoriga kiritish mumkin. Huquqlar davlat tomonidan qabul qilingan turli hujjatlarda o'z ifodasini topadi. Asosiy huquq va erkinliklar - konstitutsiya atamashunoslikni keng qo'llaniladigan hamda davlatning asosiy qonunida belgilab qo'yilgan inson va fuqaro huquqlari hamda erkinliklarini anglatadi. Ushbu huquq va erkinliklar muayyan davlat va jamiyatda shaxsning maqomi uchun eng muhim tayanch huquq va erkinliklar bo'lib, fuqarolarning qolgan huquqiy imkoniyatlari mazmunini belgilab beradi. "Asosiy huquq va erkinliklar" tushunchasidan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham samarali foydalanilgan. Xususan, inson, uning huquqlari va erkinliklari oliy qadriyat hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida qayd etilganidek: "Fuqarolarning konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoinki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas". O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan Asosiy huquqlarni konstitutsiyaviy huquq fanida guruhlariga ajratish, ya'ni tasniflash qabul qilingan. Shaxs haqidagi qarashlar, uning jamiyat va davlatdagi o'rni hamda vazifasi ushbu

tasniflarga asos qilib olinadi. Shunga binoan, insonning asosiy huquq va erkinliklarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Shaxsiy huquq va erkinliklar (shaxsiy hayot va individual erkinlik sohasida) - Yashash huquqi (konstitutsiyaning 24-moddasi), erkinlik va shaxsiy daxlsizlik, hech kim ozodlikdan asossiz mahrum etilishi mumkin emas (25-modda), jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda ochiq ko'rib chiqilib, aybi aniqlanmaguncha aybdor hisoblanmaydi (28-modda), har bir insonga o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalaniish va turar joyi daxlsizligi huquqi berilgan, erkin ko'chish huquqi (28-modda), har bir insonga fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi, xohlagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish erkinligi kafolatlanadi, shaxs huquqlari, erkinliklari va hayotiy faoliyatlarini himoya qilishda davlat organlari tomonidan qabul qilingan huquqiy normalar bilan ularni tanishtirish majburiyati mavjud, hamma uchun vijdon erkinligi mustahkamlangan (35-modda).

2. Siyosiy huquq va erkinliklar - fuqarolar jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar (36-modda), fuqarolar o'z ijtimoiy faolliklarini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq ravishda mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar (38-modda), fuqarolar kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga a'zo bo'lish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar (39-modda), har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat idoralariga, muassasalariga yoinki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega (40-modda).

3. Ijtimoiy-iqtisodiy huquq va erkinliklar - Har bir shaxs mulkdor bo'lish huquqiga ega (41-modda), har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida faoliyat yuritish va qonunda ko'rsatilgan tartibda

ishsizlikdan himoyalaniş huquqiga ega (42-modda), yollanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar (45-modda), har kim qariganda, mehnatga layoqatini yo‘qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo‘lganida va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta‘minot olish huquqiga ega (46-modda), har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega (48-modda), har kim bilim olish huquqiga ega (50-modda), har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan bahramand bo‘lish huquqi kafolatlanadi (53-modda), davlat fuqarolarining konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari hamda erkinliklarini ta‘minlaydi (54-modda), har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi (55-modda), voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar yoinki yolg‘iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir (57-modda), xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar (58-modda).

5. Ijtimoiy va huquqiy tenglik. Huquqiy tenglik va imtiyozlar

Ijtimoiy tenglik — insonning ijtimoiy kelib chiqishi va holatidan qat‘i nazar, boshqa shaxslar bilan teng huquqlarga ega bo‘lishidir. Konstitutsiya hamda qonunlar jamiyatdagi ushbu tenglikni huquqiy jihatdan kafolatlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasiga binoan, mamlakatimizda inson huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan qoidalariga hamda mazkur Konstitutsiyaga muvofiq tan olinadi va ta‘minlanadi. Har bir insonga huquq va erkinliklar u dunyoga kelgan lahzadan boshlab tegishli bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari bir xil huquqiy maqomga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va mavqeidan qat‘i nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar esa faqat qonuniy asosda belgilanishi va albatta ijtimoiy adolat mezonlariga javob berishi shart. Ushbu konstitutsiyaviy norma shaxsning (avvalo

fuqaroning) jamiyatdagi o‘rnini va tengligini ta’minlovchi fundamental qoidadir. Bu yerda shaxs tengligi aynan qonun oldidagi tenglik prizmasida aks etadi. Har bir insonning qonun oldida teng bo‘lishi adolat tamoyilining o‘zagi hisoblanadi. Konstitutsiyada sanab o‘tilgan hech qanday holat shaxsning qonun oldidagi tengligiga salbiy ta’sir ko‘rsata olmaydi. Qonun oldidagi tenglik shaxsning nafaqat huquq va erkinliklardan foydalanishda, balki burchlarni ado etishda ham barchaga barobar ekanligini anglatadi. Konstitutsiyaviy normalardan kelib chiqib, teng huquqlilikning quyidagi jihatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- insonning inson bilan tengligi;
- erkaklar va ayollar tengligi (jinslar teng huquqliligi);
- milliy va irqiy teng huquqlilik.

Shuningdek, ushbu tamoyil shaxsning qaysi davlatga mansubligidan qat’i nazar (O‘zbekiston fuqarolari, xorijliklar yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar), ularning ko‘pgina fundamental huquqlarini kafolatlaydi. Bu holat “barcha qonun va sud oldida tengdir” degan umumiy qoidada hamda “har kim huquqqa ega” kabi individual normalarda o‘z ifodasini topgan. Teng huquqlilikni faktik (amaldagi) tenglik bilan aralashtirib yubormaslik lozim. Insonlarning kundalik hayotdagi faktik holati ularning moddiy imkoniyatlari, mashg‘ulot turi, dunyoqarashi va psixologiyasiga ko‘ra turlicha bo‘lishi tabiiydir. Ko‘plab konstitutsiyaviy normalar insonlar orasidagi ehtimoliy faktik farqlarni inobatga olgan holda shakllantirilgan. Masalan, xususiy mulkka egalik qilish yoki tadbirkorlik erkinligining kafolatlanishi jamiyatda turlicha bo‘ylik miqdori va ijtimoiy tabaqalanish vujudga kelishiga yo‘l qo‘yadi. Biroq, Konstitutsiyaning asosiy vazifasi — har bir shaxsga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar yaratib berishdir. Individ bu imkoniyatlardan qanday foydalanishni o‘zi belgilaydi, ammo erishilgan farovonlik boshqalarning zarariga xizmat qilmasligi shart. Shu sababli, Konstitutsiya fuqarolarning huquqlarini ijtimoiy mansubligi yoki

boshqa belgilariga ko'ra kamsitishni qat'iy man etadi. Teng huquqlilik shaxsning huquq, erkinlik va majburiyatlarga bir xil hajmda ega bo'lishida, cheklovlar joriy etilganda esa ular hamma uchun birdek taalluqli bo'lishida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, qonunchilikning ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalar — bolalar, nogironligi bor shaxslar va faxriylarga alohida e'tibor qaratishi tenglik tamoyilini buzmaydi, aksincha, O'zbekiston davlatining ijtimoiy-insonparvarlik mohiyatini ko'rsatadi. Davlatning insonparvarlik tabiatidan kelib chiqib, adolat tamoyillariga muvofiq ayrim shaxslarga imtiyozlar berilishi ko'zda tutilgan. Bunday imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanishi va ijtimoiy yordamga muhtoj, jismoniy jihatdan zaif qatlamlarning manfaatlarini himoya qilishi shart. Konstitutsiyaviy asoslarga ko'ra, O'zbekistonda xotin-qizlar, voyaga yetmaganlar, nogironlar va yolg'iz keksalar uchun asosan iqtisodiy va ijtimoiy xarakterdagi qonuniy imtiyozlar tizimi yo'lga qo'yilgan.

6. Gender tengligi tushunchasi va O'zbekistonda gender tengligini ta'minlash muammolari

Inson huquqlari tizimida ayollar huquqlari alohida va muhim o'rin egallaydi. Shunga qaramay, ayrim mamlakatlarda xotin-qizlarning huquqlari umume'tirof etilgan kafolatlar mavjudligiga qaramasdan, amaliyotda to'liq ro'yobga chiqmay qolmoqda. Gender tengligi — bu jamiyat hayotining barcha jabhalarida, jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura, madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy jihatini ifodalovchi tushunchadir.

Gender tengligi deganda, ayollar va erkaklar, shuningdek, qizlar va o'g'il bolalar uchun teng huquqlar, mas'uliyatlar, imkoniyatlar hamda bir xil qadriyat va natijalar tushuniladi. Ta'kidlash joizki, gender tengligi faqat ayollar masalasi emas, u erkaklarning ham huquq va majburiyatlarini o'z ichiga oladi. Chunki jamiyat har ikki jins vakillaridan o'rnatilgan gender normalari va standartlariga muvofiq harakat qilishni kutadi. Tenglik ayollar va erkaklarning aynan bir xil bo'lib qolishini anglatmaydi, balki ularning huquq

va mas'uliyatlari jinsiga bog'liq bo'lmasligini kafolatlaydi. Gender tengligi har ikki jins vakillarining manfaatlari, ehtiyojlari va ustuvorliklari birdek inobatga olinishini anglatadi.

Hozirgi kunda xotin-qizlar huquqlari ko'plab davlatlarda jinsidan qat'i nazar, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalarida o'z huquqlaridan teng foydalanish uchun sharoit yaratilgan, huquqiy jihatdan muvozanatlashgan kategoriya sifatida e'tirof etiladi. Xotin-qizlar huquqlarining universal xarakterga egaligi quyidagi yirik xalqaro hujjatlar bilan mustahkamlab qo'yilgan:

-Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi; (1948 y 10 dekabr)

-Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt; (1966 y 16-dekabr)

-Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt; (1966-yil 16-dekabr)

-“Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida”gi konvensiya; (1979-yil 18-dekabr.)

“Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risida”gi konvensiya;(1952-yil 20-dekabr)

“Ayollarga qarshi zo'rovonlikka barham berish to'g'risida”gi deklaratsiya; (1993-yil 20-dekabr)

“Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risida”gi Yevropa konvensiyasi. (1950-yil 4-noyabr Italiya shahrida imzolangan).

Birlashgan millatlar tashkilotining Nizomida insonning asosiy huquqlari, shaxsning sha'ni va qadr-qimmati, shuningdek, erkak va ayollarning teng huquqliligi qat'iy belgilangan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi kamsitilmaslik prinsipini tasdiqlab, barcha insonlar erkin, qadri va huquqlari bo'yicha teng bo'lib tug'ilishini hamda har bir shaxs jinsiy farqlarsiz barcha e'lon qilingan erkinliklarga ega ekanligini qayd etadi.

O'zbekistonda xotin-qizlar va erkaklar ijtimoiy hayotning barcha sohalarida to'laqonli huquqlarga ega. Ularning ushbu huquqlari mamlakat

Konstitutsiyasi, amaldagi qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustahkam kafolatlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasida xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi qat’iy belgilab qo‘yilgan bo‘lib, bu mamlakatimizda gender tengligini ta’minlashning fundamental huquqiy asosi hisoblanadi. Shu bilan birga, yurtimizda ayollar huquqlarini kafolatlash va ularning himoya tizimini yanada kuchaytirish maqsadida 2019-yilning sentabr oyida “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi hamda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun hujjatlari hayotga tatbiq etildi. Qabul qilinayotgan turli hildagi huquqiy hujjatlarning jinslararo muvozanatni saqlashini ta’minlash maqsadida qonunchilikning gender-huquqiy ekspertizasini o‘tkazish majburiy etib belgilandi. Mazkur ekspertiza normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini erkaklar va xotin-qizlar uchun teng imkoniyatlar yaratish prinsiplariga mosligini tahlil qilish bosqichidir. Ushbu sohadagi davlat siyosatining tayanch tamoyillari sifatida qonuniylik, demokratizm, jinlar tengligi, kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik hamda shaffoflik belgilangan. Davlat erkak va xotin-qizlarga teng huquqiy maqom va imkoniyatlarni kafolatlaydi, biroq muayyan holatlar jins bo‘yicha kamsitish deb baholanmaydi: bularga bola tug‘ish va uni parvarishlash bilan bog‘liq fiziologik jarayonlarni tartibga solish, qonuniy asosdagi muddatli harbiy xizmatga jalb etish, gender tenglik mutanosibligini tiklashga qaratilgan vaqtinchalik maxsus choralar, mehnat jarayonida reproduktiv salomatlikni asrash bilan bog‘liq xususiyatlar kiradi. Shuningdek, faqat muayyan jins vakillari bajara oladigan vazifalar bo‘yicha kasbiy tavsiyalar berish, jazoni ijro etish muassasalarida saqlash sharoitlaridagi farqlar hamda xotin-qizlarning ijtimoiy mavqeini ko‘tarishga yo‘naltirilgan ijobiy choralar diskriminatsiya hisoblanmaydi.

O‘zbekistonda gender tengligini ta’minlash borasidagi muammolarni bartaraf etish va bu yo‘nalishda davlat siyosatini amalga oshirishning asosiy

ustuvorliklari quyidagilardan iborat: mazkur sohadagi normativ-huquqiy asoslarni yaratish va ularni izchil takomillashtirish; gender tengligiga oid davlat dasturlarini, milliy harakatlar rejalarini hamda strategik hujjatlarni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish; jamiyatda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar madaniyatini qaror toptirish; davlat va jamiyat boshqaruvida har ikki jins vakillarining teng darajada ishtirok etishiga erishish; mehnat faoliyati va oilaviy vazifalarni birga olib borishda ayollar va erkaklar uchun teng sharoitlar yaratish; oila hamda bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish, mas'uliyatli onalik va otalik institutini shakllantirish; jamiyatni jinsga qarab bevosita yoki bilvosita kamsituvchi axborotlar ta'siridan himoyalash; gender siyosatiga doir strategiya va rejalarini amalga oshirish jarayoniga mahalla organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa tuzilmalarini keng jalb etish; teng huquqlilikni ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti va qonun bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirish; xotin-qizlar va erkaklar uchun teng imkoniyatlarga erishish yo'lida milliy, mintaqaviy hamda xalqaro miqyosda samarali hamkorlik aloqalarini mustahkamlash.

Inson manfaati va ommaviy manfaatlar muvozanati

O'zbekiston uchun ustuvor vazifalardan biri — barcha fuqarolarning qonun oldida tengligini, qonun ustuvorligini, jamiyat manfaatlari muhofazasi hamda aholi xavfsizligini kafolatlovchi huquqiy davlat poydevorini mustahkamlashdir. Qonuniylik va huquqiy tartibot qaror topmagan, shaxs huquqlari va erkinliklari e'zozlanmagan, qat'iy intizom hamda milliy an'analar hurmat qilinmagan sharoitda huquqiy davlatni barpo etib bo'lmaydi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20-moddasida inson bilan davlat idoralari o'rtasidagi munosabatlarda yuzaga keladigan qonunchilikdagi har qanday ziddiyat va noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishi belgilangan. 54-modda esa har bir shaxsга ilmiy, texnikaviy hamda badiiy ijod erkinligini, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqini

kafolatlaydi. Intellektual mulkning qonuniy himoyasi hamda davlatning jamiyat madaniy-ma'rifiy rivoji haqidagi g'amxo'rliqi fuqarolar huquqlarini va ommaviy manfaatlarni ta'minlashda davlatning o'z majburiyatlarini to'laqonli amalga oshirishiga zamin yaratadi.

Savol va topshiriqlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolar huquqlarining kafolatlanishi haqida qisqacha insho yozing.
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga muvofiq fuqarolar huquqlarining ta'minlanishi haqida ma'lumot to'plang.
3. Zamonaviy ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy sharoitlarda fuqarolar huquqlarining roli va ahamiyatini tahlil qiling.
4. Fuqarolar huquqlarining himoya qilinishi va rivojlanishini ko'rsatuvchi diagramma yoki infografika tayyorlang.

FOR AUTHOR USE ONLY

5-MAVZU. FUQAROLARNING SHAXSIY HUQUQ ERKINLIK LARI VA BURCHLARINING KAFOLATLANGANLIGI

REJA:

1. **Inson — jamiyat — davlat**” tamoyillarining shakllanishi
2. Shaxsiy huquqlarning davlat va jamiyatdagi o‘rni
3. Shaxsiy huquq va erkinliklarning kafolatlanganligi tushunchasi
4. Shaxsiy huquq va erkinliklarni kafolatlovchi asosiy hujjatlar

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning eng asosiy g‘oyasi — “Inson — jamiyat- davlat” tamoyili asosiga qurilgan bo‘lib, u mamlakat hayotining barcha jabhalarida inson omilini eng yuqori pog‘onaga ko‘taradi. Mazkur yangilangan Bosh qomusimizda inson huquq va erkinliklariga taalluqli normalar miqdori uch baravardan ziyodroqqa oshirilgani davlatimizning insonparvarlik yo‘nalishini yaqqol namoyon etadi. Endilikda davlatning asosiy majburiyati shunchaki qonunlar qabul qilish bilan cheklanib qolmasdan, balki har bir insonning qadr-qimmatini asrab-avaylash, uning shaxsiy daxlsizligini va huquqiy himoyasini amaliy jihatdan, real mexanizmlar orqali kafolatlashdan iboratdir.

1-BO‘LIM. Shaxsiy huquq va erkinliklarning kafolatlanganligi: Yangi Konstitutsiyaning muhim o‘ziga xosligi shundaki, insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiluvchi kuchga ega deb belgilandi. Bu tamoyil amaliyotda sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar va barcha darajadagi davlat organlari muayyan qarorlar qabul qilishda boshqa quyi qonun osti hujjatlarini kutib o‘tirmasdan, bevosita Konstitutsiya moddalariga tayanib ish ko‘rishini majburiy qilib qo‘yadi.

"Xabeas korpus" va "Miranda qoidasi"ning konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi: Inson erkinligini himoya qilishning eng ilg‘or demokratik institutlari yangi tahrirdagi Bosh qomusimizda o‘zining qat‘iy ifodasini topdi:

- **Miranda qoidasi (27-modda):** Mazkur qoidaga ko'ra, shaxsni ushlab turish jarayonida unga nima uchun ushlab turilgani va uning huquqlari (shu jumladan, advokat yordamidan foydalanish huquqi) darhol tushuntirilishi shart. Shuningdek, har bir ayblanuvchi sukut saqlash huquqiga ega ekanligi, ya'ni o'ziga qarshi ko'rsatma bermaslik imkoniyati konstitutsiyaviy kafolatlandi. Bu tergov jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli bosimlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Xabeas korpus instituti: Shaxsning erkinligi faqat sud nazorati ostida cheklanishi mumkinligi yana bir bor qat'iyalashtirildi. Shaxs sud qarorisiz 48 soatdan ortiq ushlab turilishi mumkin emas. Ushlab turishning qonuniyligi va asosliliigi faqat sud majlisida aniqlanadi, bu esa tergov organlarining o'zboshimchaligiga yo'l qo'ymaydigan eng samarali to'siqdir.

Yashash huquqi va shaxsiy daxlsizlik kafolatlari

O'zbekiston o'zining insonparvarlik tamoyillariga sodiqligini namoyish etib, o'lim jazosi taqiqlanganligini konstitutsiyaviy darajada muhlradi (25-modda). Bu insonning yashash huquqi mutlaq va daxlsiz ekanligini anglatadi. Shuningdek, inson qadr-qimmatini kamsituvchi har qanday harakatlarga nisbatan keskin taqiq qo'yildi:

-Hech bir shaxs qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka duchor qilinishi mumkin emas.

-Insonning ruhiy yoki jismoniy holatidan qat'i nazar, unga nisbatan shafqatsizlik yoki insoniy qadri yerga uruvchi muomalada bo'lish qonunan taqiqlanadi.

-Har bir shaxs o'zining xususiy hayoti, shaxsiy va oilaviy siri daxlsizligi huquqiga ega bo'lib, bu ma'lumotlarning noqonuniy yig'ilishi yoki tarqatilishidan himoyalanaadi.

Turar joy daxlsizligi va shaxsiy ma'lumotlar muhofazasi

Yangi Konstitutsiya har bir fuqaroning shaxsiy hududini daxlsiz deb e'lon qiladi. Hech kim uy-joyga unda istiqomat qiluvchi shaxslarning ruxsatisiz va xohishiga qarshi kirishga haqli emas. Turar joyga kirish, tintuv o'tkazish yoki

u yerdagi ashyolarni ko'zdan kechirishga faqat qonunda qat'iy belgilangan hollarda hamda albatta sudning tegishli qarori asosidagina ruxsat beriladi. Bundan tashqari, axborot texnologiyalari rivojlangan hozirgi davrda har bir inson o'z shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, noto'g'ri ma'lumotlarni tuzatishni talab qilish hamda o'zi haqida qonunga xilof ravishda to'plangan ma'lumotlarni yo'q qilishni so'rash huquqiga egadir. Davlat har bir shaxsning raqamli va jismoniy dunyodagi shaxsiy daxlsizligini ta'minlashni o'z zimmasiga oladi.

2-BO'LIM. "Inson qadri uchun" tamoyili va suddan himoyalani

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 55-moddasiga muvofiq, har bir shaxsga o'z huquq hamda erkinliklarini sud orqali himoya qilish, shuningdek, davlat idoralarning qonunga zid bo'lgan qarorlari, xatti-harakatlari yoki harakatsizligi ustidan sudga murojaat qilish huquqi qat'iy kafolatlanadi.

Aybsizlik prezumpsiyasi (28-modda) Ushbu tamoyilga ko'ra, shaxsning jinoyat sodir etishdagi aybdorligi qonuniy tartibda isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha, u aybsiz hisoblanadi. Eng muhimi, aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi shart. Bu qoida demokratik huquqiy davlatning eng ustuvor belgilaridan biri bo'lib, asossiz ayblovlardan himoya qiladi.

Advokat ko'magi va bepul yordam Har bir inson jinoyat protsessining har qanday bosqichida, u ushlangan lahzadan boshlab professional yuridik yordam olish huquqiga ega. Davlat ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta'minlangan fuqarolarning huquqlari poymol etilmasligi uchun ularga yuridik yordam ko'rsatish xarajatlarini o'z zimmasiga oladi.

3-BO'LIM. Fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlari

Huquq va majburiyat bir tanganing ikki tomoni singari uzviy bog'liqdir. Yangi Konstitutsiyada fuqarolarning jamiyat va davlat taraqqiyoti yo'lidagi mas'uliyati ham aniq belgilab berilgan:

1.Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish (50-modda): Fuqarolar o'z huquqlaridan foydalanishda boshqa shaxslarning, davlatning va jamiyatning qonuniy manfaatlariga, huquq va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart. Qonun ustuvorligi jamiyat barqarorligining garovidir.

2.Tarixiy va ma'naviy merosni asrash (51-modda): Xalqimizning ko'p asrlik tarixiy, ma'naviy, madaniy va tabiiy boyliklarini asrab-avaylash hamda kelajak avlodga yetkazish har bir fuqaroning majburiyati hisoblanadi.

3.Soliqlarni to'lash (52-modda): Davlatning ijtimoiy dasturlari va mamlakat obodligini ta'minlash uchun qonun bilan belgilangan soliqlar hamda mahalliy yig'imlarni o'z vaqtida to'lash har bir fuqaroning burchidir.

4.Vatanni himoya qilish (53-modda): O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini, hududiy yaxlitligini va tinchligini himoya qilish — har bir fuqaro uchun nafaqat qonuniy majburiyat, balki muqaddas burchdir.

4-BO'LIM. Ekologik va ijtimoiy huquqlarning yangi qatlamlari: Yangi Konstitutsiyada ilk bor ekologik huquqlar alohida bobga kiritildi. Qulay atrof-muhitga bo'lgan huquq borasida har kim qulay atrof-muhitga, uning holati haqidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga egaligi 49-moddada mustahkamlandi. Uy-joy huquqi masalasida hech kim sud qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi belgilandi. Uy-joydan mahrum etilgan mulkdorga uyning qiymati hamda ko'rilgan zararlar oldindan va adolatli kompensatsiya qilinishi kafolatlanadi. Shaxs huquqlari va erkinliklarining kafolatlari — shaxs va fuqarolarning Konstitutsiya shuningdek qonunlarda mustahkamlangan huquqlari hamda erkinliklarini amalga oshirishni davlat tomonidan ta'minlashga yordam beradigan vositalar, usullar shu jumladan shart-sharoitlar majmui hisoblanadi. Shaxs huquqlari hamda erkinliklarining kafolatlarini yuridik, ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy turlarga ajratish mumkin. Yuridik kafolatlar deganda fuqarolarning huquqlari va erkinliklari qonunlar asosida huquqiy jihatdan himoyalaniishi tushuniladi. Yuridik kafolatlarning shakllari sifatida konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlar, sudlar tomonidan himoya qilish,

ombudsman faoliyati va hukumat faoliyatini qayd etish lozim. Shaxsiy huquq va erkinliklarning eng oliy ko‘rinishi bu avvalo yashash huquqidir. Insoniyat hayotida eng asosiy qadriyat bo‘lmish yashash huquqi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasida yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqi ekanligi va u qonun bilan muhofaza qilinishi, inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyat ekanligi belgilab qo‘yilgan. Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqi bo‘lib, qonun bilan muhofaza qilinadi va inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyat hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosi taqiqlangan bo‘lib, Konstitutsiyaning 25-moddasi shunday talqin qilinishi ko‘zda tutilgan. O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosi tayinlanadigan jinoyatlar soni bosqichma-bosqich kamaytirilib, bu jazo to‘liq bekor qilingan. Shunga qaramasdan, ayrim fuqarolar tomonidan o‘lim jazosini tiklash haqida takliflar ilgari surilgan bo‘lsa-da, demokratik va insonparvar g‘oyalarni oliy qadriyat darajasiga ko‘targan aksariyat davlatlarda o‘lim jazosi bekor qilingan. Chunki yashash huquqi — har bir insonning tabiiy huquqi bo‘lib, unga bu huquqni davlat emas, tabiatning o‘zi ato etgan. 1994-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida 33 ta modda bo‘yicha o‘lim jazosi tayinlanishi mumkin edi. Keyinchalik jinoiy jazolarni liberallashtirish natijasida 2008-yilgacha qonunchilikka muvofiq ikki turdagi jinoyat, ya‘ni javobgarlikni og‘irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o‘ldirish va terrorizm uchun o‘lim jazosi nazarda tutilgan edi, 2008-yil 1-yanvardan boshlab esa barcha jinoyatlar uchun o‘lim jazosi butunlay bekor qilingan.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nafaqat o‘lim jazosini bekor qilish, balki bu jazo turini qat‘iy ravishda taqiqlash belgilandi. Xususan, 25-moddada “O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosi taqiqlanadi” degan norma muhrlandi. Mazkur qoida yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqi sifatida tan olinishiga asos bo‘lib, mamlakatimizda o‘lim jazosini belgilash va tayinlashni mutlaq taqiqlaydi. Shu tariqa,

davlatimiz ushbu o'ta jiddiy masalada hech qachon ortga qaytmasligini hamda insonparvarlik g'oyalariga sodiq ekanligini butun dunyoga namoyon etdi. O'lim jazosi taqiqining Konstitutsiyadan o'rin olishi inson huquqlari himoyasini yanada mustahkamlaydi. Bunday o'zgarish O'zbekistonning xalqaro hamjamiyat oldidagi nufuzini oshirishga va milliy qonunchiligimizga bo'lgan hurmatning yuksalishiga xizmat qiladi. Bu norma BMTning 1966-yil 16-dekabrda fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 6-moddasiga to'la mos keladi. Mazkur moddada "Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir. Bu huquq qonun bilan muhofaza qilinadi. Hech kim o'zboshimchalik bilan hayotdan mahrum etilishi mumkin emas" deb qayd etilgan. O'lim jazosini taqiqlash, shuningdek, ushbu Paktga 1989-yil 15-dekabrda kiritilgan ikkinchi qo'shimcha protokol talablaridan kelib chiqadi. Yashash huquqining konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi ko'plab taraqqiy etgan davlatlar tajribasida ham kuzatiladi. Masalan, o'lim jazosi Portugaliyada 1867-yildan, Buyuk Britaniyada 1969-yildan, Fransiyada 1981-yildan, Ispaniyada 1975-yildan buyon qo'llanilmaydi. Bugungi kunda dunyoning 106 davlatida, jumladan, Italiya, Norvegiya, Shvetsiya va Polshada o'lim jazosi barcha turdagi jinoyatlar uchun butunlay bekor qilingan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ushbu masala yuzasidan o'z fikrini bildirib: "Yashash huquqi — har bir insonning tabiiy huquqi bo'lib, unga bu huquqni davlat emas, Yaratganning o'zi ato etgan", — deya ta'kidlagan edi. Aynan shu yuksak insonparvarlik g'oyasi asosida Konstitutsiyaga "O'zbekistonda o'lim jazosi taqiqlanadi" degan qoida kiritildi. Shuningdek, huquqiy tushunchalarni qo'llashda shaxs va fuqaro tushunchalarini o'zaro farqlash lozim. Shaxs — bu tabiatda, real hayotda va jamiyatda yashovchi har bir insonga nisbatan ishlatiladigan keng qamrovli tushunchadir. Fuqaro esa muayyan davlat bilan huquqiy aloqada bo'lgan, o'zaro huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan shaxsni anglatadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada insonning tabiiy huquqlari u fuqaro bo'lishidan qat'i nazar,

shaxs sifatida daxlsiz ekanligi o'z ifodasini topgan. Fuqaro — ma'lum bir davlat bilan barqaror huquqiy aloqaga ega bo'lgan shaxsdir. Shu bois, Shaxs huquqlari umumiy va keng tushuncha bo'lsa, Fuqaro huquqlari shaxsning muayyan davlat bilan bo'lgan huquqiy bog'liqligini anglatadi. Bunda fuqaroning huquqlari biron-bir davlat hududi bilan cheklanishi yoki aksincha, boshqa davlat fuqarolariga nisbatan unga kengroq siyosiy va huquqiy imkoniyatlar berilishi mumkin. Umuman olganda, fuqarolarning barcha huquqlari shaxs huquqlari tarkibiga kiradi. Xuddi shuningdek, Shaxs erkinligi ham fuqaro erkinligiga nisbatan kengroq tushunchadir. Shaxs erkinligi — har bir kishining o'z istagi va irodasi bo'yicha mustaqil ish tutishidir. Erkinlik tushunchasi huquqshunoslik, siyosatshunoslik, etika va estetika kabi ijtimoiy sohalarda keng qo'llanilib, vijdon erkinligi, so'z erkinligi, matbuot erkinligi kabi shakllarda namoyon bo'ladi. Erkinlik aslo boshboshdoqlikni emas, balki jamiyatdagi muayyan tartibni, insonning o'z vazifalarini ixtiyoriy tanlashini anglatadi. U shaxsni siyosiy-ma'naviy ta'qibdan va zo'ravonlikdan himoyalaydi, o'z baxtini yaratish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shaxs erkinligini oshiruvchi asosiy omillardan biri bu — bilim va tajribadir. Buyuk mutafakkir Abu Mansur Moturidiy islomdagi iroda erkinligini sharhlar ekan, shaxsga berilgan aql-idrok unga yaxshilik va yomonlikni, halol va haromni, to'g'ri yoki egri yo'lni tanlash imkonini berishini ta'kidlagan. Fuqaro erkinligi esa shaxsga barcha sohalarda (iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy) o'z talablarini amalga oshirish imkonini beruvchi aniq huquqiy maqomdir.

Hozirgi kunda shaxs huquqlari muammosi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib, u jamiyatning oliy qadriyati hisoblanadi. Shaxs huquqlari — bu demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgisi va davlat taraqqiyotini ko'rsatuvchi asosiy mezondir. Shu sababli, shaxs huquqlari ham xalqaro huquqda, ham milliy tizimda markaziy o'rin tutadi. Insoniyat tarixida shaxs huquqlariga oid qonunchilik xalqaro hujjatlar va milliy qonunlar majmuini qamrab olib, o'z rivojlanishida uchta yirik tarixiy bosqichni bosib o'tgan.

Shaxs va fuqaro huquqlari hamda erkinliklarining tarixiy taraqqiyoti insoniyat sivilizatsiyasining eng yuksak yutuqlaridan biri bo'lib, u o'zining rivojlanish jarayonida uchta asosiy tarixiy bosqichni bosib o'tgan. Shaxs huquqlari rivojlanishining tarixiy bosqichlari

Birinchi bosqich – 1789-yildagi mashhur Fransuz deklaratsiyasidan boshlanib, Birinchi jahon urushiga qadar bo'lgan davrni qamrab oladi. Ushbu davrda asosiy e'tibor shaxsiy va siyosiy huquqlarning huquqiy poydevorini yaratishga qaratildi. Mazkur bosqichda inson erkinligi, fuqarolar tengligi, shaxs daxlsizligi va xususiy mulk huquqi kabi fundamental qadriyatlar qonunchilik darajasida mustahkamlandi. Saylov huquqi o'sha davrda turli mulkiy yoki ijtimoiy senzlar bilan cheklangan bo'lsa-da, demokratik institutlarning shakllanishi aynan shu davrga to'g'ri keladi.

Ikkinchi bosqich – XX asrning birinchi yarmini o'z ichiga oladi. Bu davrda sotsial yo'nalishdagi demokratiya g'oyalari ta'sirida insonning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari jadal rivojlandi. Mehnat qilish, dam olish, ijtimoiy yordam va nafaqa olish huquqlari qonunchilikning ustuvor yo'nalishiga aylandi. 1920-yildagi Veymar Konstitutsiyasi hamda Ikkinchi jahon urushidan keyingi Fransiya va Italiyaning 1946-yildagi Konstitutsiyalari ijtimoiy huquqlarning davlat tomonidan kafolatlanishiga yaqqol misol bo'ldi.

Uchinchi bosqich – XX asrning ikkinchi yarmidan boshlanib, bugungi kunga qadar davom etmoqda. Bu davrda shaxs huquqlarining “yangi avlodi” shakllandi. Endilikda insonning tinch yashash, musaffo atrof-muhitga ega bo'lish va axborot olish kabi global huquqlari kun tartibiga chiqdi. Aynan shu bosqichda shaxs huquqlari bo'yicha yaxlit xalqaro qonunchilik tizimi va BMT doirasidagi universal andozalar yaratildi.

Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarning zamonaviy tamoyillari

Hozirgi kunda dunyo davlatlari o'z Bosh qomuslarida shaxs huquqlariga oid bir qator o'zgarmas qoidalarni mustahkamlaganlar. Birinchidan, shaxs huquqlarini tan olish va himoya qilish davlatning oliy majburiyati deb

belgilandi. Ikkinchidan, milliy qonunchilikning xalqaro huquqiy andozalarga muvofiqligi va xalqaro huquq ustuvorligi tan olindi. Uchinchidan, inson huquqlari unga tugʻilganidan boshlab tegishli ekanligi, yaʼni tabiiy huquq nazariyasi amalda oʻz tasdigʻini topdi. Toʻrtinchidan, huquq va erkinliklarning hammaga barobar taalluqliligi kafolatlandi.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham inson huquqlari shaxsiy, siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy guruhlariga boʻlingan holda ifodalangan. Shaxsiy huquq va erkinliklar insonning individual hayotiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilib, kishini tashqi aralashuvlardan himoya qiladi. Ularning oʻziga xosligi shundaki, ular shaxsning fuqaroligidan qatʼi nazar daxlsizdir va tugʻilgan zahoti amal qila boshlaydi.

Siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarning ahamiyati

Siyosiy huquqlar shaxsning jamiyat hayotida, davlat boshqaruvida ishtirok etish darajasini belgilaydi. Siyosiy faollik shaxsga oʻz huquqlari mohiyatini anglash va ulardan maqsadga muvofiq foydalanish imkonini beradi. Oʻzbekistonda shaxs jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita yoki oʻz vakillari orqali ishtirok etishi, miting va namoyishlar oʻtkazishi, davlat organlariga murojaat qilishi hamda turli jamoat birlashmalariga uyushishi mumkin. Bu huquqlar fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar esa shaxsning moddiy va maʼnaviy ehtiyojlarini qondirishga, muayyan ijtimoiy boyliklarga egalik qilishga qaratilgan. Bu huquqlar insonning har tomonlama kamol topishi va munosib hayot kechirishi uchun moddiy zamin yaratadi. Iqtisodiy erkinlik va ijtimoiy himoya uygʻunligi shaxsning oʻz salohiyatini toʻlaqonli namoyon etishiga xizmat qiladi. Umumiy qilib aytganda, shaxs huquqlari va erkinliklarining davlat tomonidan kafolatlanishi demokratik huquqiy davlat qurishning eng asosiy mezoni va hozirgi davrning talabidir.

O‘zbekistonning demokratik huquqiy davlat qurish yo‘liga o‘tishi ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarga yangicha yondashishni, eski qoliplardan voz kechishni va ilg‘or jahon tajribasini tatbiq etishni talab etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ilk bor mulkka egalik huquqi, ishsizlikdan himoyalash, mehnatning oqilona va adolatli shart-sharoitlariga ega bo‘lish hamda madaniyat yutuqlaridan foydalanish kabi huquqlar mustahkamlandi. Shu bilan birga, mehnat, ta‘lim, ijtimoiy ta‘minot va ijod erkinligi kabi mavjud huquqlar mazmunan boyitilib, mafkuraviy cheklovlardan xoli qilindi.

Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarning konstitutsiyaviy asosi

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning IX bobi (41–48-moddalar) ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarni qamrab olgan bo‘lib, unda quyidagi muhim kafolatlar belgilangan:

-Mulk va mehnat huquqi: Har bir shaxsning mulkka ega bo‘lish huquqi daxlsizdir. Har kim mehnat qilish, erkin kasb tanlash hamda xavfsiz va adolatli mehnat sharoitlarida ishlash huquqiga ega.

-Dam olish va ijtimoiy ta‘minot: Barcha fuqarolar dam olish huquqiga ega. Davlat qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda, boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta‘minot olish huquqini kafolatlaydi.

-Sog‘liqni saqlash va ta‘lim: Har bir shaxs malakali tibbiy xizmatdan foydalanish va bilim olish huquqiga ega. Davlat bepul umumiy ta‘lim olishni va ilmiy-texnikaviy ijod erkinligini qo‘llab-quvvatlaydi.

-Inson huquqlarining universalligi va xalqaro andozalar

Inson huquqlari — irqi, jinsi, millati, tili, dini yoki boshqa maqomidan qat‘i nazar, barcha insonlarga tegishli bo‘lgan ajralmas huquqlardir. Ular yashash, erkinlik, qiynoqlardan ozod bo‘lish, fikr va so‘z erkinligi, mehnat va ta‘lim olish kabi keng qamrovli huquqlarni o‘z ichiga oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) eng ulkan yutuqlaridan biri inson huquqlari bo'yicha universal xalqaro kodeksni yaratish bo'ldi. Ushbu huquqiy majmuaning poydevori quyidagilar hisoblanadi:

1.BMT Nizomi (1945): Xalqaro hamkorlik va inson huquqlarini hurmat qilishning asosiy prinsiplarini belgilab berdi.

2.Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948): Inson huquqlarining xalqaro miqyosdagi birinchi va eng muhim hujjati bo'lib, barcha xalqlar intilishi lozim bo'lgan umumiy andozalarni e'lon qildi.

3.Maxsus guruhlar himoyasi: BMT inson huquqlari bo'yicha qonunchilikni asta-sekin kengaytirib, jamiyatning zaif qatlamlari — ayollar, bolalar, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun maxsus standartlarni joriy etdi. Bugungi kunda xalqaro inson huquqlari huquqi hukumatlar zimmasiga o'z fuqarolarining asosiy erkinliklarini rag'batlantirish va ularni har qanday kamsitishlardan (diskriminatsiyadan) himoya qilish majburiyatini yuklaydi. O'zbekiston ushbu xalqaro majburiyatlarga sodiq qolgan holda, o'z milliy qonunchiligini xalqaro inson huquqlari standartlari bilan uyg'unlashtirib bormoqda.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (IHUD) inson huquqlari tarixidagi eng muhim va poydevor hujjat hisoblanadi. Dunyoning barcha mintaqalaridan turli xil huquqiy va madaniy kelib chiqishi bo'lgan vakillar tomonidan ishlab chiqilgan ushbu Deklaratsiya 1948-yil 10-dekabrda Parijda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 217 A (III) rezolyutsiyasi bilan barcha xalqlar va davlatlar uchun umumiy yutuqlar standarti sifatida e'lon qilingan. Unda tarixdagi birinchi marta insonning asosiy huquqlari universal tarzda himoya qilinishi qat'iy belgilab qo'yilgan. Qabul qilinganidan beri IHUD 500 dan ortiq tillarga tarjima qilingan bo'lib, u dunyodagi eng ko'p tarjima qilingan hujjat sanaladi hamda ko'plab yangi mustaqil va demokratik davlatlar konstitutsiyalarini yaratishda asosiy ilhom manbai bo'lib xizmat qilgan.

Deklaratsiya muqaddima va 30 ta moddadan iborat bo'lib, uning bosh maqsadi dunyoda tinchlik, adolat va erkinlikni ta'minlash uchun har bir insonning qadr-qimmati va ajralmas huquqlarini himoya qilishdir. O'zbekiston uchun mazkur hujjatning ahamiyati beqiyos, chunki mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng 1991-yil 30-sentabrda qo'shilgan birinchi xalqaro huquqiy hujjatlardan biri aynan shu deklaratsiya bo'lgan. Deklaratsiyada yashash huquqi, erkinlik, shaxsiy daxlsizlik, barcha insonlarning qadr-qimmat va huquqlarda teng bo'lib tug'ilishi, irqi, jinsi, tili va dinidan qat'i nazar kamsitishga yo'l qo'ymaslik, fikr, vijdon va din erkinligi hamda ta'lim va mehnat qilish huquqi kabi fundamental prinsiplar belgilangan. IHUD Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt va uning ixtiyoriy bayonnomalari hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt bilan birgalikda Inson huquqlari bo'yicha xalqaro billni (huquqlar to'plamini) tashkil etadi. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt 1976-yilda kuchga kirgan bo'lib, u adolatli mehnat sharoitlari, ijtimoiy himoya, munosib turmush darajasi, jismoniy va ruhiy farovonlikning yuqori darajasiga erishish, ta'lim olish va ilmiy taraqqiyot natijalaridan foydalanish huquqlarini himoya qiladi. Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt ham 1976-yilda kuchga kirdi va unda harakatlanish erkinligi, qonun oldida tenglik, adolatli sudlov, aybsizlik prezumpsiyasi, tinch yig'ilishlar hamda davlat ishlarida ishtirok etish huquqlari mustahkamlandi. Shu bilan birga, u o'zboshimchalik bilan hayotdan mahrum qilish, qiynoqlar, qullik, majburiy mehnat, shaxsiy hayotga aralashish va urush tashviqotini qat'iyani taqiqlaydi. 1945-yildan buyon qabul qilingan Genotsid jinoyatining oldini olish (1948), Irqiy kamsitishga barham berish (1965), Ayollarga nisbatan kamsitishni tugatish (1979), Bola huquqlari (1989) va Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyalar (2006) xalqaro huquq doirasini yanada kengaytirdi. BMTning inson huquqlari bo'yicha asosiy hukumatlar orsida bo'lgan Inson huquqlari kengashi 2006-yil 15-martda tashkil etilib, u 47 ta davlat vakillaridan iborat. Kengashning eng innovatsion

mexanizmi universal davriy sharh bo'lib, u har to'rt yilda BMTga a'zo barcha 193 ta davlatning inson huquqlari bo'yicha majburiyatlarini qanday bajarayotganini ko'rib chiqadi. Bu jarayon davlatlar o'rtasidagi o'zaro tenglikni ta'minlash va dunyo bo'ylab inson huquqlari bilan bog'liq vaziyatni yaxshilash uchun xizmat qiladigan hamkorlik mexanizmi hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari BMTning inson huquqlari sohasidagi faoliyati uchun asosiy mas'uliyatni amalga oshiradi. Oliy komissar inson huquqlarining jiddiy buzilishi holatlariga tezkor javob berish va bunday holatlarning oldini olish uchun profilaktika choralarini ko'rish vakolatiga ega. Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar idorasi (OHCHR) BMT tizimida inson huquqlari bo'yicha markaziy organ hisoblanadi. Mazkur idora Inson huquqlari kengashi, shartnoma organlari (shartnomalarga rioya etilishini nazorat qiluvchi ekspert qo'mitalari) hamda BMTning boshqa inson huquqlari tuzilmalarining kotibiyati vazifasini bajaradi. Inson huquqlari bo'yicha asosiy xalqaro shartnomalarning aksariyatida maxsus nazorat organlari mavjud bo'lib, ular shartnomani ratifikatsiya qilgan davlatlar tomonidan o'z majburiyatlarining bajarilishini ko'rib chiqish uchun mas'uldir. Huquqlari buzilgan shaxslar bevosita inson huquqlari bo'yicha shartnomalarni nazorat qiluvchi ushbu qo'mitalarga shikoyat qilish imkoniyatiga egadirlar. Inson huquqlari BMTning tinchlik va xavfsizlik, barqaror taraqqiyot, gumanitar yordam, iqtisodiy va ijtimoiy masalalarga oid barcha siyosiy strategiya hamda dasturlarida markaziy va birlashtiruvchi mavzu hisoblanadi. Natijada BMTning deyarli barcha organlari va ixtisoslashgan muassasalari muayyan darajada inson huquqlarini himoya qilish bilan shug'ullanadi. Bunga misol sifatida Barqaror rivojlanish maqsadlarining o'zagi bo'lgan rivojlanish huquqi, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan oziq-ovqat huquqi, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) tomonidan himoyalananadigan mehnat huquqlari, "BMT-Ayollar" tuzilmasi ilgari surayotgan gender tengligi, shuningdek, bolalar, mahalliy xalqlar va nogironligi bo'lgan shaxslar

huquqlarini misol qilish mumkin. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro paktlar yakunida ta'kidlanganidek, BMT qonunida e'lon qilingan tamoyillarga muvofiq, insoniyat oilasining barcha a'zolariga xos bo'lgan qadr-qimmatni, teng va ajralmas huquqlarni tan olish — dunyoda erkinlik, adolat va tinchlikning asosidir. Ushbu huquqlar insonning ajralmas qadr-qimmatidan kelib chiqadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga ko'ra, qo'rquv va muhtojlikdan ozod bo'lgan erkin inson ideali faqat har bir kishi o'zining fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlaridan foydalanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgandagina amalga oshishi mumkin. Davlatlarning inson huquqlariga umumiy hurmat va ularga rioya etilishini ta'minlash borasidagi xalqaro majburiyatlari bilan bir qatorda, har bir shaxs ham o'zi mansub bo'lgan jamiyat va boshqa insonlar oldida mas'uliyatga ega bo'lib, ushbu paktlarda e'tirof etilgan huquqlarni targ'ib qilishga intilishi lozim. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqaroni shunchaki davlat boshqaruvining obyektiga emas, balki huquqlarning asosiy manbai sifatida belgiladi. Qonunchilikdagi barcha noaniqliklar va ziddiyatlarning inson foydasiga talqin qilinishi haqidagi qoida mamlakatimizda "inson qadri" naqadar yuksak darajaga ko'tarilganining amaliy isbotidir. Bunday demokratik islohotlar xalqaro hamjamiyat tomonidan keng e'tirof etilmoqda. Bugungi kundagi asosiy talab etiladigan vazifalar — mazkur konstitutsiyaviy normalarning kundalik hayotda to'liq ijro etilishini ta'minlash va fuqarolarning huquqiy ongi hamda madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan ekanligini aytib o'tishimiz mumkin.

Savol va topshiriqlar:

1. Konstitutsiyada belgilangan yashash huquqi, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik, shuningdek, shaxsiy hayot daxlsizligi kabi huquqlarning mazmuni nimalardan ibo

2.Yangi tahrirdagi konstitutsiyaga ko'ra, shaxsni sud qarorisiz **48 soatdan ortiq** ushlab turish mumkin emasligi qanday huquqiy kafolat hisoblanadi?

3.Shaxs ushlanganida unga o'z huquqlari va ushlab turilish sabablari tushuntirilishi, shuningdek, jim turish huquqi (o'ziga qarshi ko'rsatuv bermaslik) qanday kafolatlangan?

4.Shaxsning turar joyiga uning ruxsatisiz kirish qaysi hollarda va faqat kimning qarori asosida amalga oshirilishi mumkin

5.Faqat huquqlardan foydalanib qolmay, fuqarolar zimmasiga yuklatilgan asosiy burchlar nima uchun muhim?

FOR AUTHOR USE ONLY

6-§. INSON HUQUQ VA ERKINLARINING TA'MINLANISHI. INSON HUQUQLARI HAQIDAGI XALQARO QARASHLAR

REJA:

1. Inson huquqlari tushunchasi va uning tarixiy taraqqiyoti.
2. Inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro standartlari va hujjatlari.
3. O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlari.

Inson huquqlariga oid zamonaviy xalqaro qarashlar va Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasida aks etgan huquqiy normalarning yaxlit tizimi quyidagicha namoyon bo'ladi: Inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar va zamonaviy yondashuv Bugungi kunda xalqaro miqyosda inson huquqlari universal, bo'linmas va bir-biri bilan uzviy bog'liq deb qaraladi. Bu tamoyilga ko'ra, inson huquqlarining buzilishi shunchaki bir davlatning ichki ishi emas, balki butun dunyo hamjamiyatini tashvishga solishi kerak bo'lgan global masaladir. Inson huquqlarining ustuvorligi barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatining asosiy mezonlaridan biri demakdir.

Hozirgi davr talabidan kelib chiqib, inson huquqlari doirasi faqat klassik siyosiy erkinliklar bilan cheklanib qolmay, raqamli huquqlar (internetga kirish, shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi) va ekologik huquqlarni ham o'z ichiga olmoqda. O'zbekiston inson huquqlarini ta'minlashda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplariga tayanadi. Xususan, 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning ma'naviy va huquqiy poydevori bo'lib xizmat qildi.

O'zbekiston Konstitutsiyasida inson huquqlari kafolati

Mustaqil demokratik yo'ldan borayotgan O'zbekistonning eng ulug' maqsadi — xalq manfaatlari ko'zlangan islohotlarni amalga oshirishdir. Ushbu maqsadlar Bosh Qomusimizda quyidagicha mustahkamlangan:

-Demokratiyaning asosi (13-modda): O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi. Inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi².

-Inson qadrligining ustuvorligi (20-modda): Inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishi shart. Bu davlatning insonga xizmat qilish majburiyatini ifodalaydi.

-Shaxsiy daxlsizlik (27-modda): Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega³.

-Yangi Konstitutsiyada O'zbekiston rasman "Ijtimoiy davlat" deb e'lon qilindi. Bu maqom davlatning inson uchun munosib hayot kechirish sharoitlarini yaratish majburiyatini kafolatlaydi:

1.Mehnat huquqlari (42-modda): Har bir shaxs munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash huquqiga ega. Davlat xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarini ta'minlashni o'z zimmasiga oladi.

2.Uy-joy huquqi (47-modda): Hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emas. Agarda mulkdor uyidan mahrum etilsa, unga uying qiymati oldindan va teng miqdorda (bozor qiymatida) qoplanishi shart⁴.

2.Tibbiy xizmat (48-modda): Har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. Davlat fuqarolarga bepul tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini ta'minlab berad⁵.Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining "Barcha odamlar ozod, qadr-qimmati va huquqlarida teng bo'lib tug'iladilar" degan ezgu g'oyasi Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasining mazmun-mohiyatiga to'liq singdirilgan bo'lib,

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2024. – 8 b.

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2024. – 18 b.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2024. – 29 b.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2024. – 29 b.

mamlakatimiz inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarini, xususan, "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi hamda "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro paktlar doirasidagi vazifalarni izchil bajarib kelmoqda. Konstitutsiyaning 26-moddasida insonning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yo'l qo'yilmasligi qat'iy belgilangan bo'lib, bu xalqaro konvensiya talablariga to'la mos keladi. Inson huquqlari faqat qog'ozda qolmasligi uchun mamlakatimizda huquqiy himoya institutlari sezilarli darajada kuchaytirildi. Xususan, fuqarolar o'z huquq va erkinliklari buzilgan taqdirda, agar sud himoyasining barcha vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, bevosita Konstitutsiyaviy sudga shikoyat qilish huquqini qo'lga kiritdilar (133-modda). Shuningdek, Inson huquqlari bo'yicha vakil (Ombudsman) vakolatlari kengaytirildi va shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda o'z huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shartligi - "Miranda qoidasi" konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi.

Ushbu jarayonlarda Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi muhim o'rin tutmoqda. Markaz milliy harakat rejalarini tuzish, xalqaro huquq me'yorlarini hayotga tatbiq etish strategiyalarini ishlab chiqish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish hamda inson huquqlari himoyasi yuzasidan milliy ma'ruzalar tayyorlash kabi vazifalarni muvaffaqiyatli ado etib kelmoqda. Yuridik fanlari doktori, professor Akmal Saidov ta'kidlaganidek, O'zbekiston mustaqillikka erishgan ilk yillaridanoq 1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi tasdiqlanib, insonparvar davlat qurish yo'lini tanladi. Qisqa tarixiy muddat ichida milliy davlatchilikning huquqiy asoslari yaratilib, hokimiyat qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga taqsimlandi. Xalq farovonligi yo'lida kuchli huquqiy davlatdan fuqarolik jamiyati sari ildam qadam qo'yilishi natijasida yurtimiz xalqaro huquqning to'laqonli va teng huquqli sub'ektiga aylandi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining "Barcha odamlar ozod, qadr-qimmat va huquqlarida teng bo'lib tug'iladilar" degan g'oyasi Yangi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyatiga to'liq singdirilgan bo'lib, mamlakatimiz inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarini, xususan, "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi hamda "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro paktlar doirasidagi vazifalarni izchil bajarib kelmoqda. Konstitutsiyaning 26-moddasida insonning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitishga yo'l qo'yilmasligi qat'iy belgilangan bo'lib, bu xalqaro konvensiya talablariga to'la mos keladi. Inson huquqlari faqat qog'ozda qolmasligi uchun mamlakatimizda huquqiy himoya institutlari sezilarli darajada kuchaytirildi. Xususan, fuqarolar o'z huquq va erkinliklari buzilgan taqdirda, agar sud himoyasining barcha vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, bevosita Konstitutsiyaviy sudga shikoyat qilish huquqini qo'lga kiritdilar (133-modda). Shuningdek, Inson huquqlari bo'yicha vakil (Ombudsman) vakolatlari kengaytirildi va shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda o'z huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shartligi — "Miranda qoidasi" konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi. Ushbu jarayonlarda Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi muhim o'rin tutmoqda. Markaz milliy harakat rejalarini tuzish, xalqaro huquq me'yorlarini hayotga tatbiq etish strategiyalarini ishlab chiqish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish hamda inson huquqlari himoyasi yuzasidan milliy ma'ruzalar tayyorlash kabi vazifalarni muvaffaqiyatli ado etib kelmoqda. O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish tizimi nafaqat milliy qonunchilik, balki keng ko'lamlil xalqaro hamkorlik va institutlar tarmog'iga asoslanadi. Mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini mustahkamlash borasida BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP), EXHT (OSCE), Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO), Yevropa Ittifoqi delegatsiyasi, YuNESKO va YuNISEF kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar bilan samarali sheriklik yo'lga qo'yilgan.

Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar va ilmiy salohiyat

Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning (IHMI) shakllanishi O'zbekistonni modernizatsiyalash va demokratik islohotlarni chuqurlashtirish jarayonining ajralmas qismidir. Bu borada quyidagi muhim jihatlarni qayd etish lozim:

-Huquqiy maqomning mustahkamlanishi: 2008-yil 1-maydagi Prezident Farmoni bilan inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning tashkiliy-huquqiy asosi takomillashtirildi. Bu hujjat IHMIlar faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularning moddiy-texnik bazasini boyitish va samarali ishlashi uchun zarur sharoitlar yaratishda kompleks chora-tadbirlar dasturiga aylandi.

-Axborot va ma'rifat markazi: Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz huzurida Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan ixtisoslashtirilgan ommaviy kutubxona faoliyat yuritmoqda. Ushbu kutubxona fondi 5 mingdan ortiq nomdagi adabiyotlarni o'z ichiga olgan bo'lib, markaz tomonidan davlat tilida 150 dan ziyod to'plam va kitoblar chop etilgan.

-Xalqaro standartlarga muvofiqlik

O'zbekistonning demokratik o'zgarishlarga sodiqligi milliy institutlar faoliyatini xalqaro standartlarga (xususan, Parij prinsiplariga) muvofiqlashtirish orqali namoyon bo'lmoqda. Xalqaro sheriklar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirish, inson huquqlarini rag'batlantirish va ularni himoya qilish mexanizmlarini hayotga tatbiq etishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish va ularning xalqaro aloqalarini kengaytirish — davlat va jamiyat o'rtasidagi demokratik muloqotni mustahkamlashning asosiy kafolatidir.

O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish tizimi mustahkam qonunchilik bazasi va ixtisoslashgan milliy institutlar faoliyati orqali ta'minlanmoqda. Hozirgi kunda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha

vakili (Ombudsman), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonunchilik monitoringi instituti hamda Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz o'z zimmalaridagi vazifalarni to'laqonli bajarish yo'lida samarali xizmat qilib kelmoqda. Ushbu tashkilotlarning tizimli harakatlari va ilmiy-huquqiy izlanishlari natijasida yurtimizda inson huquqlari muhofazasining kafolatlangan mexanizmlari barpo etildi.

Istiqlol yillarida insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlashga doir o'nlab konstitutsiyaviy qonunlar, kodekslar va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, hayotga izchil tatbiq etilmoqda. Xususan, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi hamda "Xayriya to'g'risida"gi qonunlarning qabul qilinishi inson huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini xalqaro andozalar darajasida takomillashtirishga zamin bo'ldi.

O'zbekistonda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari ustunligi konstitutsiyaviy asosda e'tirof etilgan. Bugungi kunda mamlakatimiz inson huquqlari bo'yicha 70 dan ziyod xalqaro hujjatni, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan 10 ta asosiy majburiy xalqaro shartnomani ratifikatsiya qilgan. Davlatimiz o'zining xalqaro majburiyatlarini muntazam ravishda bajarib kelmoqda va bu borada xalqaro hamjamiyat bilan faol muloqotni davom ettirmoqda.

Xususan, "Sog'lom bola yili" Davlat dasturi ijrosini ta'minlash doirasida ko'plab ijtimoiy va huquqiy tadbirlar amalga oshirildi. Iyul oyida Milliy markaz va YuNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi hamkorligida o'tkazilgan seminar davlat organlari faoliyatida bolalar manfaatlarini ta'minlash samaradorligini tahlil qilish imkonini berdi. Shuningdek, Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi hamda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti kabi nufuzli ta'lim muassasalari bilan

hamkorlikda yosh mutaxassislarning huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan uchrashuvlar tizimli ravishda tashkil etilmoqda.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi faoliyatining o'zagi fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash va ularni ijobiy hal etishdan iboratdir. Jamoatchilik bilan aloqalar bo'limining statistik ma'lumotlari bu boradagi ishlarning ko'lamini yaqqol ko'rsatadi. Joriy yilning o'tgan 9 oyi mobaynida fuqarolardan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, shaxsiy huquq va erkinliklarini himoya qilishga oid 1452 ta murojaat kelib tushdi. Markaz mutaxassislari tomonidan 192 ta holat bo'yicha bevosita huquqiy maslahatlar berilgan bo'lsa, 117 ta holatda huquqlarni amalga oshirish maqsadida boshqa davlat organlari bilan hamkorlikda choralar ko'rildi. Natijada 92 ta holatda fuqarolarning buzilgan huquqlari to'liq tiklandi. Bundan tashqari, Markazning "Ishonch telefonlari" orqali kunlik rejimda fuqarolarga huquqiy tushuntirishlar berish yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu inson huquqlari buzilishining oldini olishda muhim profilaktik ahamiyatga ega.

O'zbekistonning demokratik islohotlarga sodiqligini namoyish qilishda inson huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish eng birlamchi vazifa hisoblanadi. Bu jarayonda Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi jamiyatimizdagi asosiy institutlardan biri sifatida alohida o'rin egallaydi. Inson huquqlari tizimining poydevori sifatida insoniyat oilasining barcha a'zolariga xos qadr-qimmatni, ularning teng va ajralmas huquqlarini tan olish dunyoda erkinlik, adolat va yalpi tinchlikning asosi ekanligi e'tirof etilgan.

Inson huquqlarini mensimaslik va ularni poymol etish tarixan insoniyat vijdonini qiynaydigan vahshiyona ishlarning sodir etilishiga sabab bo'lgan. Shuning uchun ham kishilar so'z va e'tiqod erkinligiga ega bo'ladigan, qo'rquv va muhtojlikdan xoli yashaydigan dunyoni yaratish insonlarning eng ezgu intilishi deb e'lon qilingan. Inson oxirgi chora sifatida zulm va istibdodga qarshi isyon ko'tarishga majbur bo'lmasligi uchun inson huquqlari

qonun kuchi bilan himoya etilishi, xalqlar o'rtasida do'stona munosabatlarni rivojlantirish zarurati xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tiborga olingan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) xalqlari insonning asosiy huquqlari, shaxs qadri, erkak va ayolning teng huquqliligiga bo'lgan ishonchlarini o'z Nizomlarida tasdiqlaganlar. A'zo davlatlar kengroq erkinlik sharoitida ijtimoiy taraqqiyotga ko'maklashish, inson huquqlari va asosiy erkinliklarini yalpi hurmat qilish hamda unga rioya qilish majburiyatini o'z zimmalariga olganlar. Mazkur huquq va erkinliklarning mohiyatini umumiy tushunish ushbu majburiyatlarni to'liq bajarishda hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Shu maqsadda BMT Bosh Assambleyasi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini barcha xalqlar va davlatlar intilishi lozim bo'lgan vazifa sifatida e'lon qildi. Bundan asosiy muddao shuki, har bir inson va jamiyatning har bir tashkiloti ushbu Deklaratsiyani doimo yodda tutgan holda, ma'rifat va ta'lim yo'li bilan mazkur huquqlarning hurmat qilinishiga ko'maklashishi lozim. Milliy va xalqaro miqyosdagi taraqqiyparvar tadbirlar orqali deklaratsiya qoidalarining Tashkilotga a'zo davlatlar yurisdiksiyasidagi hududlarda samarali tan olinishi va bajarilishi ta'minlanishi zarur hisoblanadi. Bugungi kunda BMT doirasida inson huquqlarini himoya qilishning ko'p tarmoqlangan universal xalqaro mexanizmi ushbu oliy maqsadlarga xizmat qilib kelmoqda.

Iqtisodiy va ijtimoiy kengash (EKOSOS) inson huquqlari va asosiy erkinliklariga rioya etilishini hamda ularning hurmat qilinishini ta'minlab beruvchi asosiy bo'g'indir. Kengash inson huquqlarini rag'batlantirish maqsadida tavsiyalar beradi va o'ziga qarashli yordamchi organlar — qo'mitalar hamda komissiyalar tuzish vakolatiga ega.

Inson huquqlari bo'yicha kengash 2006-yil 5-martda BMT Bosh Assambleyasining 60/251-rezolyutsiyasi bilan tashkil etilgan. Kengash inson huquqlarining qo'pol va muntazam ravishda buzilishi holatlari bilan bog'liq voqealarni muhokama etib boradi. Mazkur rezolyutsiya asosida Kengash har

bir davlatning inson huquqlari sohasidagi majburiyatlari bajarilishini Universal davriy tahlil (UDT) mexanizmi orqali nazorat qiladi. Ushbu tahlil universal miqyosda barcha davlatlarga bir xil munosabatda bo'lishni ta'minlaydi; ya'ni barcha a'zo davlatlar inson huquqlarining barcha sohalarini bo'yicha o'z Milliy ma'ruzalarini har 4 yilda Kengashga taqdim etib boradilar.

Xalqaro universal tashkilot sifatidagi BMT faoliyati inson huquqlari va erkinliklarining xarakterini yalpi tushunishga, ularning milliy yurisdiksiyalarda (davlat organlarining qonuniy vakolati doirasida) samarali tan olinishiga va himoya qilinishiga xizmat qiladi.

Kengash hech qanday kamsitishlarsiz, adolat va tenglik tamoyillari asosida barcha uchun inson huquqlari hamda asosiy erkinliklarini yalpi hurmat qilish va himoya qilish ishiga ko'maklashadi. U inson huquqlarining buzilishi bilan bog'liq holatlarni ko'rib chiqadi va ular bo'yicha tegishli tavsiyalar ishlab chiqadi. Kengash doirasida dunyoning har qanday hududida va har qanday sharoitda sodir etilgan, tizimli hamda ishonchli ravishda tasdiqlangan inson huquqlari buzilishining qo'pol holatlarini o'rganish maqsadida maxsus shikoyatlarni ko'rib chiqish tartiboti o'rnatilgan.

BMTning inson huquqlari bo'yicha maxsus ma'ruzachilari mustaqil ekspertlar hisoblanib, ular Inson huquqlari bo'yicha kengash tomonidan muayyan mamlakatdagi vaziyatni yoki aniq bir mavzuni o'rganish hamda bu haqda hisobotlar taqdim etish uchun tayinlanadi. Bugungi kunda BMT tizimida inson huquqlarining turli sohalariga ixtisoslashgan 44 nafar maxsus ma'ruzachi faoliyat yuritmoqda.

Xotin-qizlarning ahvoli bo'yicha komissiya xotin-qizlarning siyosiy, iqtisodiy, fuqaroviy, ijtimoiy va ta'lim sohalaridagi huquqlarini rag'batlantirish bo'yicha Iqtisodiy va ijtimoiy kengashga tavsiyalar hamda ma'ruzalar tayyorlaydi. Komissiya erkaklar va xotin-qizlarning teng huquqliligi tamoyilini amalga oshirish maqsadida eng muhim muammolar yuzasidan chora-tadbirlar qabul qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi.

“BMT – ayollar” tuzilmasi gender tengligi hamda xotin-qizlarning huquqlari va iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish borasida faoliyat olib boruvchi asosiy organ hisoblanadi. Ushbu tuzilma butun jahonda xotin-qizlarning ehtiyojlarini qondirish maqsadida tashkil etilgan bo‘lib, a’zo davlatlarga gender tengligining xalqaro standartlariga erishishda yordam beradi. U xotin-qizlar huquqlariga oid qonunlar, siyosiy strategiyalar va dasturlarni ishlab chiqishda hukumatlar hamda fuqarolik jamiyati institutlari bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi.

Oliy komissar o‘z vazifasini bajarar ekan, Bosh Assambleya, Iqtisodiy va ijtimoiy kengash hamda Inson huquqlari bo‘yicha kengashning umumiy vakolatlari va qarorlari asosida ish olib boradi. U inson huquqlari sohasidagi har qanday muammoni ko‘rib chiqish va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan global faoliyatda faol ishtirok etadi. BMTning ixtisoslashgan muassasalari ham ushbu tizimning muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Jumladan, BMTning Bolalar fondi (YuNISEF) bolalarni himoya qilish va kamol toptirish to‘g‘risidagi umumjahon deklaratsiyasini amalga oshirishga qaratilgan harakatlar rejasiga amal qiladi. BMTning Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti (YuNESKO) esa madaniy hayotda ishtirok etish huquqini ta’minlash hamda savodsizlikka qarshi kurash dasturlarini izchil amalga oshirib kelmoqda.

Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) mehnat va hayot sharoitini yaxshilash, bandlik imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha xalqaro chora-tadbirlarni ishlab chiqadi. Tashkilotning konvensiya va tavsiyalari a’zo davlatlarga mo‘ljallangan bo‘lib, milliy qonunchilikni xalqaro mehnat standartlariga muvofiqlashtirishni ko‘zda tutadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti esa insonning sog‘liqqa bo‘lgan huquqini targ‘ib qilish va himoya qilishdagi asosiy ixtisoslashgan muassasadir.

BMTning institutsional tizimida inson huquqlari bo‘yicha konvensiyaviy (shartnomaviy) organlar alohida o‘rin tutadi. Ushbu qo‘mitalar muayyan xalqaro shartnomalar asosida tuzilgan bo‘lib, a’zo davlatlar tomonidan

shartnoma majburiyatlarining bajarilishini nazorat qiladi. O'zbekiston Respublikasi o'z xalqaro majburiyatlari yuzasidan quyidagi qo'mitalar bilan muntazam hamkorlik qilib keladi:

Bola huquqlari bo'yicha qo'mita "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya" asosida faoliyat yuritib, uning asosiy vazifasi a'zo davlatlarning qonunchilik, sud, ma'muriy va boshqa sohalarda ko'rayotgan choralari to'g'risidagi ma'ruzalarini ko'rib chiqishdan iboratdir. Barcha a'zo davlatlar mazkur qo'mitalarga inson huquqlari qay darajada ta'minlanayotgani haqida milliy ma'ruzalarni muntazam taqdim etishi shart hisoblanadi.

Inson huquqlarini himoya qilishning mintaqaviy mexanizmi doirasida Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YeXHT) xavfsizlik masalalari bilan bir qatorda, inson huquqlari muhofazasi borasida ham muhim ishlarni amalga oshirmoqda. Tashkilot BMT tomonidan qabul qilingan inson huquqlariga doir barcha hujjatlarni e'tirof etadi va ulardagi tamoyillarni hayotga tatbiq etishga intiladi. YeXHTning BMT bilan hamkorligi bu sohadagi ishlar ko'lamini yanada kengaytirmoqda.

YeXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi saylovlarda kuzatuvchilik qilish, milliy saylov organlarining shakllanishiga ko'maklashish hamda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarga texnik yordam ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Shuningdek, byuro turli mamlakatlarda nodavlat tashkilotlarning rivojlanishi va fuqarolik jamiyatining shakllanishiga yordam beradi. Nizolarning oldini olishda YeXHTning kam sonli millatlar bo'yicha Oliy komissari instituti ham muhim rol o'ynaydi. Oliy komissar nizolarni barvaqt tahlil qilish va bartaraf etish choralari ko'rib, tomonlarni maslahatlashuvlar orqali to'qnashuvlardan saqlanishga chaqiradi. YeXHT Parlament Assambleyasi esa har yili o'tkaziladigan sessiyalarida mintaqada xavfsizlik va hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan deklaratsiya hamda tavsiyalar tayyorlaydi.

Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) musulmon davlatlarining eng yirik xalqaro tuzilmasi bo'lib, uning inson huquqlariga ixtisoslashgan organi —

Inson huquqlari bo'yicha mustaqil doimiy komissiyasi 2011-yilda tashkil etilgan. Mazkur komissiya a'zo davlatlarning xotin-qizlar, yoshlar va ehtiyojmand qatlamlarning huquqlarini mustahkamlashga qaratilgan qonunchiligini takomillashtirish borasidagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi. Bunda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi huquqlarni ta'minlash, zo'ravonlik va kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish masalalari markaziy o'rin egallaydi.

Inson huquqlarini himoya qilishning milliy mexanizmi mustaqillik yillarida shakllangan davlat tashkilotlari tizimiga asoslanadi. Bu tizim an'anaviy sudlov va huquqni muhofaza qilish organlari bilan bir qatorda, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar va nodavlat tashkilotlaridan iborat bo'lgan nosudlov organlarini ham o'z ichiga oladi.

Inson huquqlarini O'zbekiston Respublikasining sud organlari orqali himoya qilish ushbu mexanizmning tarkibiy va hal qiluvchi qismidir. Sud buzilgan huquq va erkinliklarni tiklash tizimidagi eng muhim vosita hisoblanadi. Har bir shaxsning huquqlari sud tomonidan muhofaza etilishi hamda davlat organlari, mansabdor shaxslar va jamoat birlashmalarining noqonuniy harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi qat'iy kafolatlanadi. O'zbekistonda sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, shuningdek, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritishi belgilangan.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimi davlat hokimiyatining an'anaviy asosi sifatida inson huquqlarini himoya qilishda beqiyos ahamiyatga ega. Xususan, O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari ushbu tizimda markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Qonuniylik va huquqiy tartibotga rioya etilishi ustidan nazorat qiluvchi organ sifatida prokuratura nafaqat davlat hokimiyatini mustahkamlash, balki inson va fuqaroning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish bo'yicha muhim ijtimoiy vazifani ham bajaradi.

Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini davlat organlari mansabdor shaxslarining noqonuniy harakatlari yoki harakatsizligidan himoya qilish

O'zbekistonda huquqiy davlat barpo etish jarayonining eng muhim ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Bu mexanizm orqali jamiyatda qonun ustuvorligi va adolat tamoyillarini qaror toptirish ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasining ichki ishlar organlari huquqni muhofaza qilish idoralari tizimida muhim o'rin egallaydi. Ushbu idoralarning asosiy vazifalariga konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash, fuqarolar hamda yuridik shaxslarning mulkini, huquq va erkinliklarini turli jinoyat tajovuzlardan himoya qilish kiradi. Ichki ishlar organlari jinoyatchilikning oldini olish, sodir etilgan jinoyatlarni qisqa fursatda ochish va ularni tergov qilish, jinoyat sodir etish sabablarini aniqlab bartaraf etish bilan shug'ullanadi. Shuningdek, pasport tizimi faoliyatini ta'minlash, yo'l harakati xavfsizligini nazorat qilish, ma'muriy javobgarlik va jinoyat jazolarning ijrosini ta'minlash, voyaga yetmaganlar bilan ishlash hamda qurol-yarog' saqlash tartibini rasmiylashtirish kabi keng ko'lamli vazifalarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining adliya organlari inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash tizimida huquqni qo'llovchi va muhofaza qiluvchi muhim bo'g'in hisoblanadi. Adliya vazirligi tomonidan davlat va jamiyat hayotini, xususan, sud-huquq sohasini erkinlashtirish hamda inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar ijrosi izchil ta'minlanmoqda. Vazirlikning bevosita ishtiroki bilan tadbirkorlar va xususiy mulk egalari qonuniy manfaatlarini himoya qilishning samarali mexanizmlari yaratildi. Bugungi kunda huquqni qo'llash amaliyotini doimiy tahlil etib borish, monitoring qilish va qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha asosli takliflar ishlab chiqishning zamonaviy tizimi yo'lga qo'yilgan.

Inson huquqlarini himoya qilishda advokatura institutining roli beqiyosdir. Ushbu institut vakolatlarining kengayishi va faoliyatining rivojlanishi inson manfaatlarini hamda huquqlarini himoya qilishning nosudlov mexanizmlari yanada takomillashib borayotganidan dalolat beradi. Kuchli va mustaqil advokatura tizimi mamlakatda demokratik qadriyatlarini qaror

toptirish hamda kuchli fuqarolik jamiyati poydevorini mustahkamlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Advokatlar fuqarolarga malakali yuridik yordam ko'rsatish orqali qonun ustuvorligini ta'minlashda faol ishtirok etadilar.

Mamlakatimizda inson huquqlarini ta'minlash tizimida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasi davlat organlari bilan aholi o'rtasida ochiq muloqotni yo'lga qo'yishning samarali mexanizmiga aylandi. Ushbu tizim davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan fuqarolarning murojaatlarini bevosita ko'rib chiqish orqali ularning buzilgan huquq va erkinliklarini tiklashda muhim rol o'ynamoqda.

Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining qabulxonalari tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilishda alohida o'rin egallaydi. Tadbirkorlik sub'ektlari, shu jumladan, xorijiy investorlarning qonuniy manfaatlariga rioya qilinishini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan mazkur qabulxonalar tadbirkorlik rivojiga to'sqinlik qilayotgan byurokratik g'ovlarni bartaraf etishga xizmat qilmoqda. Xususan, yer uchastkalari va binolar ajratish, bank kreditlari berish hamda ruxsat beruvchi hujjatlarni olishdagi turli to'siqlar ushbu tizim orqali tezkor hal etilmoqda.

Inson huquqlarini himoya qilishning milliy mexanizmida inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar alohida tizimni tashkil etadi. Bu tizim tarkibiga quyidagi institutlar kiradi:

- Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman);
- Prezident huzuridagi Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakil (biznes-ombudsman);
- Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi.

Inson huquqlari bo'yicha nosudlov organlar tizimida fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy qismi bo'lmish nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) ham katta rol o'ynaydi. Ular jamiyatdagi ijtimoiy masalalarni ko'tarish va inson manfaatlarini ilgari surishda faollik ko'rsatmoqda. Shuningdek, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda ommaviy axborot vositalarining

oʻmi va roli keyingi paytlarda alohida ahamiyat kasb etib, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini oʻrnatishda qudratli vositaga aylandi. Oʻzbekiston Respublikasining Inson huquqlari boʻyicha milliy strategiyasi soʻnggi yillarda inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlashda muhim poydevor boʻlib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz inson huquqlari boʻyicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 6 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokoliga qoʻshilgan. Ushbu majburiyatlar doirasida BMTning Inson huquqlari boʻyicha kengashi va shartnomaviy qoʻmitalariga muntazam ravishda milliy maʼruzalar taqdim etib kelinmoqda. Inson huquqlari sohasidagi uzoq muddatli strategiyaning qabul qilinishi davlat siyosatining samarali amalga oshirilishiga, jamiyatda inson huquqlariga nisbatan hurmat munosabati shakllanishiga va mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi mavqeyi yaxshilanishiga xizmat qiladi. Ushbu strategiya 2017–2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi hamda Prezidentning Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarni hayotga tatbiq etish maqsadida ishlab chiqilgan. Strategiya doirasida masʼul davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining asosiy yoʻnalishlari belgilab berildi. Bu yoʻnalishlarning eng muhimi xalqaro tashkilotlarning tavsiyalarini amalga oshirishga qaratilgan milliy harakat rejalari, yaʼni “yoʻl xaritalari”ning soʻzsiz bajarilishini taʼminlashdir. Shu bilan birga, qonunchilik va huquqni qoʻllash amaliyotini takomillashtirish orqali BMT organlari tavsiyalarini bajarishga toʻsqinlik qilayotgan sabab va sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Oʻzbekistonning inson huquqlari boʻyicha xalqaro majburiyatlarini bajarishda davlat organlari, Jamoatchilik palatasi va fuqarolik jamiyati institutlari oʻrtasidagi samarali hamkorlikni yoʻlga qoʻyish strategiyaning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunday yondashuv inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini xalqaro standartlar bilan uygʻunlashtirish va

mamlakatning demokratik yangilanish yo‘lidagi obro‘cini yanada mustahkamlashga imkon beradi.

Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini hayotga tatbiq etish maqsadida maxsus “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi. Ushbu hujjat xalqaro tashkilotlar, xususan, BMTning ustav organlari va shartnomaviy qo‘mitalari tavsiyalarini inobatga olgan holda, ilg‘or xorijiy tajriba hamda keng jamoatchilik muhokamasi asosida tayyorlangan. Shuningdek, BMT xabarnomalari va qarorlarini ko‘rib chiqishda davlat organlarining o‘zaro hamkorlik qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi.

Mazkur jarayonda Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz monitoring olib boruvchi asosiy organ etib belgilandi. Markaz strategiya va “Yo‘l xaritasi” ijrosi yuzasidan muntazam nazorat o‘rnatib, chora-tadbirlarning sifatli bajarilishi bo‘yicha vazirlik va idoralarga tavsiyalar kiritadi. Erishilgan natijalar haqidagi batafsil ma‘lumotlar doimiy ravishda Markaz veb-saytida e‘lon qilinadi hamda har chorakda Prezident Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga umumlashtirilgan hisobotlar taqdim etiladi.

Sud-huquq tizimini modernizatsiyalash doirasida adolat va shaffoflikni ta‘minlovchi “Elektron odil sudlov” tizimi joriy etildi. Aholining huquqiy himoyasini kuchaytirish maqsadida bepul yuridik yordam ko‘rsatish ko‘lami kengaytirildi. Xususan, Advice.uz huquqiy axborot tizimi imkoniyatlari oshirildi hamda fuqarolarga bepul huquqiy maslahat beruvchi “Madad” nodavlat notijorat tashkiloti faoliyati davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Qonunchilikni insonparvarlashtirish yo‘nalishida ham muhim islohotlar amalga oshirildi. Ma‘muriy, jinoiy va jinoyat-ijroiya qonunchiligi takomillashtirilib, mahkumlarni afv etish hamda jamoat birlashmalari kafilligi ostida jazodan ozod qilishning yangi tizimi yo‘lga qo‘yildi. Ayniqsa, Jasliq qo‘rg‘onidagi ixtisoslashtirilgan jazoni ijro etish koloniyasining yopilishi xalqaro hamjamiyat tomonidan yuksak e‘tirof etilgan insonparvarlik namunasi

bo'ldi. Ko'rilgan tizimli choralar natijasida ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanayotgan shaxslar soni 2,5 baravarga kamayishiga erishildi.

Fuqarolarning siyosiy huquqlari, fikr, so'z va vijdon erkinligini ta'minlashda davlat boshqaruvidagi tub islohotlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmoqda. Xususan, parlament va jamoatchilik nazoratining huquqiy mexanizmlari mustahkamlanib, Vazirlar Mahkamasining Oliy Majlis oldidagi mas'uliyati kuchaytirildi. Davlat boshqaruvida shaffoflikni ta'minlash maqsadida "Elektron parlament" va "Elektron hukumat" tizimlari rivojlantirilmogda. Bu esa o'z navbatida davlat xizmatlarining sifati, tezkorligi va barcha fuqarolar uchun ochiqligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

"Xalq qonunlarning tom ma'noda yagona manbai va muallifi hisoblanadi" degan ezgu tamoyil asosida barcha muhim davlat qarorlari bevosita xalq bilan muloqot qilish va jamoatchilik fikrini o'rganish orqali qabul qilinmogda. Oliy Majlis palatalari tomonidan inson huquqlarining holati yuzasidan muntazam ravishda ma'ruzalar eshitish hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik bo'yicha "yo'l xaritalari"ni tasdiqlash amaliyoti yo'lga qo'yildi. Bu yangi tizim qonun ijodkorligi jarayonida inson manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish imkonini bermoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda inson huquqlariga rioya qilish va ularni himoya qilishning milliy mexanizmlarini yanada takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib qolmogda. Tizimli ravishda amalga oshirilayotgan ushbu chora-tadbirlar fuqarolarning huquqiy axborotdan erkin foydalanishini ta'minlash bilan bir qatorda, mamlakatning demokratik yangilanish yo'lidagi barqaror rivojlanishiga xizmat qilmogda.

O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilish tizimi tubdan takomillashtirilib, xalqaro standartlar asosida yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) va Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz faoliyati kuchaytirildi. Shuningdek, Bola huquqlari bo'yicha vakil hamda Tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish

bo'yicha vakil (biznes-ombudsmen) lavozimlarining joriy etilishi maxsus guruhlar manfaatlarini himoya qilishning samarali mexanizmiga aylandi.

Mamlakatda fuqarolarning ijtimoiy va madaniy huquqlarini ta'minlashning noyob tizimi yaratildi. "Obod qishloq", "Obod mahalla", "Yoshlar bizning - kelajagimiz" va "Besh tashabbus" kabi 20 dan ortiq davlat dasturlari aholi farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda. BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida inson taraqqiyoti indeksini yaxshilash, o'rtacha umr ko'rish davomiyligini oshirish va ijtimoiy sohaga innovatsiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim sohasidagi islohotlar natijasida 11 yillik maktab tizimi tiklandi, maktabgacha ta'lim qamrovi 74,5 foizga yetkazilmoqda hamda oliy o'quv yurtlari soni sezilarli darajada ortdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi tub o'zgarishlar ijobiy demografik natijalarni berdi. O'rtacha umr ko'rish darajasi 1990-yildagi 67,2 yoshdan 2020-yilda 74,6 yoshga ko'tarildi. Onalar o'limi 1,5 baravarga, bolalar o'limi esa 4 baravarga kamaydi. Shu bilan birga, O'zbekiston iqlim o'zgarishlari bo'yicha Parij bitimiga qo'shilib, ekologik huquqlarni ta'minlash borasida ham faol qadamlar tashlamoqda.

Gender tenglikni ta'minlash va oila institutini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. 2019-yilda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari, shuningdek, xotin-qizlarni zaryiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida muhim qonunlar qabul qilindi. Respublika bo'ylab 197 ta reabilitatsiya markazi va 200 dan ortiq yoshlarni oilaga tayyorlash innovatsion maktablari tashkil etildi. Nikoh qurish yoshi barcha uchun 18 yosh etib tenglashtirildi.

Demokratik saylov tizimi va fuqarolikni olish masalalarida ham tarixiy burilishlar yuz berdi. Yangi Saylov kodeksi asosida o'tkazilgan saylovlarda xalqaro kuzatuvchilar to'laqonli ishtirok etdi. Ko'p yillar davomida fuqaroligi bo'lmagan 50 mingga yaqin shaxsga O'zbekiston fuqaroligi berildi. "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" tamoyili asosida amalga oshirilayotgan bu

islohotlar xalqaro huquq subyekti sifatida O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi nufuzini yanada mustahkamladi.

O'zbekiston xalqaro maydondagi nufuzini oshirish va iqtisodiy, siyosiy-huquqiy reytinglardagi o'rnini yaxshilash maqsadida xorijiy reyting agentliklari bilan tizimli hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Shu maqsadda Ustuvor xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashni muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi tashkil etildi. Ushbu sa'y-harakatlar mamlakatimizning global hamjamiyatdagi ishonchli hamkor sifatidagi mavqeyini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Xalqaro tashabbuslar borasida ham sezilarli natijalarga erishildi. BMT Bosh Assambleyasining 73-sessiyasida O'zbekiston tashabbusi bilan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" to'g'risidagi rezolyutsiya qabul qilindi. Shuningdek, davlatimiz BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish g'oyasini ilgari surdi. BMTning ustav organlari, shartnomaviy qo'mitalari va maxsus ma'ruzachilar bilan hamkorlik izchil rivojlanmoqda. Xususan, Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar hamda din va e'tiqod erkinligi, sudyalarning va advokatlar mustaqilligi bo'yicha maxsus ma'ruzachilarning tavsiyalari hayotga tatbiq etilmoqda.

Mehnat huquqlari sohasidagi islohotlar, ayniqsa, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) konvensiyalari doirasidagi majburiyatlarning bajarilishi xalqaro hamjamiyat tomonidan ijobiy baholandi. Paxta yig'im-terimi kompaniyasida majburiy mehnatga barham berish bo'yicha ko'rilgan choralar va 2017–2020-yillarda munosib mehnat bo'yicha dasturning amalga oshirilishi bunga yorqin misol bo'la oladi.

Savol va topshiriqlar

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining ahamiyati hamda O'zbekiston Konstitutsiyasida qanday aks etgan?
2. Inson huquqlarining "tabiiy va daxlsiz" ekanligi nimani anglatadi?
3. Xalqaro qarashlarga ko'ra, inson huquqlari davlat tomonidan beriladimi yoki inson tug'ilganidan unga tegishli bo'ladimi?
4. Xalqaro huquqning ustuvorligi prinsipi qanday ishlaydi?
5. Inson huquqlarini ta'minlashda davlatning asosiy majburiyatlari nimalardan iborat?
6. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro nazorat mexanizmlari qanday?
- 7 "Inson huquqlari — oliy qadriyat" tamoyilining amaliy ifodasi nima?



SON HUQUQ VA ERKINLIKLANING TA'MINLANISHI

INSON HUUQLARI HAQAAGI XALQARO QARASHLAR



INSON HUQUQ VA ERKINLIKLANING TA'MINLANISHI

INSON HUUQLARI HAQAAGI XALQARO QARASHLAR

III-BO'LIM JAMIYAT VA SHAXS

7- MAVZU. JAMIYATNING ASOSIY IQTISODIY NEGIZLARI

REJA:

1. Jamiyat iqtisodiy tizimining mohiyati va vazifalari
2. Mulkchilik shakllari va ularning iqtisodiy ahamiyati
3. Bozor iqtisodiyoti va uning asosiy tamoyillari
4. Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli

Insoniyat hayotining moddiy asosi ishlab chiqarish jarayoni bo'lib, u cheklangan resurslardan unumli foydalanishni taqozo etadi. Ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlarini tartibga soluvchi yaxlit mexanizm **iqtisodiy tizim** deb ataladi. Ushbu tizim har qanday jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasini va taraqqiyot yo'nalishini belgilab beradi.

1. Iqtisodiy tizimning mohiyati va tuzilishi

Iqtisodiy tizim — bu resurslarni taqsimlash va iqtisodiy aloqalarni tartibga soluvchi o'zaro bog'liq elementlar majmuidir. U mohiyatan jamiyatning moddiy va nomoddiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Tizimning asosiy tarkibiy elementlari:

1.Mulkchilik shakllari: Tizimning "yuragi" bo'lib, resurslar va ishlab chiqarish vositalari ustidan egalik huquqini belgilaydi.

2.Xo'jalik yuritish mexanizmi: Talab va taklif, narx shakllanishi, raqobat hamda davlatning iqtisodiyotni tartibga solish usullari.

3.Iqtisodiy subyektlar: Davlat, tadbirkorlik tuzilmalari va uy xo'jaliklari (fuqarolar).

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 65-moddasida belgilanganidek, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat tashkilotlarining ishtiroki iqtisodiy tizimning jamiyat bilan hamohangligini ta'minlaydi.

2. Iqtisodiy tizimning strategik vazifalari

Har qanday iqtisodiy tizim quyidagi muhim vazifalarni bajarishi shart:

1.Samaradorlik: Cheklangan resurslardan maksimal darajada foyda olish va isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik.

2.Ijtimoiy adolat: Milliy daromadni jamiyat a‘zolari o‘rtasida adolatli taqsimlash. Konstitutsiyaning 19-moddasiga binoan, inson huquq va erkinliklari iqtisodiy faoliyatning mazmunini belgilashi shart.

1.Barqaror o‘sish: Yalpi ichki mahsulotning (YIM) muttasil o‘sishi orqali xalq farovonligini yuksaltirish.

2.Innovatsiyalar: Ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiya va ilmiy yutuqlarni izchil joriy etish.

3. Yangi Konstitutsiya – Iqtisodiy erkinliklar kafolati

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakat iqtisodiy tizimining mohiyatini tubdan yangiladi. Unda **xususiy mulk daxlsizligi** va **iqtisodiy faoliyat erkinligi** eng yuqori huquqiy darajaga ko‘tarildi.

Islahotlarning bosh maqsadi — faqat foyda olish emas, balki "**Inson qadri uchun**" tamoyili asosida kuchli ijtimoiy himoyaga ega bo‘lgan bozor iqtisodiyotini barpo etishdir. Bu tizimda tadbirkorlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish va investitsiyaviy muhitni jozibador qilish davlatning ustuvor vazifasi etib belgilangan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda inson huquqlari va tadbirkorlik erkinligini ustuvor qadriyat darajasiga ko‘tardi. Konstitutsiyaning 67-moddasiga binoan, davlat qulay investitsiya va ishbilarmonlik muhitini ta‘minlash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi. Tadbirkorlar qonun bilan taqiqlanmagan har qanday faoliyat turini mustaqil tanlash va amalga oshirish huquqiga egadirlar. Iqtisodiyotning asosi sifatida belgilangan xususiy mulk boshqa mulk shakllari bilan bir qatorda davlatning qat‘iy himoyasidadir. Shuningdek, bozor munosabatlarining sog‘lom rivojlanishi uchun iqtisodiy faoliyatda insofsiz raqobatga va monopollashtirishga yo‘l qo‘yilmasligi qat‘iy belgilab qo‘yildi.

Iqtisodiy tizim jamiyat rivojlanishining poydevori sifatida bir qator strategik yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Birinchi navbatda, kuchli iqtisodiy tizim ijtimoiy barqarorlikning kafolatidir. Konstitutsiyaning 1-moddasida O'zbekiston "ijtimoiy davlat" deb e'lon qilinishi iqtisodiy taraqqiyotning pirovard maqsadi insonlarga munosib hayot sharoitlarini yaratish ekanligini anglatadi. Samarali iqtisodiyot yangi ish o'rinlarini yaratish orqali kambag'allikni qisqartirish va bandlikni ta'minlash imkonini beradi. Konstitutsiyaning 42-moddasi bilan kafolatlangan munosib mehnat qilish va kasbni erkin tanlash huquqi aynan mana shu iqtisodiy o'sishning bevosita ijtimoiy natijasidir. Jamiyatning iqtisodiy negizini mulk tashkil etar ekan, ijtimoiy-iqtisodiy tuzilish ham bevosita mulkning kimga tegishli ekanligi bilan belgilanadi. Mulkiy munosabatlarni tartibga solmasdan turib xalq farovonligini ta'minlashning imkoni yo'q. So'nggi yillarda mulkiy huquqlarni noqonuniy tajovuzlardan himoya qilish muammosi g'oyat dolzarb ahamiyat kasb etdi va bu borada Prezident hamda hukumatning 300 dan ortiq hujjatlari qabul qilindi. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash bosh vazifa etib belgilandi. Unda xususiy mulk daxlsizligini ishonchli himoya qilish, davlat organlarining mulkiy munosabatlarga noqonuniy aralashuvini cheklash va yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni so'zsiz ta'minlash kabi ustuvor maqsadlar ko'zda tutilgan. Ayniqsa, davlat idorasining rasmiy ma'lumotiga ishonib mol-mulk sotib olgan shaxsning ("halol sotib oluvchi") huquqini himoya qilish tizimining joriy etilishi bu boradagi muhim qadam bo'ldi.

Shunga qaramay, xususiy mulkni himoya qilish sohasida hali ham hal etilishi lozim bo'lgan muammolar mavjud. Mutaxassislarining fikricha, ayrim mansabdor shaxslarning huquqiy ongi va madaniyati yetarli emasligi, byurokratik to'siqlar va vakolatdan tashqari harakatlar fuqarolarning haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda. Afsuski, amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga qaramasdan, o'zboshimchalik bilan xususiy mulk huquqini poymol qilish, adolatsiz vajlar bilan ko'chmas mulkni buzish holatlari hali-

hanuz kuzatilmoqda. Bu esa mulk huquqini himoya qilish mexanizmlarini nafaqat qog'ozda, balki amaliyotda ham qat'iy nazorat qilish va mansabdor shaxslarning mas'uliyatini yanada oshirishni taqozo etmoqda.

Xususiy mulkni himoya qilish borasidagi muammoli vaziyatlar va huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish, bu yo'nalishda qonunchilik hamda huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor vazifasiga aylandi. Shu maqsadda fuqarolarni mol-mulkidan sud qarorisiz mahrum etmaslik va faqat jamoat ehtiyojlari uchun zaruriy hollarda, mulk qiymatini to'liq qoplash sharti bilan yerlarni olish tartibini huquqiy jihatdan mustahkamlash masalasi ilgari surildi. Xususan, Konstitutsiyaning 53(1)-moddasiga: «Hech bir shaxs o'z mol-mulkidan sudning qarorisiz mahrum etilishi mumkin emas. Mulknı jamoat ehtiyojlari uchun majburiy ravishda boshqa shaxsga o'tkazish qonunda nazarda tutilgan alohida hollarda hamda tartibda uning o'rnini oldindan va teng qiymatda qoplash sharti bilan amalga oshirilishi mumkin», degan o'ta muhim normaning kiritilishi taklif etildi.

Ushbu konstitutsiyaviy normaning belgilanishi kelajakda aholi farovonligini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va mulkchilik munosabatlarini huquqiy kafolatlashda katta burilish yasaydi. Konstitutsiyaviy islohotlar jarayonida uy-joy daxlsizligi va mulkiy huquqlarning oliy qonun darajasida mustahkamlanishi har bir fuqaro uchun ijtimoiy-huquqiy himoya qalqonidir. Bu boradagi sa'y-harakatlarning mantiqiy davomi sifatida 2022-yil 24-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo'l qo'ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi.

Mazkur farmon xususiy mulkning daxlsizligini ta'minlashda yangi bosqichni boshlab berdi. Unda mulkiy munosabatlarga davlat organlarining asossiz aralashuvini cheklash, mulkdorlarning huquqlarini sud orqali himoya qilish mexanizmlarini yanada kuchaytirish ko'zda tutilgan. Bunday huquqiy asoslarning yaratilishi nafaqat ichki barqarorlikni, balki xalqaro investorlarning

mamlakat iqtisodiyotiga bo'lgan ishonchini ham oshiradi. Zero, mulk daxlsizligi ta'minlangan jamiyatda tadbirkorlik tashabbuslari yuksaladi, fuqarolarning ertangi kunga ichonch xosil bo'ladi.

Mazkur Farmon bilan uy va turar joyga bo'lgan huquqlarni himoya qilishda inson manfaatlarini ustuvorligi ta'minlandi. Xususan, yerga bo'lgan huquqning vujudga kelishiga asos bo'lgan hujjatlarni ma'muriy tartibda bekor qilish amaliyotiga chek qo'yildi; endilikda bunday hujjatlar faqat sud tartibida bekor qilinishi mumkin. Shuningdek, yerdan ixtiyoriy voz kechishni hokimlik qarori bilan rasmiylashtirish yoki yuridik shaxs tugatilishi bilan uning yerga bo'lgan huquqini avtomatik bekor qilish kabi asossiz cheklovlar olib tashlandi. Turar joy daxlsizligi borasida ham muhim o'zgarishlar kiritildi: mulkdor bilan qarindoshlik aloqasi bo'lmagan shaxslarni doimiy ro'yxatdan chiqarishda ularning roziligini olish talabi hamda "insofli egallovchi" deb topilgan shaxsdan mulkni 3 yildan so'ng qaytarib olish tartibi bekor qilindi.

Mulk daxlsizligi masalasi xalqaro huquqiy tajribada ham jamiyatning eng muqaddas ustunlaridan biri sifatida aytiladi.

- **Fransiya (1789-yil):** Inson va fuqaroning huquq va erkinliklari deklaratsiyasida mulk insonning tabiiy, ajralmas va muqaddas huquqi deb e'lon qilingan. Unda har qanday siyosiy birlashmaning maqsadi erkinlik, mulk va xavfsizlikni ta'minlash kerakligi aytilgan.
- **Germaniya:** Konstitutsiyaning 14-moddasi bilan mulk va meros huquqi kafolatlanib, ularning chegaralari faqat qonun bilan belgilanishi qayd etilgan.
- **Daniya:** Asosiy qonunning 73-moddasi xususiy mulk daxlsizligini va mulkdor o'z mulkidan voz kechishga majburlanishi mumkin emasligini kafolatlaydi. Bu xalqaro andozalar O'zbekiston qonunchiligiga ham tatbiq etilib, xususiy mulkni davlat va jamiyat tomonidan himoya qilinadigan daxlsiz qadriyat ekanligini isbotladi.

Xalqaro tajribada xususiy mulk daxlsizligi huquqiy davlatning ajralmas ustuni hisoblanadi. Masalan, Indoneziya konstitutsiyasida har bir shaxsning xususiy mulkka egalik huquqi va bu mulkning hech bir tomon tarafidan nohaq

tortib olinishi mumkin emasligi mustahkamlangan bo'lsa, Gruziya asosiy qonunida xususiy mulkka bo'lgan umumiy huquqni bekor qilish qat'iy taqiqlangan. Xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, uni turli tajovuzlardan himoya qilish hamda mulkni saqlash va ko'paytirish uchun zarur sharoitlarni yaratish huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir. Mulkdorlarning o'z mol-mulkiga mustaqil egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish huquqlari kafolatlanishi mamlakat iqtisodiyotini jadal rivojlantirish hamda davlat organlari bilan munosabatlarda xususiy sektorning huquqiy himoyasini ta'minlashda kuchli turtki bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotining mohiyati ham aynan mana shu mulkdorlik va erkinlik tamoyillariga tayanadi. Bozor iqtisodiyoti — bu ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlari asosan bozor qonuniyatlari, ya'ni talab va taklif asosida tartibga solinadigan iqtisodiy tizimdir. Ushbu tizimda davlatning iqtisodiyotga aralashuvi sezilarli darajada cheklangan bo'lib, asosiy iqtisodiy qarorlarni mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektlar — tadbirkorlar va iste'molchilar qabul qiladi. Bozor iqtisodiyotining strategik maqsadi jamiyatdagi cheklangan resurslardan unumli foydalangan holda, insonlarning cheksiz ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish va umumiy farovonlikka erishishdan iboratdir. Bozor iqtisodiyoti tizimining samarali ishlashi va jamiyat farovonligini ta'minlashi bir qator fundamental tamoyillarga tayanadi. Bu tamoyillar iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib, taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib xizmat qiladi.

Mulkchilikning xilma-xilligi va xususiy mulk ustuvorligi bozor iqtisodiyotining asosiy poydevori hisoblanadi. Inson o'z mulkiga ega bo'lgan taqdirdagina uni ko'paytirish, asrash va undan samarali foydalanishga intiladi. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida ham xususiy mulkning daxlsizligi va u boshqa mulk shakllari bilan bir qatorda davlat himoyasida ekanligi qat'iy aytib o'tilgan.

Erkin tadbirkorlik va xo'jalik yuritish erkinligi har bir shaxsga qonun doirasida o'zi xohlagan faoliyat turi bilan shug'ullanish imkonini beradi.

Tadbirkor nima ishlab chiqarish, mahsulotni qancha miqdorda va kimga sotish masalalarini mutlaqo mustaqil hal qiladi. Bu erkinlik iqtisodiyotda tashabbuskorlikni yuqori baxolangan.

Narxlarning erkin shakllanishi mexanizmi bozor iqtisodiyotining o'z-o'zini tartibga solish qobiliyatini namoyon etadi. Bozor tizimida narxlar davlat tomonidan ma'muriy buyruqbozlik yo'li bilan belgilanmaydi, balki talab va taklifning o'zaro muvozanatlashgan nuqtasida qaror topadi. Talabning oshishi narxning ko'tarilishiga, taklifning ko'payishi esa uning pasayishi yuzaga kelgan.

Raqobat muhiti bozorning eng muhim harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, u ishlab chiqaruvchilarni doimiy ravishda mahsulot sifatini yaxshilashga va tannarxni pasaytirishga undaydi. Sog'lom raqobat mavjud bo'lgan joyda innovatsiyalar rivojlanadi va iste'molchilarning tanlash imkoniyati kengayadi.

Davlatning iqtisodiyotga cheklangan aralashuvi prinsipi zamonaviy iqtisodiy modelning muhim belgisidir. Davlat bevosita ishlab chiqarish jarayonlariga aralashmasdan, faqat umumiy "o'yin qoidalarini", ya'ni huquqiy bazani yaratadi, soliqlarni yig'adi va jamiyatning zaif qatlamlarini ijtimoiy himoya qiladi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning IX bobi ("Iqtisodiy asoslar") davlatning iqtisodiyotdagi rolini "boshqaruvchi"dan "tizim yaratuvchi va kafolatlovchi"ga o'zgartirdi. Endilikda davlatning asosiy vazifasi bozor mexanizmlarining to'sqinliksiz ishlashi uchun sharoit yaratish, adolatli raqobatni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini so'zsiz ta'minlashdan iboratdir.

II. Iqtisodiyotning asosiy tamoyillari va davlat majburiyatlari.

1. Mulkchilikning ko'p shaklliligi. O'zbekiston iqtisodiyoti xilma-xil shakllardagi mulkdorlikka asoslanadi va bu tizimning barqarorligi Konstitutsiyaning 65-moddasi bilan kafolatlanadi. Davlat xususiy mulkning boshqa barcha mulk shakllari bilan huquqiy jihatdan tengligini ta'minlaydi va uning daxlsizligini qat'iy himoya qiladi. Mulkdor o'z mulkidan qonun

doirasida foydalanishda mutlaqo erkindir va hech kim sud qarorisiz, qonunda nazarda tutilmagan tartibda o'z mulkidan mahrum etilishi mumkin emas. Bozor munosabatlarini rivojlantirish maqsadida 67-modda orqali davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini yaratish majburiyatini olgan. Tadbirkorlar o'z faoliyati yo'nalishlarini mustaqil tanlash huquqiga ega bo'lib, mamlakat hududida iqtisodiy makon birligi ta'minlanadi. Bu tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliya vositalarining to'sqinliksiz harakatlanishini anglatadi. Shu bilan birga, iqtisodiy faoliyatda monopoliyaga va insofsiz raqobatga yo'l qo'yilmaydi. Davlat bozorda halol raqobat muhitini shakllantirish orqali iste'molchilarni narxlarning sun'iy oshishidan hamda sifatsiz mahsulotlardan himoya qilishning konstitutsiyaviy mexanizmini amalga oshiradi. O'zbekistonning "Ijtimoiy davlat" deb e'lon qilinishi iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi inson manfaatlarini ekanini ko'rsatadi. Endilikda bandlikni ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish shunchaki vaqtinchalik dastur emas, balki davlatning konstitutsiyaviy majburiyati hisoblanadi. Iqtisodiyotdan tushgan daromadlar pensiya, nafaqa va ijtimoiy yordamlarni inflyatsiya darajasidan kam bo'lmagan miqdorda muntazam oshirib borishga yo'naltiriladi. Davlat tadbirkorlik subyektlari uchun nafaqat tartibga soluvchi, balki qo'llab-quvvatlovchi va himoya qiluvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Tadbirkorlarga qonun bilan taqiqlanmagan har qanday harakatni amalga oshirish erkinligi berilgan. Eng muhimi, davlat organlari bilan yuzaga keladigan munosabatlarda qonunchilikdagi har qanday noaniqlik va ziddiyatlar tadbirkor yoki fuqaro foydasiga talqin qilinishi tamoyili qat'iy belgilab qo'yilgan. Bu esa iqtisodiy subyektlarning davlat bilan teng huquqli muloqot qilishini hamda ularning qonuniy manfaatlarini asossiz aralashuvlardan himoya qilishni ta'minlaydi. O'zbekiston iqtisodiy tizimida investitsiya muhiti va ekologik mas'uliyatning uyg'unligi barqaror taraqqiyotning garovidir. Davlat nafaqat qulay ishbilarmonlik muhitini yaratadi, balki iqtisodiy faoliyatning tabiatga zarar yetkazmasligini ham nazorat qiladi. Konstitutsiyaning 68-moddasiga binoan, yer, suv va boshqa

tabiiy boyliklar umummilliy boylik hisoblanib, ulardan oqilona foydalanish davlat himoyasidadir. Iqtisodiy loyihalar ekologik xavfsizlik talablariga javob berishi shart, ayniqsa Orolbo‘yi mintaqasini tiklash davlatning maxsus konstitutsiyaviy majburiyati hisoblanadi. Davlatning iqtisodiyotdagi eng muhim dastaklaridan biri bu budjet va soliq siyosatidir. Soliq tizimida adolatlilik prinsipi ustuvor bo‘lib, Konstitutsiyaning 63-moddasida belgilanganidek, soliq va yig‘imlar fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to‘sqinlik qilmasligi lozim. Har qanday yangi soliq yoki majburiy to‘lov faqat qonun asosida joriy etiladi, bu esa "qonunsiz soliq yo‘q" tamoyilining amaldagi ifodasidir. Shuningdek, budjet jarayonining ochiqligi va shaffofligi ta‘minlanib, bu borada Oliy Majlis palatalarining nazorat funksiyasi tubdan oshirilgan. Tadbirkorlik huquqlari soliq tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir. Konstitutsiyaning 67-moddasida davlat tomonidan qulay investitsiya muhitining kafolatlanishi soliq yukining barqarorligini va tadbirkorlarning qonuniy manfaatlarini asossiz moliyaviy talablardan himoya qilishni anglatadi. Bu mexanizmlar iqtisodiy subyektlarga uzoq muddatli rejalarni ishonch bilan tuzish imkonini beradi. Iqtisodiy tizim shunchaki raqamlar va iqtisodiy ko‘rsatkichlar yig‘indisi emas, balki inson huquqlari va erkinliklarini amalda ro‘yobga chiqaruvchi jonli mexanizmdir. O‘zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasi erkin bozor iqtisodiyoti uchun mustahkam huquqiy "qalqon" vazifasini o‘taydi. Xususiy mulkning daxlsizligi, tadbirkorlikka keng yo‘l ochilishi hamda davlatning ijtimoiy va ekologik mas‘uliyati jamiyatimizning uzoq muddatli, barqaror va insonparvar taraqqiyotini ta‘minlovchi asosiy ustunlardir

Savol va topiriqlar

1. Mulkchilikning qanday shakllari haqida tushuncha bering
2. Xususiy mulk daxlsizligi qanday xollarda qo'llaniladi
3. Iqtisodiy makon yagonaligi deganda nima tushuniladi?
4. Bozor iqtisodiyotida davlatning o'rni qanday?
5. Yer va tabiiy boyliklar kimning mulki?
6. Iste'molchilar huquqlari nega iqtisodiy negiz hisoblanadi

FOR AUTHOR USE ONLY

8- MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING FUQAROLIK JAMIYATI SARI HARAKATI

REJA:

1. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya — fuqarolik jamiyatining huquqiy kafolati
2. Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) faoliyatini erkinlashtirish
3. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi
4. Jamoatchilik nazorati va davlat boshqaruvida ochiqlik.

O‘zbekistonning fuqarolik jamiyati sari bosib o‘tayotgan yo‘li shunchaki siyosiy jarayon emas, balki jamiyatning har bir a‘zosi o‘z haq-huquqini anglash va davlat boshqaruvida ishtirok etish sari qo‘yilgan katta qadamdir. Fuqarolik jamiyati qonun ustuvorligi asosida shakllangan, inson huquqlari va erkinliklarini oliy qadriyat deb biladigan hamda davlatdan mustaqil ravishda faoliyat yurituvchi institutlar tizimini ifodalaydi. Ushbu tizimning poydevori o‘zbek xalqining azaliy qadriyati bo‘lmish mahalla tizimi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u o‘z-o‘zini boshqarishning noyob instituti shakllantirilgan. So‘nggi yillarda "Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyili yangi bosqichga ko‘tarildi. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi va bu borada 2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi hamda nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimi yo‘lga qo‘yildi. Hozirgi kunda o‘n mingga yaqin nodavlat notijorat tashkilotlari ijtimoiy muammolarni hal etish, davlat dasturlari ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish va aholining zaif qatlamlarini himoya qilishda faol ishtirok etmoqda. Davlat ushbu tashkilotlarga ijtimoiy buyurtmalar va grantlar ajratish orqali ularning iqtisodiy barqarorligini ta‘minlab kelmoqda.

Shuningdek, erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari jamiyatning "ko'zgusi" sifatida korrupsiya holatlarini yoritish va mansabdor shaxslarning hisobdorligini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. Siyosiy partiyalar va saylov tizimi orqali fuqarolarning siyosiy irodasi ifoda etilib, fikrlar xilma-xilligi sog'lom muloqot muhitini yaratmoqda. Mahalla instituti doirasida joriy etilgan "Mahalla yettiligi" tizimi hududiy muammolarni bevosita joyida hal qilish va jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirish imkonini bermoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada fuqarolik jamiyati institutlariga alohida bob ajratilgani ushbu soha rivojining huquqiy kafolati bo'ldi. Unda davlatning ushbu institutlarni qo'llab-quvvatlashi va jamoatchilik nazorati tartiblari qat'iy mustahkamlandi. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish nafaqat qonunlar majmuasi, balki inson tafakkurining o'zgarishidir. Har bir fuqaroning davlat taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashashi adolat, qonun ustuvorligi va barqaror taraqqiyotning asosiy kafolati bo'lib qoladi. O'zbekistonga xos bo'lgan mahalla instituti fuqarolik jamiyatining poydevori sifatida e'tirof etiladi. "Mahalla — fuqarolik jamiyatining asosi" tamoyili doirasida ushbu tuzilmaga keng vakolatlar berilib, mahalla raisi va hokim yordamchilari hududdagi iqtisodiy hamda ijtimoiy masalalarni bevosita joyida hal etish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Shu bilan birga, jamoatchilik nazorati tizimi davlat organlarining xalq oldida hisobdorligini ta'minlovchi muhim vositaga aylandi. "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonun fuqarolarga davlat qarorlari qabul qilinishi jarayonida ishtirok etish va ularning ijrosini tekshirish huquqini berdi. Bu borada ommaviy axborot vositalari, xususan, bloggerlik harakati va ijtimoiy tarmoqlardagi faollik davlat idoralari faoliyatining shaffofligini sezilarli darajada oshirdi. O'zbekiston fuqarolik jamiyatini shakllantirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan ham unumli foydalanmoqda. Mamlakatning ulug'vor maqsadlaridan biri bo'lgan erkin fuqarolik jamiyati demokratiya va adolat tamoyillariga tayanuvchi erkin insonlar jamiyatidir. Birinchi Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, fuqarolik jamiyati qurish — davlatchilik rivojlangani sari

boshqaruv vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya'ni o'zini-o'zi boshqarish organlarini rivojlantirish demakdir. Bunday jamiyat insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga to'sqinlik qilmaydigan, aksincha, yordam beradigan, shaxs manfaatlari va erkinliklari to'la ro'yobga chiqadigan ijtimoiy makondir. Bunda erkinlik va qonunga bo'ysunish tamoyillari bir vaqtning o'zida amal qiladi. Umumiy ma'noda fuqarolik jamiyati ijtimoiy hayotning davlat aralashuvidan va ma'muriy tazyiqlardan xoli bo'lgan, insonlarning xususiy turmush sohasini tashkil etuvchi munosabatlar majmuidir. Bugungi kunda falsafiy, siyosiy va yuridik adabiyotlarda ushbu tushunchani ta'riflashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Fuqarolik jamiyati davlat tomonidan tan olingan va qonun bilan himoyalangan, xususiy manfaatlarni ko'zlovchi shaxslar hamda ularning uyushmalari o'rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy, diniy va madaniy aloqalar tizimi sifatida tavsiflanadi. Bu tizim inson va fuqaro huquqlarining ustuvorligini, shuningdek, davlat va jamiyat munosabatlarida muvozanat saqlanishini ta'minlaydi.

Fuqarolik jamiyati — bu davlat institutlaridan ierarxik jihatdan mustaqil bo'lgan, ijtimoiy munosabatlar va institutsional vositalarning yaxlit tizimi bo'lib, shaxs hamda jamoalarning madaniy, ma'rifiy va ijtimoiy sohalardagi xususiy ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish uchun qulay huquqiy platforma vazifasini o'taydi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu fenomen ko'pincha subyektlarning xususiy manfaatlar sohasi sifatida talqin qilinadi. Binobarin, inson huquq va erkinliklarining fundamental qismi aynan mana shu avtonom ijtimoiy makonda hayotga tatbiq etiladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, fuqarolik jamiyati shaxslarning mexanik yig'indisi emas, balki ular o'rtasidagi ko'p qirrali gorizontaal aloqalar, ijtimoiy hamjihatlik va o'zaro hamkorlikning dinamik ifodasidir.

Ushbu ijtimoiy mushtaraklik aniq institutsional ko'rinishga ega bo'lib, u turli nodavlat notijorat tashkilotlari, ijtimoiy harakatlar va uyushmalar faoliyatida o'z aksini topadi. Fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayoni bevosita davlatning konstitutsiyaviy poydevori bilan bog'liqdir. Jamiyat va

davlat qurilishining huquqiy paradigmasini belgilab beruvchi, xalq irodasi va suverenitetini mujassamlashtirgan asosiy hujjat — Konstitutsiyadir. U nafaqat oliy yuridik kuchga ega boʻlgan akt, balki hokimiyatning boʻlinishi, shaxsning huquqiy maqomi va davlatning maʼmuriy-hududiy tuzilishini tartibga soluvchi fundamental siyosiy manba hisoblanadi.

Oʻzbekiston mustaqilligining huquqiy kafolati sifatida 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Asosiy Qonun jahon siyosiy xaritasida yangi suveren davlat paydo boʻlganini qonuniy jihatdan muhrlab qoʻydi. Mazkur hujjatning oʻziga xosligi shundaki, u oʻzbek davlatchiligining boy tarixiy anʼanalari va milliy qadriyatlarini umuminsoniy demokratik tamoyillar hamda gʻarb demokratiyasining gumanistik yutuqlari bilan oʻzaro uygʻunlashtirgan. Konstitutsiyaviy normalarning hayotiyliги fuqarolik jamiyati institutlarining barqaror rivojlanishi uchun huquqiy kafolat yaratadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaviy islohotlar sharoitida fuqarolik jamiyati subyektlarining roli yanada kengaymoqda. Bu jarayon davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va har bir shaxsning oʻz huquqlarini anglagan holda ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishini taʼminlashga xizmat qiladi. Zero, demokratik islohotlarning barqarorligi jamiyatning siyosiy yetukligi va undagi institutlarning davlat bilan teng huquqli muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan oʻlchanadi.

Fuqarolik jamiyati — bu davlat institutlaridan ierarxik jihatdan mustaqil boʻlgan, ijtimoiy munosabatlar va institutsional vositalarning yaxlit tizimi boʻlib, shaxs hamda jamoalarning madaniy, maʼrifiy va ijtimoiy sohalaridagi xususiy ehtiyojlarini roʻyobga chiqarish uchun qulay huquqiy platforma vazifasini oʻtaydi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu fenomen koʻpincha subyektlarning xususiy manfaatlar sohasi sifatida talqin qilinadi. Binobarin, inson huquq va erkinliklarining fundamental qismi aynan mana shu avtonom ijtimoiy makonda hayotga tatbiq etiladi. Shuni alohida taʼkidlash joizki, fuqarolik jamiyati shaxslarning mexanik yigʻindisi emas, balki ular oʻrtasidagi

ko'p qirrali gorizontal aloqalar, ijtimoiy hamjihatlik va o'zaro hamkorlikning dinamik ifodasidir.

Ushbu ijtimoiy mushtaraklik aniq institutsional ko'rinishga ega bo'lib, u turli nodavlat notijorat tashkilotlari, ijtimoiy harakatlar va uyushmalar faoliyatida o'z aksini topadi. Fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayoni bevosita davlatning konstitutsiyaviy poydevori bilan bog'liqdir. Jamiyat va davlat qurilishining huquqiy paradigmasini belgilab beruvchi, xalq irodasi va suverenitetini mujassamlashtirgan asosiy hujjat — Konstitutsiyadir. U nafaqat oliy yuridik kuchga ega bo'lgan akt, balki hokimiyatning bo'linishi, shaxsning huquqiy maqomi va davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishini tartibga soluvchi fundamental siyosiy manba hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqilligining huquqiy kafolati sifatida 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Asosiy Qonun jahon siyosiy xaritasida yangi suveren davlat paydo bo'lganini qonuniy jihatdan muhrlab qo'ydi. Mazkur hujjatning o'ziga xosligi shundaki, u o'zbek davlatchiligining boy tarixiy an'analari va milliy qadriyatlarini umuminsoniy demokratik tamoyillar hamda g'arb demokratiyasining gumanistik yutuqlari bilan o'zaro uyg'unlashtirgan. Konstitutsiyaviy normalarning hayotiyligi fuqarolik jamiyati institutlarining barqaror rivojlanishi uchun huquqiy kafolat yaratadi.

Zamonaviy tahrirdagi Konstitutsiyaviy islohotlar sharoitida fuqarolik jamiyati subyektlarining roli yanada kengaymoqda. Bu jarayon davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va har bir shaxsning o'z huquqlarini anglagan holda ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishini ta'minlashga xizmat qiladi. Zero, demokratik islohotlarning barqarorligi jamiyatning siyosiy yetukligi va undagi institutlarning davlat bilan teng huquqli muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan o'lchanadi.

Abu Nasr Forobiy ta'limotiga ko'ra, jamiyat a'zolari yuksak axloqiy fazilatlardan yiroqlashgan taqdirda, hokimiyatning qat'iy tartibga solish funksiyasiga bo'lgan ehtiyoj ortadi. Zero, jinoyatchilik va huquqbuzarlik kabi salbiy holatlar qonun ustuvorligi ta'minlanmagan hamda aholining ma'naviy-

etik dunyoqarashi zaiflashgan muhitda avj oladi. Bunday sharoitda ijtimoiy barqarorlikni tiklash uchun kuchli ta'sir mexanizmiga ega bo'lgan davlat boshqaruvi talab etiladi. Ushbu konseptual qarashlar Ibn Sino, Beruniy, Amir Temur va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar tomonidan ham ilgari surilib, davlatchilik amaliyotida keng tatbiq etilgan.

Evolyutsion taraqqiyot natijasida fuqarolik jamiyatining zamonaviy paradigmasi shakllandi. Mazkur modelning fundamental asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- Mulkchilik shakllarining plyuralizmi va ularning huquqiy tengligi;
- Mehnat faoliyati va tadbirkorlik subyektlarining erkinligi;
- Mafkuraviy xilma-xillik hamda axborot olish kafolatlari;
- Inson huquqlari daxlsizligi va o'z-o'zini boshqarish institutlarining rivojlanganligi;
- Jamiyatning barcha jabhalarida qonun ustuvorligining mutlaqligidir.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayoni milliy tarixiy an'analar va jahon davlatchiligining ilg'or tajribalari sintezi asosida kechmoqda. Bu tizimda erkinlik va axloqiy me'yorlar, huquqiy faollik va qat'iy intizom o'zaro uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Binobarin, fuqarolik jamiyati insoniyat taraqqiyotining oliy bosqichi sifatida doimiy takomillashib boruvchi dinamik jarayonlaridan biri xisoblanadi.

Ushbu murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisani uchta asosiy yo'nalish doirasida tizimlashtirish maqsadga muvofiq:

1. Iqtisodiy yo'nalish: Xususiy mulkdorlar sinfining shakllanishi va iqtisodiy mustaqillikning ta'minlanishi.

2. Siyosiy yo'nalish: Davlat boshqaruvida fuqarolik institutlarining ishtiroki va hokimiyat ustidan jamoatchilik nazoratining o'rnatilishi.

3. Ma'naviy-axloqiy yo'nalish: Jamiyatda yuksak huquqiy madaniyat, vijdon erkinligi va insonparvarlik tamoyillarining ustuvorligi belgilangan.

Fuqarolik jamiyati institutlarining hayotiyligi bevosita xususiy mulkchilikka asoslangan bozor iqtisodiyoti munosabatlari va erkin iqtisodiy

faoliyat kafolatlangan muhitga tayanadi. Aynan mulkiy mustaqillik shaxsning iqtisodiy avtonomligini ta'minlash barobarida, uning davlat hokimiyatiga nisbatan mustaqil mavqega ega bo'lishiga xizmat qiladi. Bu modelda davlatning xususiy hayot sohasiga hamda subyektlarning qonuniy iqtisodiy faoliyatiga aralashuvi cheklanishi fundamental tamoyil hisoblanadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgan davrdan boshlab, xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochish orqali ham fuqaro, ham davlat manfaatlarining muvozanatini ta'minlash siyosati izchil amalga oshirilmoqda.

Fuqarolik jamiyati konsepsiyasining nazariy asoslarini yaratgan G.V.F. Gegel ushbu tizimni ikki asosiy prinsipga tayanuvchi ijtimoiy munosabatlar majmui sifatida tavsiflagan:

Birinchidan, subyektlar o'z xususiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda harakat qiladigan avtonom shaxslardir;

Ikkinchidan, insonlar o'zaro shunday ijtimoiy bog'liqlik tizimini vujudga keltiradilarki, unda har bir shaxsning ehtiyoji boshqa bir kimsaning faoliyati bilan uzviy bog'lanadi.

Shu nuqtai nazardan, xususiy mulkchilikka asoslangan ijtimoiy struktura mohiyatan bozor iqtisodiyoti munosabatlarining institutsional ifodasidir. Bunday tizimda erkin raqobat muhitini yaratish va davlatning ma'muriy aralashuvini minimallashtirish orqali insonning ijodiy va iqtisodiy faolligiga keng yo'l ochiladi. O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun vujudga keltirilgan huquqiy mexanizmlar aynan mana shu nazariy qarashlarning amaliy in'ikosi bo'lib, jamiyatda mulkdorlar qatlamining shakllanishi fuqarolik jamiyati rivojining iqtisodiy kafolati bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolik jamiyatining qaror topishini xususiy mulkdorlik institutining barqarorlashuvi bilan uzviy bog'liq holda belgilaydi. Shu sababli, mamlakatda xususiylashtirish jarayonlarining jadallashishi nafaqat iqtisodiy, balki muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega.

Islohotchi-davlatning demokratik fuqarolik jamiyatini shakllantirishdan manfaatdorligi bir qator strategik omillar bilan izohlanadi.

Birinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari orqali ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish bo'yicha norasmiy "ijtimoiy shartnoma" mexanizmi yuzaga keladi. Bu jarayonda davlat o'z islohotlarini amalga oshirishda jamiyat qiyofasida ishonchli sherik va tayanchga ega bo'ladi. Ikkinchidan, fuqarolik jamiyati shaxsning davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlash orqali vakillik demokratiyasini mustahkamlaydi va ijtimoiy tizimning barqarorligini ta'minlovchi poydevor vazifasini o'taydi.

Uchinchidan, saylov tizimi va boshqa demokratik institutlar orqali O'zbekiston xalqi o'zining siyosiy irodasini hamda milliy manfaatlarini erkin ifodalashi uchun barqaror platforma yaratiladi. To'rtinchidan, bunday jamiyat shaxs va davlat, turli etnik hamda konfessional guruhlar, shuningdek, demografik qatlamlar manfaatlarining o'zaro maqbul muvozanatini (konsensus) ta'minlaydi. Beshinchidan, demokratik tizim fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligiga tayanadi; u davlat apparatining byurokratlashuvi va boshqaruv institutlarining xalq manfaatlaridan uzilib qolishi kabi xavflarga qarshi turuvchi tabiiy immunitet vazifasini o'taydi.

Fuqarolik jamiyatining mohiyati aholining keng qatlamlarini, ularning kasbiy va ijtimoiy qiziqishlarini birlashtiruvchi turli tashkilotlar, uyushmalar va partiyalar faoliyatida namoyon bo'ladi. Aynan ushbu institutlar millatni umumiy farovonlik maqsadi yo'lida jipslashtiradi. So'nggi yillarda fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishdagi rolini kuchaytirishga qaratilgan 200 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinganligi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishini ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida, islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida jamoatchilik institutlarining huquqiy va institutsional jihatdan to'laqonli ishtirok etishi uchun zaruriy kafolat bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIII bobi fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining huquqiy poydevori bo'lib, unda jamoat

birlashmalarining turlari, ularning faoliyat yuritish tartibi hamda davlat hokimiyati organlari va mansabdor shaxslardan mustaqilligi kabi fundamental tamoyillar qat'iy belgilangan. Bu huquqiy kafolatlar mamlakatimizda «Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyilini hayotga tatbiq etishda asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Mustaqillik yillarida aholi keng qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan, barqaror va mustaqil fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish uchun barcha zarur tashkiliy-huquqiy hamda moddiy-texnik sharoitlar yaratildi. Davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi doirasida ushbu institutlarning jamiyat hayotidagi rolini oshirishga qaratilgan strategik vazifalar izchil amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizni demokratik modernizatsiya qilishda fuqarolik jamiyati subyektlarining ahamiyati muttasil ortib bormoqda. Bu jarayon fuqarolarning, ayniqsa, yosh avlodning fuqarolik ongi va siyosiy-huquqiy madaniyati yuksalayotganidan dalolat beradi. Kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning eng muhim sharti ham aynan aholining ijtimoiy faolligi va huquqiy bilimdonligidir.

Hozirgi vaqtda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari va erkin ommaviy axborot vositalari faoliyatini kafolatlaydigan mustahkam qonunchilik bazasi mavjud. Mazkur institutlar O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining yaxlit tuzilmasini tashkil etib, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim vazifalarini bajarishda fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlashga ko'maklashmoqda. Bunday tizimli yondashuv davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlash barobarida, har bir shaxsning davlat boshqaruvidagi ishtirokini amalda ta'minlamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIII bobi fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining huquqiy poydevori bo'lib, unda jamoat birlashmalarining turlari, ularning faoliyat yuritish tartibi hamda davlat

hokimiyati organlari va mansabdor shaxslardan mustaqilligi kabi fundamental tamoyillar qat'iy belgilangan. Bu huquqiy kafolatlar mamlakatimizda «Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyilini hayotga tatbiq etishda asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Mustaqillik yillarida aholi keng qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan, barqaror va mustaqil fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish uchun barcha zarur tashkiliy-huquqiy hamda moddiy-texnik sharoitlar yaratildi. Davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi doirasida ushbu institutlarning jamiyat hayotidagi rolini oshirishga qaratilgan strategik vazifalar izchil amalga oshirilmogda.

Bugungi kunda mamlakatimizni demokratik modernizatsiya qilishda fuqarolik jamiyati subyektlarining ahamiyati muttasil ortib bormogda. Bu jarayon fuqarolarning, ayniqsa, yosh avlodning fuqarolik ongi va siyosiy-huquqiy madaniyati yuksalayotganidan dalolat beradi. Kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning eng muhim sharti ham aynan aholining ijtimoiy faolligi va huquqiy bilimdonligi keltirib o'tilgan.

Hozirgi vaqtda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari va erkin ommaviy axborot vositalari faoliyatini kafolatlaydigan mustahkam qonunchilik bazasi mavjud. Mazkur institutlar O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining yaxlit tuzilmasini tashkil etib, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim vazifalarini bajarishda fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlashga ko'maklashmogda. Bunday tizimli yondashuv davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlash barobarida, har bir shaxsning davlat boshqaruvidagi ishtirokini amalda ta'minlanib kelmogda.

Huquqiy asoslar: yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ilk bor fuqarolik jamiyati institutlariga bag'ishlangan alohida XIII bobning kiritilishi ushbu subyektlar faoliyatining huquqiy maqomini konstitutsiyaviy darajada mustahkamladi. Xususan, 72-moddada

davlat tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlarining (NNT) huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratish kafolati belgilandi. Shu bilan birga, davlat organlari va mansabdor shaxslarning NNT faoliyatiga aralashishi, shuningdek, NNTlarning davlat boshqaruvi funksiyalariga aralashishiga yo'l qo'yilmasligi haqidagi qat'iy norma o'zaro avtonomlikni ta'minlaydi. 73-modda bilan esa kasaba uyushmalarining xodimlar ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini himoya qilishdagi o'rni va ularga a'zo bo'lishning ixtiyoriyligi muhrlab qo'yildi.

So'nggi davrdagi islohotlar natijasida jamoatchilik nazorati mexanizmlari sifat jihatidan yangilandi. NNTlarga davlat budjetining sarflanishi, qonun hujjatlari ijrosi va strategik davlat dasturlari ustidan nazoratni amalga oshirish vakolati berildi. Ma'muriy tartib-taomillarning erkinlashtirilishi doirasida tadbirlarni o'tkazishda ruxsat olish tartibi xabardor qilish (notifikatsiya) tizimiga o'tkazildi. Davlat ro'yxatidan o'tish uchun undiriladigan boj miqdorlarining sezilarli darajada (ba'zan 5 baravargacha) qisqartirilishi hamda "eng.uz. elektron portali orqali hisobot topshirish tizimining yo'lga qo'yilishi byurokratik to'siqlarni minimallashtirishga xizmat qildi.

Nodavlat Notijorat Tashkilotlar faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida xorijiy grantlarni jalb qilish tartibi soddalashtirildi va adliya organlari bilan kelishish muddatlari qisqartirildi. Ijtimoiy ahamiyatga molik xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar hamda xayriya jamg'armalari uchun maxsus soliq imtiyozlari va preferensiyalar tizimi joriy etildi. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning bunday ko'p bosqichli mexanizmi NNTlarning nafaqat huquqiy erkinligini, balki ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va jamiyat hayotidagi real ta'sirchanligini oshirishni ko'zda tutadi. Davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimida davlat grantlari va ijtimoiy buyurtmalar instituti markaziy o'rin egallaydi. Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi orqali ijtimoiy loyihalarga yo'naltirilayotgan mablag'lar hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Xususan, 2017-yilda ushbu

ko'rsatkich 12 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024–2025-yillarga kelib bu miqdor 20 baravardan ko'proqqa oshgani sohadagi ijobiy ishlarni ta'minlashini aytiladi. Institutsional infratuzilmani yaxshilash maqsadida barcha hududlarda bo'sh turgan davlat ob'ektlari negizida "Nodavlat notijorat tashkilotlari uylari" tashkil etildi. Bu maskanlar yangi tashkil etilgan yoki moddiy imkoniyati cheklangan NNTlar uchun bepul yoki imtiyozli asosda joylashish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida Davlat boshqaruvi akademiyasida NNT rahbarlari uchun maxsus malaka oshirish kurslari yo'lga qo'yildi. 2021–2025-yillarda Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi doirasida quyidagi strategik ko'rsatkichlarga erishish ko'zda tutilgan:

-Davlat organlari huzuridagi Jamoatchilik kengashlari tarkibida NNT vakillari ulushini kamida 25 foizga yetkazish;

-Ijtimoiy sheriklik asosidagi loyihalar sonini 2 baravarga oshirish;

-NNTlarning "Ochiqlik indeksi"ni joriy etish orqali shaffoflik darajasi yuqori tashkilotlarni rag'batlantirish tizimini joriy qilish kerak. Ushbu Konsepsiya davlatdan mustaqil, biroq u bilan konstruktiv hamkorlik qiladigan institutlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan strategik hujjatdir. Uning negizida "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" tamoyili yotadi. Asosiy e'tibor NNTlarni ro'yxatga olishni soddalashtirish, fuqarolarning davlat qarorlari qabul qilinishidagi ishtirokini kengaytirish hamda ijtimoiy himoya va ta'lim kabi sohalarda ijtimoiy sheriklikni kuchaytirishga qaratilgan. Bu sa'y-harakatlar fuqarolik jamiyati institutlarini davlatning chinakam va teng huquqli hamkoriga aylantirish maqsadini amalga oshirishni ko'zlaydi.

Jamoatchilik nazorati tizimi davlat organlari faoliyati ustidan xalq nazoratini o'rnatishning samarali mexanizmi sifatida shakllanmoqda. Konsepsiya doirasida joriy etilayotgan ustuvor yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

- Institutlarni qo'llab-quvvatlash: NNTlarga ajratiladigan davlat grantlari, subsidiyalar va ijtimoiy buyurtmalar hajmini muntazam oshirib borish;

- Mahalla instituti: Mahallani fuqarolik jamiyatining eng quyi, biroq strategik jihatdan eng muhim bo'g'ini sifatida modernizatsiya qilish;
- Ochiqlik va shaffoflik: Davlat idoralari huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatini jonlantirish orqali qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtirokini ta'minlash;
- Volontyorlik (ko'ngillilik) harakati: Yoshlarni ijtimoiy foydali mehnatga yo'naltirish va ularning fuqarolik tashabbuslarini rag'batlantirish.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning XIII bobi fuqarolik jamiyati institutlarini demokratik jamiyatning asosi sifatida muhrlab qo'ydi. Unda davlatning ushbu institutlar rivojlanishiga ko'maklashish majburiyati va jamoatchilik nazoratining davlat faoliyati ochiqligini ta'minlovchi fundamental vosita ekanligi belgilangan.

Mazkur Konsepsiyaning hayotga tatbiq etilishi natijasida qonun loyihalarini qabul qilishdan avval keng xalq muhokamasidan o'tkazish barqaror an'anaga aylanmoqda. Davlat ijtimoiy muammolarni hal etishda NNTlar bilan resurs va mas'uliyatni bo'lishish mexanizmiga o'tmoqda, bu esa fuqarolarda davlat boshqaruviga daxldorlik hissini kuchaytirmoqda.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi — bu davlatni xalqqa yanada yaqinlashtirish hamda har bir shaxsning mamlakat hayotidagi ishtirokini ta'minlashga qaratilgan huquqiy strategiyadir. O'zbekistonda NNTlar faoliyatining erkinlashtirilishi "Inson qadri uchun" tamoyilining amaliy ifodasi bo'lib, ekologiya, xotin-qizlar huquqlari, ta'lim va kambag'allikni qisqartirish kabi dolzarb masalalarni davlat va jamiyat hamkorligida yechish imkonini yaratmoqda. Kelgusida "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi yaxlit Kodeksning qabul qilinishi ushbu sohani tizimlashtirish va huquqiy tartibga solishdagi navbatdagi muhim bosqich bo'ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. “Fuqarolik jamiyati” tushunchasini ta’riflab, uning jamiyatdagi o’rni va ahamiyatini yozing.
2. “Yuksalish” harakati va uning fuqarolik jamiyati rivojiga qo’shgan hissasini o’rganib, qisqacha xulosa yozing.
3. Prezident farmonlari va qonunlar orqali fuqarolik jamiyatini qo’llab-quvvatlash choralari haqida ma’lumot to’plang va ularning samaradorligini tahlil qiling.
4. Fuqarolik jamiyati institutlari va davlat organlari o’rtasidagi hamkorlikni ko’rsatuvchi diagramma yoki infografika tayyorlang.

FOR AUTHOR USE ONLY

IV.BOB. MA'MURIY-HUDUDIIY VA DAVLAT TUZILISHI

9-- MAVZU. DUNYODA AMAL QILADIGAN DAVLAT BOSHQARUV

USULILARI

REJA:

1. Davlat boshqaruv shakli tushunchasi va ahamiyati.
2. Zamonaviy dunyoda boshqaruv usullarining xilma-xilligi.
3. O'zbekiston boshqaruv tizimidagi o'ziga xos xususiyatlar va islohotlar.

Boshqaruv shakli har bir taraqqiy etgan jamiyatning fundamental asosi bo'lib, u davlat mohiyatining tashqi ko'rinishini hamda oliy davlat hokimiyati organlarining huquqiy maqomini belgilaydi. Dunyo tajribasida boshqaruv shaklining xarakteri, eng avvalo, davlat boshlig'ining huquqiy holatidan kelib chiqadi. Bu tizimlar monarxiya yoki respublika ko'rinishida bo'lib, ular davlat rahbarining saylanish yoki tayinlanish tartibi hamda hokimiyatni amalga oshirish uslubiga ko'ra bir-biridan ajralib qoladi.

Respublika atamasi lotincha "respublica" so'zidan olingan bo'lib, "res" — ish va "publicus" — ijtimoiy, umumxalq degan ma'nolarni anglatadi. Bunday boshqaruv shaklida barcha davlat hokimiyati organlari saylovlar orqali shakllantiriladi yoki umummilliy vakillik muassasalari (parlamentlar) tomonidan tuziladi. Respublika tuzumida fuqarolar keng ko'lamli shaxsiy va siyosiy huquq hamda erkinliklarga ega bo'ladilar.

Prezidentlik respublikasi — ikki palatali tizimi bilan bir qatorda, davlat boshlig'i va hukumat rahbarining vakolatlari bir vaqtning o'zida prezident qo'lida mujassamlashgan boshqaruv modelidir. Mazkur tizimda hukumat bevosita prezident tomonidan shakllantiriladi va unga hisobdor bo'ladi, parlament esa hukumat faoliyatiga nisbatan sezilarli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Bu model ijro etuvchi hokimiyatning barqarorligi va tezkor qarorlar qabul qilish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Parlamentar respublika — ijtimoiy-siyosiy hayotni tashkil etishda oliy vakillik organi bo‘lmish parlament hal qiluvchi mavqega ega bo‘lgan davlat boshqaruvi shaklidir. Mazkur tizimda hukumat parlament tomonidan shakllantiriladi va bevosita uning oldida siyosiy javobgar hisoblanadi; parlament istalgan vaqtda hukumatga ishonchsizlik votumi bildirish orqali uni iste’foga chiqarish huquqiga ega. Bunday sharoitda prezident ko‘proq nominal vakolatlarga ega bo‘lib, davlatning vakillik funksiyalarini bajaradi.

Aralash respublika modelida prezidentlik va parlamentar respublika elementlari o‘zaro uyg‘unlashadi. Bunda prezident umumxalq saylovlari asosida saylanadi va real siyosiy vakolatlarga ega bo‘ladi. Biroq hukumat parlament tomonidan tashkil etilib, u ham prezident, ham parlament oldida ikki tomonlama hisobdorlik (siyosiy javobgarlik) tamoyili asosida faoliyat yuritadi. Mazkur tizimda prezident ijro etuvchi hokimiyatga umumiy rahbarlikni amalga oshirsa-da, hukumatning bevosita faoliyatini bosh vazir boshqaradi. Shuningdek, prezident qonunchilikda belgilangan muayyan inqirozli holatlarda parlamentni tarqatib yuborish huquqiga ega ekanligi ta’kidlangan.

Teokratik respublika (Islom respublikasi) — respublika boshqaruvining o‘ziga xos shakli bo‘lib, unda oliy hokimiyat diniy ulamolar (ruhoniylar) nazorati ostida bo‘ladi. Bu shakl o‘zida an’anaviy islom xalifaligining fundamental prinsiplari va zamonaviy demokratik respublika institutlari (saylov, parlament) elementlarini mujassamlashtiradi.

Monarxiya (yunoncha: *monarchia* — yakka hokimlik) — oliy davlat hokimiyati muayyan unvonga ega bo‘lgan monarx (podshoh, imperator, sulton, amir va b.) tomonidan amalga oshiriladigan boshqaruv shaklidir. Monarxning vakolat muddati cheklanmagan bo‘lib, uning huquqlari amaldagi qonunlar, konstitutsiya yoki parlament tomonidan cheklanishi (konstitutsiyaviy monarxiya) yoki umuman cheklanmasligi mumkin. Qoida tariqasida, monarxiyada hokimiyat meros bo‘lib o‘tish xususiyatiga ega.

Mutlaq monarxiya — monarxning cheksiz va mutlaq hokimiyatga ega bo'lishi bilan tavsiflanadi. Ushbu tizimda barcha davlat organlari va hukumat tarkibi bevosita monarx tomonidan shakllantiriladi hamda faqat uning oldida javobgardir. Mutlaq monarxiya sharoitida odatda parlament mavjud bo'lmaydi; agar u tashkil etilgan bo'lsa ham, faqat maslahat beruvchi (konsultativ) organ vazifasini bajaradi, xolos.

Konstitutsiyaviy monarxiya — oliy davlat hokimiyati va monarx vakolatlari asosiy qonun (Konstitutsiya) bilan huquqiy jihatdan cheklangan boshqaruv shaklidir. Mazkur tizimda qonun ijodkorligi funksiyasi parlament tomonidan amalga oshirilsa, ijro etuvchi hokimiyat vazifasini hukumat bajaradi. Konstitutsiyaviy monarxiya institutsional tuzilishiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

Dualistik monarxiya (lotincha: *dualis* — ikkiyoqlama) — bunda davlat hokimiyati monarx va parlament o'rtasida taqsimlanadi. Garchi monarx hokimiyati konstitutsiya bilan cheklangan bo'lsa-da, u davlat boshqaruvida keng vakolatlarni, jumladan, hukumatni shakllantirish va unga rahbarlik qilish huquqini saqlab qoladi.

Parlamentar monarxiya — ushbu shaklda monarxning vakolatlari ramziy xarakterga ega bo'lib, u "hukmronlik qiladi, lekin boshqarmaydi". Hukumat va uning tarkibidagi organlar monarx oldida emas, balki bevosita parlament oldida siyosiy javobgar hisoblanadi.

Teokratik monarxiya — siyosiy va diniy hokimiyat yagona shaxsda mujassamlashgan boshqaruv shakli bo'lib, unda davlat boshlig'i ayni paytda cherkov yoki muayyan diniy konfessiyaning oliy rahbari hisoblanadi. Bunda davlat boshqaruvi diniy qonun-qoidalar va dogmalarga tayanadi.

Amirlik (arabcha: *imarat*) — islom huquqi an'analariga asoslangan, amir tomonidan boshqariladigan davlat shaklidir. Islom dunyosidagi amirliklar

o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi: Boshqaruvning asosiy mezonini islom huquqi — **shariat** normalarini amaliyotga tatbiq etilishidir. Tarixan va zamonaviy bosqichda ko'plab amirliklar hududiy jihatdan nisbatan kichikligi hamda xalq va rahnamo o'rtasidagi an'anaviy boshqaruv aloqalari bilan tavsiflanadi;

- Evolyutsion jarayonda amirlik instituti mohiyatan va shaklan monarxiyaga (qirollikka) yaqinlashgan tuzilmaga aylangan.

O'zbekiston Respublikasi

O'zbekiston Respublikasi Amudaryo va Sirdaryo daryolari oralig'idagi strategik ijtimoiy-geografik makonda joylashgan bo'lib, uning umumiy yer maydoni 448,9 ming kvadrat kilometrni tashkil etadi. Mamlakat hududining chiziqli o'lchamlari sharqdan g'arbga tomon 1 425 kilometr, shimoldan janubga qarab esa 930 kilometr cho'zilgan. Hududiy joylashuviga ko'ra, respublika shimol va shimoli-sharqiy yo'nalishlarda Qozog'iston, sharqiy va janubi-sharqiy hududlarda Qirg'iziston va Tojikiston, g'arbda Turkmaniston hamda janubiy qismda Afg'oniston bilan chegaradosh hisoblanadi. Davlat chegaralarining delimitatsiyasi quyidagi uzunlik ko'rsatkichlariga ega:

- Qozog'iston bilan — **2 356,31 km**;
- Turkmaniston bilan — **1 831,49 km**;
- Qirg'iziston bilan — **1 476,12 km**;
- Tojikiston bilan — **1 283,2 km**;
- Afg'oniston bilan — **143 km**.

O'zbekistonning suveren davlat sifatidagi huquqiy maqomi 1991-yil 31-avgustda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan O'zbekiston SSR Oliy Sovetining navbatdan tashqari sessiyasida belgilandi. Mazkur tarixiy majlisda

“O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e‘lon qilish to‘g‘risida”gi qaror hamda “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Ushbu huquqiy aktlar asosida ittifoqdosh respublika nomi rasman O‘zbekiston Respublikasi deb o‘zgartirildi va mamlakat jahon hamjamiyatining mustaqil sub‘ektiga aylandi. O‘zbekiston Respublikasining davlat boshqaruvi tizimi o‘zining huquqiy asosi va funksional tuzilishi jihatidan zamonaviy davlatchilik tamoyillariga to‘liq mos keladi. Milliy qonunchiligimiz, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXI bobida mustahkamlangan qoidalarga ko‘ra, davlat hokimiyatining tashkil etilishi hokimiyatlar bo‘linishi printsipiga tayanadi. Ushbu fundamental tamoyil davlat boshqaruvining samaradorligini ta‘minlash, tiyib turish va muvozanat saqlash mexanizmlarini joriy etish maqsadida hokimiyatni uchta mustaqil tarmoqqa ajratadi. Birinchi navbatda, qonun ijodkorligi va normativ-huquqiy bazani shakllantirish funksiyasini bajaruvchi oliy vakillik organi — Oliy Majlis qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Ijro etuvchi hokimiyat tizimi esa O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, turli davlat qo‘mitalari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarini o‘z ichiga olib, qonunlarning hayotga tatbiq etilishini va davlat boshqaruvining uzluksizligini ta‘minlaydi. Sud hokimiyati esa ushbu tizimda alohida nufuzga ega bo‘lib, uning asosiy missiyasi Konstitutsiya va qonunlar, shuningdek, inson huquqlariga oid xalqaro konvensiyalarda kafolatlangan fuqarolar erkinliklarini himoya qilishdan iboratdir. Sud organlari faoliyati korxonalar va tashkilotlarning qonuniy manfaatlarini sud yo‘li bilan muhofaza qilish, jamiyatda ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligini qaror toptirish, shuningdek, fuqarolararo totuvlik va barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasining davlat hokimiyati tizimi o‘ziga xos konstitutsiyaviy tamoyillarga asoslangan bo‘lib, mamlakat Konstitutsiyasining XXI bobida mustahkamlab qo‘yilgan hokimiyatning bo‘linish prinsiplariga muvofiq faoliyat yuritadi. Ushbu tizimning fundamental asosi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlarining mustaqil hamda

o'zaro muvozanatli faoliyatiga tayanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat funksiyasini Oliy Majlis amalga oshirsa, ijro etuvchi hokimiyat tizimi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, davlat qo'mitalari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarini o'z ichiga oladi. Sud hokimiyati esa fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda, shuningdek, inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlarda kafolatlangan erkinliklarini, korxon va tashkilotlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan birga, jamiyatda qonun ustuvorligi, ijtimoiy adolat va fuqarolararo hamjihatlikni ta'minlashning asosiy kafolati hisoblanadi. Davlat boshqaruvi shakli nuqtayi nazaridan O'zbekiston o'zining suveren rivojlanish yo'lida prezidentlik respublikasi modelini ishlab chiqqan.

Prezidentlik respublikasi — bu shunday tizimki, unda prezidentning davlat organlari tizimidagi faol va muhim roli ustuvorlik kasb etadi. Mazkur boshqaruv shaklida davlat rahbari va hukumat boshlig'ining vakolatlari o'zaro mujassamlashgan bo'lib, u ilmiy nazariyada dualistik respublika deb ham yuritiladi. Ushbu boshqaruv tizimi ikki hokimiyatning o'ziga xos taqsimlanishini tavsiflaydi: bunda kuchli ijro etuvchi hokimiyat prezident qo'lida, qonun chiqaruvchi hokimiyat esa parlament ixtiyoridadir.

Prezident respublikasining o'ziga xos xususiyatlari

Prezidentlik respublikalarida davlat rahbarini saylashning parlamentdan tashqari usullari amal qiladi, bunda prezident bevosita aholi tomonidan (masalan, Kolumbiya, Turkiya yoki AQSh kabi davlatlarda) saylanadi. Shuningdek, ijro etuvchi hokimiyatni shakllantirish ham parlamentdan tashqari usulda amalga oshirilib, hukumat bevosita prezident tomonidan tuziladi. Bunday tizimlarda prezident ham amalda, ham huquqiy jihatdan hukumat rahbari hisoblanadi (ayrim mamlakatlarda bosh vazir lavozimi mavjud emas) yoki u hukumat boshlig'ini tayinlash vakolatiga ega (Kamerun, Kot-d'Ivuar). Hukumat parlament oldida emas, balki faqat prezident oldida mas'ul sanaladi, chunki faqat davlat rahbarigina hukumatni iste'foga chiqarish huquqiga egadir. Umuman olganda, mazkur boshqaruv shaklida prezident

parlamentar respublikalarga nisbatan ancha keng vakolatlarga ega bo'lib, u nafaqat ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i, balki qonunlarni imzolash orqali tasdiqlash va hukumatni tarqatib yuborish huquqiga ham ega. Shu bilan birga, prezidentlik respublikasida davlat rahbari ko'pincha parlamentni tarqatib yuborish vakolatiga ega bo'lmaydi, o'z navbatida, parlament ham hukumatga ishonchsizlik bildirishi mumkin emas, biroq prezidentni lavozimidan chetlatish (impichment) jarayonini amalga oshirish huquqi saqlanib qoladi.

Hozirgi vaqtda jahon hamjamiyatidagi 200 dan ortiq davlatning har biri o'ziga xos boshqaruv shakliga ega. O'zbekiston ham o'z mustaqilligining dastlabki yillaridayoq o'ziga xos boshqaruv yo'lini huquqiy jihatdan belgilab olgan. Davlat boshqaruv shaklining mohiyatini tahlil qilar ekanmiz, huquqshunos olim Sh.A.Saydullayev bergan ta'rifga ko'ra, davlat boshqaruv shakli — bu oliy davlat hokimiyati organlarini tashkil etish tartibini, ushbu organlarning o'zaro hamda aholi bilan bo'ladigan munosabatlari tamoyillarini belgilovchi davlat shaklining tarkibiy qismidir. Shuningdek, muayyan mamlakatda davlat boshlig'ining huquqiy maqomi bilan bog'liq masalalar ham bevosita davlat boshqaruv shaklining mazmunini tashkil etadi.

Davlat boshqaruv shakli nazariy jihatdan ikki asosiy turga, monarxiya va respublikaga ajratiladi. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, mamlakatimiz boshqaruvning respublika shakliga asoslanadi. Respublika boshqaruv tizimi shunday xususiyatga egaki, unda davlat hokimiyati bevosita xalq tomonidan muayyan muddatga saylanadigan kollegial organlar va davlat boshlig'i orqali yuritiladi. Mazkur boshqaruv modeliga xos bo'lgan fundamental jihatlar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- oliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshlig'ining qat'iy belgilangan muddatlarga saylanishi;
- saylab qo'yiladigan organlar hamda davlat boshlig'ining o'z saylovchilari oldidagi hisobdorligi va mas'ulligi;

– qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda davlat boshlig‘ining yuridik javobgarligi tamoyili;

– davlat hokimiyatining davlat boshlig‘i nomidan emas, balki xalq suvereniteti negizida xalq nomidan amalga oshirilishi;

– shaxs va davlat o‘rtasidagi o‘zaro huquqiy mas’ullikning hamda inson huquq va erkinliklarining davlat kafolatida ekanligi.

Respublika boshqaruv shakli ham o‘z navbatida bir qancha ichki ko‘rinishlarga bo‘linadi. O‘zbekiston siyosiy tizimi mohiyatiga ko‘ra prezidentlik respublikasi modeliga amal qiladi. Odatda, bunday tizimlarda prezident bir vaqtning o‘zida ham davlat rahbari, ham ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i sanaladi. U hukumatni shakllantiradi va ijroiya organi bevosita uning oldida javobgar bo‘ladi, prezidentning o‘zi esa umumxalq saylovlari yo‘li bilan vakolat oladi. Ta’kidlash joizki, milliy davlatchiligimiz taraqqiyotida prezidentning ijroiya hokimiyat boshlig‘i sifatidagi maqomi 2005-yilgacha amalda bo‘lgan va bu vazifani Birinchi Prezident I.A.Karimov bajargan.

Mamlakatimiz boshqaruv shaklining huquqiy asosi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qat’iy belgilangan. Xususan, Bosh qonunimizning 1-moddasida O‘zbekiston boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligi, shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasi” va “O‘zbekiston” nomlari teng ma’noni anglatishi mustahkamlab qo‘yilgan. Bu qoida davlatimizning respublika tamoyillariga sodiqligini konstitutsiyaviy jihatdan tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, Konstitutsiyaning 10-moddasida O‘zbekiston xalqi nomidan ish olib borish vakolati faqat xalq tomonidan saylangan Oliy Majlis va Prezidentga tegishli ekanligi qat’iy belgilangan. Bu norma respublika boshqaruv shaklining asosiy belgilaridan biri — davlat hokimiyatining davlat boshlig‘i nomidan emas, balki bevosita xalq suvereniteti asosida amalga oshirilishini huquqiy jihatdan tasdiqlaydi. Davlat boshqaruv shaklining qonuniy poydevori Asosiy qonunimiz va boshqa qonun hujjatlarida kompleks ravishda tartibga solingan.

Xususan, Konstitutsiyaning 110-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti amaldagi qonunchilik ijrosini ta'minlash maqsadida respublikaning barcha hududlarida majburiy xarakterga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar qabul qiladi. Shu bilan birga, 106-moddaning ikkinchi qismida davlat boshlig'ining fuqarolar tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida, yashirin ovoz berish yo'li bilan besh yil muddatga saylanishi mustahkamlangan. Mazkur qoidalar respublika tizimiga xos bo'lgan davlat rahbari hokimiyatining manbaliligi va muddatlilikini ifodalaydi.

Davlat boshqaruv shaklining mohiyati yuzasidan huquqshunos olim X.T.Odilqoriyev o'z qarashlarini bayon etib, ushbu tushuncha davlat hokimiyatini tashkil etish tartibi, uning mazmuni va amalga oshirish mexanizmlarini qamrab olishini ta'kidlaydi. Nazariy jihatdan yondashilganda, davlat boshqaruv shakli deganda oliy hokimiyat organlarining aholi bilan o'zaro aloqadorlik darajasi va fuqarolarning ushbu institutlarni shakllantirishdagi ishtiroki tushuniladi. Mamlakatimizda amal qilayotgan boshqaruv modeli "kuchli prezident" tamoyiliga tayangan bo'lib, bunda Prezident ham rasman, ham amalda davlat rahbari sifatida e'tirof etiladi. U parlamentdan mustaqil ravishda, xalq tomonidan berilgan mandat asosida faoliyat yuritib kelmoqda.

Prezidentlik respublikasida davlat boshlig'i keng vakolatlar doirasiga va yuksak siyosiy nufuzga ega bo'lib, hukumat a'zolarini shaxsan o'zi yoki parlament bilan kelishilgan holda tayinlash va lavozimidan ozod etish huquqiga egadir. Ayrim huquqiy holatlarda u parlamentni tarqatib yuborish vakolatini ham qo'llashi mumkin. Prezident ijroiya hokimiyat tizimida yetakchi o'rin tutishi bilan bir qatorda, millat birdamligi va davlat yaxlitligining ramziy timsoli, shu bilan bir qatorda Qurolli Kuchlarning Oliy Bosh Qo'mondoni hisoblanadi. Ko'plab demokratik davlatlarda bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham prezidentlik saylovlari xalqaro standartlar va milliy

qonunchilik talablari asosida, xalqning xohish-irodasini erkin ifodalashi orqali qonun doirasida ishlarni amalga oshiriladi.

Savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida davlat boshqaruv shakli qanday ta'riflangan?

1. Davlat boshqaruv shakli deganda nimani tushunasiz va u davlatning siyosiy rejimidan nimasi bilan farq qiladi?

2. "Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyili boshqaruv tizimining o'zgarishiga qanday ta'sir qiladi?

3. Raqamli texnologiyalar va "Elektron hukumat" tizimi an'anaviy byurokratik boshqaruv usulini qanday o'zgartirmoqda?

4. Davlat boshqaruvida markaziy hokimiyat va mahalliy davlat hokimiyati (hokimliklar) o'rtasidagi muvozanatni qanday baholaysiz?

10-MAVZU:O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MA’MURIY- HUDUDIIY TUZILISHI.

REJA:

1. Ma’muriy-hududiy tuzilishning huquqiy asoslari.
2. O‘zbekistonning hozirgi ma’muriy-hududiy birliklari.
3. Ma’muriy-hududiy birliklarni tashkil etish va o‘zgartirish tartibi

O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi — xalqning munosib turmush darajasini ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash, milliy qadriyatlar hamda madaniyatni qayta tiklash, shuningdek, insonning ma’naviy-axloqiy barkamolligi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Milliy davlatchiligimizning mustaqil taraqqiyoti, eng avvalo, hududiy yaxlitlik va daxlsiz yer kengliklariga ega bo‘lish, o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamlash, Prezidentlik institutining joriy etilishi hamda ma’muriy-hududiy birliklarning tarixiy an‘analarga muvofiq viloyat va tumanlar deb nomlanishi bilan tavsiflanadi. Ushbu tizim doirasida hokimlik lavozimining o‘rnatilishi, mamlakatimizning xalqaro hamjamiyat tomonidan suveren subyekt sifatida tan olinishi va oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan Konstitutsiyamizning qabul qilinishi mustaqil davlatchilik poydevorini yaratib beradi.

Muayyan davlatning ma’muriy-hududiy tuzilishini tadqiq etishda davlat tuzilishi shakli tushunchasiga alohida e’tibor qaratish lozim. Ushbu tushunchalar o‘zaro uzviy aloqadorlikda bo‘lib, bir-birini mantiqan to‘ldiradi. Davlat tuzilishi — davlat shaklining fundamental tarkibiy qismi hisoblanib, u bevosita mamlakat oldida turgan strategik maqsad va vazifalar bilan belgilanadi. Nazariy jihatdan, davlat tuzilishi shakli deganda, davlat hokimiyatining ma’muriy-hududiy jihatdan tashkil etilishi, davlat va uning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi aloqalar, shuningdek, markaziy hamda mahalliy boshqaruv idoralari o‘rtasidagi munosabatlarning huquqiy tabiati tushuniladi.

Shu nuqtayi nazardan, davlat tuzilishi tushunchasi davlatning ma'muriy-hududiy bo'linish tamoyillarini, hududiy birliklarning yuridik maqomini hamda markaziy davlat organlarining joylardagi mahalliy tuzilmalar bilan o'zaro aloqalari qanday mezonlar asosida qurilishini qamrab oladi. Mazkur tizim hokimiyat vakolatlarining hududlar bo'yicha taqsimlanishini va davlat yaxlitligini ta'minlashning huquqiy mexanizmlarini ifodalovchi muhim omil sanaladi.

Milliy davlat tuzilishi tushunchasi davlatning ichki tuzilishi, uning ma'muriy-hududiy bo'linish tizimi hamda markaziy hokimiyat bilan tarkibiy qismlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ifodalaydi. Bu tushuncha davlat va uning hududiy birliklarining huquqiy maqomini, ularning vakolatlari doirasi va xarakterini belgilab beruvchi murakkab huquqiy kategoriya hisoblanadi. Ma'muriy-hududiy tuzilish esa davlat tuzilishining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, davlat o'zining fundamental funksiya va vazifalarini samarali amalga oshirishi uchun mamlakat hududini muayyan bo'laklarga taqsimlash jarayonini anglatadi. Aynan shu hududiy birliklar doirasida davlat apparatining mahalliy organlari strukturasi shakllantiriladi, shu sababli ham davlatning hududiy tashkil etilishi ma'muriy-hududiy tuzilish deb yuritiladi.

Ta'kidlash joizki, davlatni hududiy jihatdan tashkil etish faqatgina ma'muriy-boshqaruv maqsadlari bilan cheklanib qolmay, o'z oldiga qo'yilgan vazifalarga ko'ra quyidagi shakllarda ham namoyon bo'lishi mumkin:

-Iqtisodiy-hududiy shakl: Masalan, investitsiyalarni jalb etishga yo'naltirilgan erkin iqtisodiy va savdo zonalarini;

-Harbiy-hududiy shakl: Mudofaa qobiliyatini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan Toshkent, Markaziy, Shimoli-g'arbiy, Janubi-g'arbiy va Sharqiy kabi harbiy okruglar;

-Siyosiy-hududiy shakl: Etnik masalalarni tartibga solish va barqarorlikni saqlashga xizmat qiladigan maxsus mintaqalar;

-Ekologik-hududiy shakl: Masalan, Orol va Orolbo‘yi hududlari kabi alohida muhofaza qilinadigan, o‘ziga xos ekologik maqomga ega bo‘lgan quruqlik va suv akvatoriyalari.

Federativ davlat modellarida ma‘muriy-hududiy birliklar o‘zining qonunchilik tizimi, konstitutsiyasi va davlat ramzlariga ega bo‘lishi bilan ajralib turadi. Ma‘muriy-hududiy birlik davlat tuzilishi tizimining mustaqil bo‘g‘ini bo‘lib, u bir necha bosqichli ierarxiyada tashkil etilishi mumkin. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi ham ko‘p pog‘onali (viloyat, tuman, shahar, qishloq va ovul) ma‘muriy-hududiy tuzilishga ega bo‘lib, bu tizim davlat boshqaruvining joylarda samarali va qamrovli amalga oshirilishini ta‘minlaydi.

Muayyan hududni mustaqil ma‘muriy-hududiy birlik sifatida e‘tirof etish jarayoni faqatgina mahalliy davlat hokimiyati organlarining shakllantirilishi bilan cheklanib qolmay, balki ushbu hududning iqtisodiy va madaniy rivojlanish darajasi, shuningdek, aholining demografik joylashuv xususiyatlari bilan ham uzviy bog‘liqdir. Davlat va huquq nazariyasi fanining umumtan olingan qoidalariga ko‘ra, davlatning ichki tuzilishi, uning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi o‘zaro huquqiy munosabatlar, markaziy va mahalliy hokimiyat organlarining o‘zaro aloqa xarakteri hamda ma‘muriy-hududiy birliklarning yuridik maqomiga binoan davlat tuzilishi shakli, odatda, unitar, federativ va konfederativ turlarga bo‘linadi. Unitar davlat (fransuzcha «unitaire» – oddiy-yagona) o‘z tarkibida suveren davlat tuzilmalari mavjud bo‘lmagan, yaxlit va bo‘linmas siyosiy tizimdir. Hozirgi kunda ushbu shakl jahonda eng keng tarqalgan davlat tuzilishi ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, Yaponiya, Italiya, va Ukraina kabi mamlakatlar shular jumlasidandir. Unitar davlatlar huquqiy jihatdan teng maqomga ega bo‘lgan viloyatlar, guberniya yoki grafliklar kabi ma‘muriy-hududiy qismlardan tashkil topadi. O‘zbekiston Respublikasi ham o‘zining davlat qurilishi nuqtayi nazaridan unitar davlat hisoblanadi. Garchi aksariyat unitar davlatlar, shu jumladan, O‘zbekiston ham viloyat, tuman, shahar va qishloq kabi ma‘muriy-hududiy bo‘linishga ega bo‘lsa-da, mazkur

hududiy birliklar mustaqil davlat tuzilmasi alomatlariga ega bo'lmaydi. Unitar davlatlar o'ziga xos huquqiy belgilari bilan ajralib turadi, xususan, ularda oliy davlat hokimiyati organlarining yagona tizimi amal qiladi, yaxlit Konstitutsiya va qonunchilik tizimi ustuvorlik kasb etadi, yagona fuqarolik instituti mavjud bo'ladi hamda davlat hududi bo'linmas va daxlsiz hisoblanadi. Bunday davlatlarga xos bo'lgan markazlashtirish tamoyili turli siyosiy va huquqiy sharoitlardan kelib chiqib, turlicha shakl va darajalarda namoyon bo'lishi mumkin.

Qonun ijodkorligi jarayonining ikkinchi bosqichida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi taqdim etilgan loyihalarni protsessual qoidalarga qat'iy rioya qilgan holda ko'rib chiqishga majburdir. Bunda palata qonun loyahasini

qabul qilish yoki rad etish huquqiga ega. Qonunchilik palatasiga kelib tushgan loyiha Spiker tomonidan dastlabki tarzda ko‘rib chiqish uchun mas‘ul qo‘mitaga yo‘naltiriladi.

Mas‘ul qo‘mita loyihani ko‘rib chiqish uchun qabul qilish imkoniyati yoki uni qonunchilik tashabbusi subyektiga qaytarish zarurligi to‘g‘risida belgilangan muddatda Qonunchilik palatasi Kengashiga xulosa taqdim etadi. Kengash ushbu xulosa asosida loyihani muhokamaga kiritish yoki talablarga nomuvofiq bo‘lgan taqdirda qaytarish haqida qaror qabul qiladi. Aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilgach, qonun loyihasi Qonunchilik palatasiga yangidan kiritilishi mumkin.

Agar muayyan masala bo‘yicha qonun loyihasi palata tomonidan birinchi o‘qishda qabul qilingan bo‘lsa, aynan shu masala bo‘yicha boshqa loyiha ko‘rib chiqish uchun qabul qilinmaydi. Qonun loyihasi qabul qilingan taqdirda, Kengash uni majlisda ko‘rib chiqishga tayyorlash muddatini belgilaydi. Ko‘rib chiqish uchun qabul qilingan loyiha tegishli materiallar bilan birga palata qo‘mitalariga yuboriladi.

Qonun loyihasini dastlabki tarzda muhokama qilish va birinchi o‘qishga tayyorlash jarayoni mas‘ul qo‘mita tomonidan amalga oshiriladi. Qo‘mitalardagi muhokamalar ochiq tarzda o‘tkazilib, unda qonun loyihasini kiritgan subyektning vakili ishtirok etishi shart hisoblanadi. Mazkur jarayon loyihaning huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan pishiq tayyorlanishini ta‘minlaydi.

Agar Qonunchilik palatasi Kengashi tomonidan boshqa muddat belgilangan bo‘lmasa, mas‘ul qo‘mita qonun loyihasi olingan kundan e‘tiboran ikki oy ichida quyidagilarni tayyorlaydi:

- Qonunchilik palatasi Kengashining qonun loyihasini birinchi o‘qishda ko‘rib chiqish uchun palataga kiritish to‘g‘risidagi qarori loyihasini;
- Mas‘ul qo‘mitaning mazkur qonun loyihasini qabul qilish yoki rad etish zarurligi asoslangan holdagi xulosasini.

Ushbu hujjatlar ko'rib chiqish uchun Qonunchilik palatasi Kengashiga taqdim etiladi. Kengash mas'ul qo'mita taqdim etgan materiallar asosida qonun loyihasini birinchi o'qishda ko'rib chiqish uchun palata majlisining kun tartibi loyihasiga kiritish to'g'risida qaror qabul qiladi. Qonunchilik palatasi qonun loyihasini, qoida tariqasida, uch o'qishda ko'rib chiqadi.

Birinchi o'qishda ko'rib chiqish chog'ida qonun loyihasini qabul qilish zarurati, uning konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarga muvofiqligi, shuningdek, qonunni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar va moliyalash manbalari muhokama qilinadi. Muhokama natijalari bo'yicha palata qonun loyihasini maromiga yetkazish va keyingi o'qishga kiritish muddatini belgilagan holda uni qabul qilish yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Agar muhokamaga qonun loyihasining muqobil variantlari kiritilgan bo'lsa, ular bir vaqtda ko'rib chiqiladi. Deputatlarning qaror qabul qilish uchun talab qilinadigan eng ko'p miqdordagi ovozi to'plagan variant birinchi o'qishda qabul qilingan hisoblanadi, qolganlari esa rad etilgan sanaladi.

Ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida mas'ul qo'mita tushgan barcha takliflarni umumlashtiradi va asosli deb topilganlarini loyiha matniga kiritadi. Ikkinchi o'qishda mas'ul qo'mita tomonidan ma'qullangan va ma'qullanmagan barcha takliflar deputatlar tomonidan muhokama qilinadi. Qonun loyihasi bo'yicha ovoz berish moddama-modda o'tkaziladi. Muhokama yakunida loyihani keyingi bosqichga o'tkazish yoki rad etish haqida qaror qabul qilinadi.

Uchinchi o'qishda qonun loyihasi qo'shimcha muhokamalarsiz to'raligicha ovozga qo'yiladi. Alohida holatlarda, agar qonun loyihasi birinchi yoki ikkinchi o'qishda pishiq-puxta tayyor bo'lsa, mas'ul qo'mitaning taklifiga binoan qonunni keyingi o'qish tartib-taomillarini istisno etgan holda (ya'ni darhol yakuniy tahrirda) qabul qilish masalasi ovozga qo'yilishi mumkin.

Qonun ijodkorligi jarayonining navbatdagi bosqichlari qabul qilingan loyihalarni yuqori palata tomonidan ko'rib chiqish va huquqiy kuchga ega qilish mexanizmlarini qamrab oladi.

Qonun chiqarish jarayonining uchinchi bosqichi

Oliy Majlis vakolatlarini amalga oshirishning asosiy huquqiy shakli u qabul qiladigan qonun hujjatlaridir. O'zbekiston Respublikasining qonunlari parlament tomonidan qabul qilinadigan fundamental hujjatlar hisoblanadi. Qonun loyihasi Qonunchilik palatasi tomonidan deputatlar umumiy sonining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Biroq, alohida huquqiy maqomga ega hujjatlar — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, konstitutsiyaviy qonunlar, shuningdek, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonun loyihalarini qabul qilish uchun Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi talab qilinadi. Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonun o'n kun ichida Senatga ko'rib chiqish uchun yuboriladi.

Qonun chiqarish jarayonining to'rtinchi bosqichi

Senatga kelib tushgan qonun rasmiy ro'yxatga olinadi va Senat Raisi tomonidan qonunni ko'rib chiqadigan hamda tegishli xulosa tayyorlaydigan mas'ul qo'mitaga topshiriladi. Mas'ul qo'mitaning xulosasida qonunni ma'qullash yoki rad etish to'g'risidagi tavsiya asoslantirilgan holda ifodalanishi shart.

Agar qo'mita qonunni rad etish zarur deb topsa, o'z xulosasida ushbu qarorga asos bo'lgan barcha vajlarni aniq bayon etishi lozim. Mas'ul qo'mitaning xulosasi Senat Kengashiga taqdim etiladi. Kengash esa qonunni Senat majlisining kun tartibi loyihasiga kiritish yoki kiritmaslik to'g'risida yakuniy qaror qabul qiladi.

Senat tomonidan ko'rib chiqilgan qonun ma'qullansa, u keyingi bosqichga o'tkaziladi. Agar Oliy Majlis Senati tomonidan qonun rad etilsa, u holda hujjat kamchiliklarni bartaraf etish va qayta ishlash uchun Qonunchilik palatasiga

qaytariladi. Bu mexanizm parlamentning ikki palatasi o'rtasidagi o'zaro tiyib turish va muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Agar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonunni qayta ko'rib chiqishda Qonunchilik palatasi deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan qonunni yana ma'qullasa, qonun Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan hisoblanadi. Bunday holatda qonun imzolanishi va e'lon qilinishi uchun to'g'ridan-to'g'ri Qonunchilik palatasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga yuboriladi.

Senat tomonidan rad etilgan qonun yuzasidan yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish maqsadida Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari orasidan tenglik asosida kelishuv komissiyasi tuzilishi mumkin. Palatalar kelishuv komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan takliflarni qabul qilgan taqdirda, qonun loyihasi odatdagi tartibda qayta ko'rib chiqiladi.

Senat majlisida qonunni ko'rib chiqish jarayoni mas'ul qo'mita xulosasining o'qib eshittirilishi bilan boshlanadi. Muhokama davomida senatorlar ko'rilayotgan qonun yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirishlari va so'zga chiqishlari mumkin. Qonun Senat tomonidan senatorlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan ma'qullanadi. Biroq, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, konstitutsiyaviy qonunlar hamda ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonunlarni ma'qullash uchun senatorlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi talab qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 95-moddasiga binoan, Qonunchilik palatasi tarqatib yuborilgan davrda Oliy Majlisning qonunlarni qabul qilishga doir vakolatlarini Senat amalga oshiradi (Konstitutsiya va konstitutsiyaviy qonunlar bundan mustasno).

Qonunlarni amalga kiritish tartibiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining qonunlari Prezident tomonidan imzolanganidan keyin uzog'i bilan bir hafta ichida rasmiy manbalarda e'lon qilinadi. Agar qonun hujjatining o'zida

boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa, qonunlar rasman e'lon qilinganidan o'n kun o'tgach, respublika hududida bir vaqtning o'zida kuchga kiradi. Qonunlar matnining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi", "Xalq so'zi" va "Narodnoye slovo" gazetalarida chop etilishi ularning birinchi marta rasman e'lon qilinishi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining qonunlari o'ziga xos huquqiy tabiatga va oliy yuridik kuchga ega bo'lgan hujjatlardir. Ular faqatgina Oliy Majlis palatalari tomonidan, qonun bilan belgilangan qat'iy tartibda qabul qilinadi va butun O'zbekiston xalqining xohish-irodasini ifoda etadi. Qonun o'zida umummajburiy huquqiy qoidalarni mujassam etganligi sababli, u oliy darajadagi huquqiy-normativ hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan qonunlarning ijrosi barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir. Davlat organlari tomonidan qabul qilinadigan barcha boshqa huquqiy-normativ hujjatlar (qarorlar, buyruqlar, ko'rsatmalar) qonunga muvofiq bo'lishi shart. O'zbekiston qonunlari barcha subyektlar faoliyatining huquqiy asosi bo'lib, davlat organlari chiqaradigan boshqa har qanday hujjatlardan ustun turadi.

Oliy Majlis o'zining konstitutsiyaviy vakolatlarini samarali amalga oshirish maqsadida qonuniy tartibda muayyan organlarni tuzadi va ularning faoliyatini muvofiqlashtiradi. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Qonunning 23–26-moddalarida deputatlar birlashmalari, xususan, fraksiyalar va deputatlar guruhlarini tuzish tartibi, ularning vakolatlari hamda faoliyatini tugatish qoidalari belgilangan. Shuningdek, "Oliy Majlis Qonunchilik palatasining reglamenti to'g'risida"gi Qonunda ham deputatlar fraksiyalari va guruhlarining huquqiy maqomi mustahkamlangan.

Siyosiy partiyalarning jamiyat hayotidagi rolini oshirish maqsadida 2007-yil 11-aprelda qabul qilingan "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy

partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun fraksiyalar faoliyatini yangicha talqin etdi. Mazkur qonunning 2-moddasiga binoan:

Siyosiy partiya fraksiyasi — siyosiy partiyadan ko'rsatilgan deputatlar tomonidan partiya manfaatlarini Oliy Majlis Qonunchilik palatasida ifodalash maqsadida tuziladigan va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan deputatlar birlashmasidir.

Fraksiyalar qonun loyihalarini muhokama qilishda partiyaviy nuqtayi nazarni ilgari surish, davlat boshqaruvi va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda siyosiy irodani aks ettirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida siyosiy kuchlar muvozanati va parlament nazorati mexanizmlari qonun bilan qat'iy tartibga solingan. Mazkur tizimda parlamentdagi ko'pchilik va muxolifat tushunchalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Qonunchilik palatasida ko'pchilik o'rinni egallagan siyosiy partiya fraksiyasi **parlamentdagi ko'pchilikni** tashkil etadi. Shuningdek, dasturiy maqsadlari yaqin bo'lgan bir nechta fraksiyalar hamda O'zbekiston ekologik harakatidan (hozirda Ekologik partiyadan) saylangan deputatlar blok tuzgan holda parlamentdagi ko'pchilik sifatida e'tirof etilishi mumkin. Yangi shakllantirilgan hukumatning tutgan yo'li va dasturiga qo'shilmaydigan fraksiyalar hamda deputatlar o'zlarini **parlamentdagi muxolifat** deb e'lon qilish huquqiga ega.

Parlamentdagi muxolifat sifatida ro'yxatga olingan fraksiyalar qonunda belgilangan umumiy vakolatlar bilan bir qatorda quyidagi qo'shimcha huquqlardan foydalanadi:

- Mas'ul qo'mitaning ma'ruzasi bilan bir vaqtda ko'rilayotgan qonun loyahasining **muqobil tahririni** kiritish;
- Muhokama etilayotgan masalalar yuzasidan o'zining alohida fikrini palataning yalpi majlisi bayonnomasiga qayd etish;

- Senat tomonidan rad etilgan qonun bo'yicha tuziladigan **kelishuv komissiyasida** o'z vakillarining ishtirokini kafolatli ta'minlash.

Parlamentdagi muxolifatning ushbu huquqlari qonun bilan himoyalangan bo'lib, parlamentdagi ko'pchilik tomonidan ularning kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. Fraksiyalar yoki bloklarga birlashish siyosiy partiyalarning qonuniy mustaqilligini cheklamaydi deb aytilgan.

Deputatlarning birlashmalardagi ishtiroki borasida "bir partiya – bir fraksiya" tamoyili amal qiladi. Ya'ni, muayyan siyosiy partiyadan saylangan deputat faqat o'sha partiya fraksiyasining a'zosi bo'lishi mumkin. Oliy Majlis deputati bir vaqtning o'zida faqat bitta deputatlar birlashmasida (fraksiya yoki guruhda) bo'lishga haqli.

Fraksiyalar va deputatlar guruhleri o'z faoliyatini belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgandan so'ng boshlaydi. Ro'yxatdan o'tish uchun fraksiya yoki guruh rahbari ariza bilan murojaat qilib, tuzilgan birlashmaning maqsad va vazifalari to'g'risida rasmiy axborot taqdim etishi lozim. Barcha deputatlar birlashmalari o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida siyosiy partiyalar fraksiyalari va deputatlar guruhlarini ro'yxatga olish masalasi palataning maxsus qarori bilan rasmiylashtiriladi. Parlament birlashmalarining huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan **fikrlar xilma-xilligi va ko'ppartiyaviylik** tamoyillariga tayanadi.

Siyosiy partiyalar jamiyatning turli qatlamlari irodasini ifoda etuvchi institut sifatida davlat hokimiyatini shakllantirishda ishtirok etadi. Shu maqsadda, 1996-yil 26-dekabrda «**Siyosiy partiyalar to'g'risida**»gi Qonunning 13-moddasiga binoan, fraksiyalar o'z partiyalarining siyosatini parlamentda uyushqoqlik bilan amalga oshirish uchun deputatlarning ta'sis yig'ilishlarida aytiladi.

Qonunchilik palatasi fraksiyalari va deputatlar guruhleri quyidagi kafolatlangan huquq va vakolatlarga ega:

1. Majlis kun tartibi va masalalarni ko‘rib chiqish tartibi yuzasidan takliflar kiritish.
2. Har bir fraksiya o‘z vakilining Qonunchilik palatasi Spikeri o‘rinbosari lavozimlaridan birini egallashida kafolatli huquqqa ega.
3. Muhokama qilinayotgan har bir masala yuzasidan fraksiya vakiliga so‘z berilishi kafolatlanadi.
4. Kelishuv va boshqa muvaqqat komissiyalarni tuzish tashabbusi bilan chiqish.
5. Davlat organlari mansabdor shaxslariga asoslantirilgan tushuntirish berish talabi bilan murojaat qilish.
6. Muhokama qilinayotgan masalalar bo‘yicha fraksiya nuqtayi nazarini deputatlar o‘rtasida tarqatish.
7. Palata Kengashi, qo‘mita va komissiyalari ishida bevosita ishtirok etish.
8. Qonun loyihalari va qarorlar yuzasidan o‘z o‘zgartish hamda takliflarini kiritish.
9. Vazirlar Mahkamasi a‘zolarining o‘z faoliyati yuzasidan hisobotlarini eshitish masalasini ko‘tarish.
10. Davlat organlaridan faoliyat uchun zarur bo‘lgan material va hujjatlarni talab qilib olish.
11. Fraksiya va deputatlar guruhlarini rahbarlari palataning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi organ — **Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Kengashi** tarkibiga kiradi.

Ushbu vakolatlar siyosiy partiyalarning parlament orqali davlat boshqaruvida faol ishtirok etishini va jamiyatdagi turli ijtimoiy manfaatlar balansini ta'minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi parlamentarizm tarixida 2000-yil 22-yanvar sanasi alohida ahamiyatga ega, chunki aynan shu kuni Oliy Majlisning II chaqiriq I sessiyasida ilk bor deputatlar bloklari va partiya fraksiyalari rasman ro‘yxatga olingan. Bugungi kunda ham turli siyosiy dasturlarga ega fraksiyalar

qonun ijodkorligi jarayonida o'zaro murosaga tayangan holda eng muhim davlat vazifalarini bajarishda ishtirok etmoqdalar.

Qonunchilik palatasi Spikerini saylash va uning maqomi

Saylovdan keyingi birinchi majlisda deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan **Qonunchilik palatasi Spikeri** saylanadi. Buning uchun deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi talab etiladi. Spikerning maqomi xolislikni ta'minlash maqsadida quyidagi cheklovlar bilan mustahkamlangan:

- Spiker o'z vazifasini bajarish davrida siyosiy partiyaga a'zolikni to'xtatib turadi.
- U biron-bir fraksiya yoki deputatlar guruhi tarkibiga kirishi mumkin emas.
- Spiker palata qo'mitalari tarkibiga saylanmaydi.

Spiker deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozi bilan qabul qilingan qaror asosida muddatidan ilgari chaqirib olinishi mumkin.

Palatalar qo'mitalari va ularning vakolatlari

Qonunchilik palatasi va Senat qo'mitalari parlamentning doimiy ishlovchi organlari hisoblanib, ularning tarkibi deputatlar yoki senatorlarning guruhlariga mansubligi va saylov natijalarini inobatga olgan holda shakllantiriladi.

Qonunchilik palatasi qo'mitalari:

Ushbu qo'mitalar qonun loyihalarini tayyorlash va tahlil qilishning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Ularning asosiy vakolatlari:

- O'z tashabbusi yoki topshiriqqa binoan qonun va qaror loyihalarini tayyorlash.
- Qonun loyihalari bo'yicha xulosalar berish, ularni rad etish yoki kun tartibiga kiritish haqida Kengashga taklif berish.
- Davlat budjeti loyihasi yuzasidan taklif va xulosalar taqdim etish.
- Qonun loyihalarini takomillashtirish uchun olimlar, mutaxassislar va nodavlat tashkilot vakillarini jalb qilgan holda ishchi guruhlar tuzish.

Senat qo‘mitalari:

Senat qo‘mitalari asosan yuqori palata muhokamasiga kiritiladigan masalalarni tayyorlash va qonunlar ijrosini nazorat qilish bilan shug‘ullanadi:

- Qonunchilik palatasidan yuborilgan qonunlar bo‘yicha ma‘qullash yoki rad etish haqida xulosalar berish.
- Senat qarorlari va respublika qonunlarining joylardagi ijrosini nazorat qilish.
- O‘z vakolati doirasida Senat hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish.

Har ikki palata qo‘mitasining barcha a‘zolari teng huquqlidir. Qo‘mita tarkibiga kirmagan parlament a‘zosi uning ishida **maslahat ovozi** huquqi bilan qatnashishi mumkin. Qo‘mitalar o‘zlari mansub bo‘lgan palata oldida mas‘ul va unga hisobdordirlar.

Savol va topshiriqlar

1. Oliy Majlis qanday vakolatlarga ega ekanini yozing.
2. So‘nggi yillarda Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan muhim qonunlardan birini tanlang va uni qisqacha tahlil qiling.
3. Oliy Majlis faoliyatini oshkoralik nuqtai nazaridan baholang (masalan, saylov ochiqligi, xalq bilan aloqa, deputatlarning faoliyati).
4. Ikki palatali parlament tizimi O‘zbekiston uchun qanchalik samarali?
5. Oliy Majlis qonunchilik faoliyatida qanday islohotlar kerak, deb o‘ylaysiz?
6. Oliy Majlis faoliyatida fuqarolarning ishtiroki qanday kuchaytirilishi mumkin?

**12-- MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PRIZIDENTI.
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI**

REJA:

- 1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**
2. Vazirlar Mahkamasining prezident va parlament oldidagi mas’uliyati
3. Mahalliy davlat hokimiyati tushunchasi va ahamiyati

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti — O‘zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘idir. O‘zbekistonda prezidentlik lavozimi 1990-yil 24-martda ta’sis etilgan bo‘lib, hozirgi kunda uning huquqiy maqomi va saylanish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda tegishli saylov qonunchiligi bilan belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 106-moddasiga binoan, Prezident lavozimiga quyidagi talablarga javob beradigan shaxs saylanishi mumkin:

- 35 yoshdan kichik bo‘lmagan;
- Davlat tilini (o‘zbek tilini) yaxshi biladigan;
- Bevosita saylovga kamida 10 yil O‘zbekiston hududida muqim yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi.

Prezident saylovi mamlakatning 18 yoshga to‘lgan fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkaziladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 7 yil muddatga saylanadi. Prezidentni saylash tartibi "O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida"gi qonun va uning yangi tahrirlarida belgilangan moddalar asosida amalga oshiriladi.

Prezidentlikka nomzod ko‘rsatish huquqiga siyosiy partiyalar va bevosita fuqarolar egadirlar. Saylash huquqiga ega bo‘lgan fuqaro yoki fuqarolar guruhi nomzod ko‘rsatish uchun kamida 300 nafar saylovchidan iborat saylovchilar tashabbuskor guruhini tuzishi lozim. Nomzodlar ko‘rsatish jarayoni saylovga 65 kun qolganda boshlanadi va 45 kun qolganda yakunlanadi. Bu jarayon siyosiy

partiyalarning yuqori organlari yoki tashabbuskor guruhlarning yig'inishlari orqali amalga oshiriladi.

Saylov natijalarini aniqlash tartibi nomzodlar soniga bog'liq:

- Agar saylovda 2 ta nomzod ishtirok etsa, ovoz berishda qatnashgan saylovchilarning nisbiy ko'pchilik ovozini olgan nomzod saylangan hisoblanadi.
- Agar 2 tadan ortiq nomzod ishtirok etib, ularning hech biri saylovchilar yarmidan ko'pining (50% dan ortiq) ovozini ololmasa, eng ko'p ovoz to'plagan 2 nafar nomzod ishtirokida takroriy ovoz berish o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi yakunlari to'g'risidagi rasmiy axborot saylov o'tganidan keyin 10 kundan kechiktirmay Markaziy saylov komissiyasi tomonidan e'lon qilinadi. Saylangan shaxs O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi yig'ilishida qasamyod qilgan paytdan boshlab o'z vazifasiga kirishadi.

Saylangan Prezident O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan saylov natijalari rasmiy tarzda e'lon qilingan kundan e'tiboran kechi bilan 2 oy ichida Oliy Majlis yig'ilishida qasamyod qilgan paytdan boshlab o'z lavozimiga kirishadi. Prezident quyidagicha tantanali qasamyod qiladi:

"O'zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, respublikaning Konstitutsiyasi va qonunlariga qat'iy rioya etishga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga kafolat berishga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qilaman".

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari uning davlat hokimiyati organlari tizimidagi o'rnini belgilab beradi. Konstitutsiyaning XIX bobi Prezidentning huquqiy maqomiga, 109-moddasi esa uning bevosita vakolatlariga bag'ishlangan. Ushbu vakolatlarni mazmuniga ko'ra shartli ravishda qonunchilik va qonuniylik, davlat organlarini tuzish, fuqarolarning

huquq va manfaatlarini ta'minlash hamda xalqaro munosabatlar sohalariga bo'lish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining, mamlakat suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligining kafilidir. U mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O'zbekiston nomidan ish ko'radi, muzokaralar olib boradi hamda xalqaro shartnomalarni imzolaydi. Shuningdek, Prezident o'z huzurida akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik vakillarning ishonch yorliqlarini qabul qiladi va O'zbekistonning chet davlatlardagi diplomatik vakillari nomzodlarini Senatga taqdim etadi.

Davlat organlarini shakllantirish sohasida Prezident vazirliklar va boshqa ijro etuvchi hokimiyat organlarini tuzadi hamda tugatadi, Senat raisi, Bosh vazir va Vazirlar Mahkamasi a'zolari nomzodlarini taqdim etadi yoki tayinlaydi. Bosh prokuror va Hisob palatasi raisini Senat ma'qullaganidan keyin tayinlaydi, Davlat xavfsizlik xizmati raisini esa Senat bilan maslahatlashuvlardan keyin lavozimga qo'yadi. Shuningdek, Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Sudyalar oliy kengashi, Markaziy bank boshqaruvining raisi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish va monopoliyaga qarshi organ rahbarlari nomzodlarini Senatga taqdim etiladi.

Qonunchilik sohasida Prezident qonunlarni imzolaydi va e'lon qiladi, zarur hollarda qonunni e'tirozlar bilan qayta ko'rib chiqish uchun Oliy Majlisga qaytarish huquqiga ega. Ijro hokimiyati organlari va hokimlarning hujjatlarini to'xtatish yoki bekor qilish vakolatiga ega, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishi mumkin.

Mudofaa va xavfsizlik sohasida Prezident Qurolli Kuchlarning Oliy Bosh qo'mondoni hisoblanadi. U urush holati, safarbarlik yoki favqulodda holat joriy etish haqida qarorlar qabul qiladi va ularni tasdiqlash uchun Oliy Majlis palatalariga kiritadi. Xavfsizlik kengashini tuzadi va unga boshchilik qiladi.

Bundan tashqari, Prezident davlat mukofotlari va faxriy unvonlar beradi, fuqarolik va siyosiy boshpana masalalarini hal qiladi, amnistiya to'g'risida

taqdimnomalar kiritadi hamda afv etishni amalga oshiradi. O'z vakolatlarini bajarishni ta'minlash maqsadida Prezident Administratsiyasini va maslahat-kengash organlarini shakllantiradi. Prezident o'z vakolatlarini bajarishni boshqa davlat organlariga yoki mansabdor shaxslarga topshirishga haqli emasligi aytib o'tilgan.

Shuningdek, Prezident Konstitutsiya va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. Prezident Qonunchilik palatasi yoki Senat tarkibida ularning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda yoxud ular bir necha marta Konstitutsiyaga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda ikki palatani tarqatib yuborishi mumkin. Vazirlar Mahkamasining faoliyatini tashkil etish tartibi va vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi.

Konstitutsiyaning tegishli moddalariga asosan, Respublika Prezidenti Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlarni imzolaydi. Bu holat esa Oliy Majlis qabul qilgan qonun faqat Respublika Prezidenti imzosidan keyingina kuchga kirishini bildiradi, Qonunga e'tirozi bo'lganda Prezident o'z e'tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo'yish uchun Oliy Majlisga qaytarishga, ya'ni veto huquqidan foydalanishga haqlidir. Agar qonun avvalgi qabul qilingan tahririda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan ma'qullansa, qonun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o'n to'rt kun ichida imzolanishi va e'lon qilinishi shart.

Prezident qonuniylik ta'minlanishining kafilidir. Uning faoliyati qonuniylikni ta'minlashda ishtirok etuvchi organlarni tuzishda va ularning faoliyatini nazorat qilib turishda o'z ifodasini topadi. Respublika Prezidenti prokuratura organlarining rahbarlarini tayinlaydi hamda qonunlar ijrosini ta'minlash sohasidagi faoliyatni nazorat qiladi. Bundan tashqari, Respublika Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, Konstitutsiya va davlat

qonunlariga amal qilinishiga, davlat organlari va mansabdor shaxslarning qonunchilikni amalga oshirishlariga kerakli sharoitlar yaratadi.

Prezidentning davlat organlarini tuzishdagi vakolatlari ham Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan. Unga ko'ra, Respublika Prezidentiga davlat organlarini tuzish va ularning rahbarlarini tayinlash borasida keng vakolatlar berilgan. Bunda ularning ayrimlarini Prezident bevosita o'zi tuzadi yoki ularni tayinlash, saylash va tasdiqlash uchun nomzodlar tavsiya qiladi. Respublika Prezidenti davlat rahbari sifatida respublikadagi davlat oliy hokimiyati va boshqaruv organlarining ishlarini yo'naltirib, ularning bahamjihat ishlashini ta'minlab turadi. U hokimiyat va boshqaruv organlarini o'zaro bog'lash vazifasini bajarib keladi.

O'zbekiston vazirliklari, davlat qo'mitalari va ularga tenglashtirilgan idoralar Respublika Prezidentining farmoni bilan tuziladi yoki tugatiladi. Ushbu farmonlar tasdiqlash uchun Oliy Majlisga kiritiladi. Bosh vazir, uning o'rinbosarlari va Vazirlar Mahkamasining boshqa a'zolari ham Respublika Prezidenti tomonidan tayinlanadi yoki lavozimidan ozod qilinadi. Shuningdek, Prezident Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud raisi va a'zolari, Markaziy bank boshqaruvining raisi lavozimiga nomzodlarni Oliy Majlisga taqdim etadi.

Prezident Respublika Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini tayinlaydi hamda lavozimidan ozod qiladi (bu masalani tasdiqlash uchun Senatga kiritadi). Viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarini tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi, ushbu masalalarni tegishli xalq deputatlari kengashlari tasdig'iga qo'yadi. Viloyat, tuman, shahar va harbiy sudlarning sudyalari ham qonunchilikda belgilangan tartibda Respublika Prezidenti tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Respublika Prezidenti Konstitutsiyani va qonunlarni buzgan yoinki o'z sha'ni va qadr-qimmatiga dog' tushadigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini ham o'z qarori bilan lavozimidan ozod etish huquqiga ega. Shuningdek, u milliy xavfsizlik va davlat nazorati xizmatlarini tuzadi, ularning rahbarlarini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi. Prezident Qurolli

Kuchlarning Oliy Bosh qo‘mondoni sifatida oliy qo‘mondonlarni tayinlaydi hamda oliy harbiy unvonlar beriladi.

Vazirlar Mahkamasi va uning javobgarligi

Konstitutsiyaning 116-moddasiga binoan, Vazirlar Mahkamasi barcha organlar, muassasalar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. Hukumat o‘z faoliyatida ham Oliy Majlis, ham Prezident oldida javob beradi.

Yangi saylangan Oliy Majlis oldida amaldagi Vazirlar Mahkamasi o‘z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi. Biroq, yangi tarkib shakllantirilguniga qadar Prezident qaroriga muvofiq o‘z faoliyatini davom ettirib turadi.

Parlamentni tarqatib yuborish va xavfsizlik choralari

Agar parlament palatalari faoliyatida hal qilib bo‘lmaydigan ixtiloflar yuzaga kelsa, Konstitutsiyaning 111-moddasiga ko‘ra, Prezident Konstitutsiyaviy sud bilan maslahatlashgan holda Qonunchilik palatasi va Senatni tarqatib yuborishi mumkin. Shuni ta’kidlash lozimki, favqulodda holat joriy etilgan davrda Oliy Majlisni tarqatib yuborishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Prezident — inson huquqlari va qonuniylik kafili

Prezident fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining kafilidir. U o‘z lavozimiga kirishish paytida Oliy Majlis yig‘ilishida xalqqa sadoqat bilan xizmat qilishga tantanali qasamyod qiladi:

"O‘zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, respublikaning Konstitutsiyasi va qonunlariga qat’iy rioya etishga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga kafolat berishga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qilaman."

Ushbu vakolatlar davlat rahbariga fuqarolarning burchlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, mamlakatda barqarorlik va huquqiy tartibni saqlash bo‘yicha shaxsiy mas’uliyat yuklanadi.

Respublika Prezidenti fuqarolarning huquq va erkinliklarini nafaqat mamlakat hududida, balki uning tashqarisida, boshqa chet davlatlar hududlarida ham ta'minlashning asosiy kafili hisoblanadi. Prezident inson huquqlarini himoya qilish uchun shaxsan javobgar bo'lib, fuqarolik masalalarini (fuqarolikka qabul qilish, undan chiqarish) hamda siyosiy boshpana berish masalalarini hal etadi. Shuningdek, u fuqarolarni davlatning ordenlari, medallari va faxriy yorliqlari bilan taqdirlaydi.

Xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi vakolatlar

Fuqarolarning xavfsizligini saqlash borasida Prezidentga keng vakolatlar berilgan. Real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokatlar, tabiiy ofatlar yoki epidemiyalar kabi favqulodda vaziyatlar yuz berganda, Prezident butun hududda yoki uning ayrim joylarida **favqulodda holat** joriy etadi. Mazkur qaror qabul qilinganidan so'ng uch kun mobaynida Oliy Majlis tasdig'iga kiritilishi shart.

Bundan tashqari, Prezident insonparvarlik tamoyillaridan kelib chiqib:

- Davlat miqyosidagi bayramlar munosabati bilan amnistiya to'g'risida taqdimnomalar kiritadi;
- Sudlar tomonidan hukm qilingan shaxslarni **afv etish** (sudlanganlikni olib tashlash yoki jazoni yengillatish) masalasini hal qiladi.

Xalqaro munosabatlar sohasidagi vakolatlar

O'zbekiston Prezidenti xalqaro munosabatlarda respublika nomidan ish ko'ruvchi oliy vakildir. Uning bu sohadagi faoliyati quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

- Mamlakat tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi;
- Chet davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan muzokaralar olib boradi, xalqaro shartnoma hamda bitimlarni imzolaydi;
- O'z huzurida akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi;
- O'zbekistonning chet davlatlardagi elchilari va vakillarini tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi;

- Oliy Majlisga har yili mamlakatning ichki va tashqi holati to'g'risida ma'lumotnoma taqdim etadi.

Mamlakatga hujum qilinganda yoki mudofaa shartnomalari bo'yicha majburiyatlarni bajarish zarur bo'lganda, Prezident **urush holati** e'lon qilish huquqiga ega (qaror 3 kun ichida Oliy Majlis tasdig'iga kiritiladi).

Prezident Administratsiyasining o'rni

Prezident Administratsiyasi (avvalgi Prezident devoni) alohida davlat hokimiyati organi hisoblanmaydi. Uning asosiy vazifasi — davlat rahbarining o'z vakolatlarini samarali amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan tashkiliy, huquqiy-maslahat va moddiy-texnik sharoitlarni yaratishdir. Shuningdek, bu tuzilma Prezidentning boshqa davlat organlari bilan o'zaro aloqasini mustahkamlashga yordam beradi.

Respublika Prezidenti o'z faoliyatining asosiy sohalari bo'yicha davlat maslahatchilarini tayinlaydi va ular orqali Prezident Administratsiyasi (devoni) ishiga rahbarlik qiladi. O'zbekistonda davlat boshqaruvining Prezidentlik Respublikasi shakli doimiy ravishda takomillashib bormoqda va hayotning turli sohalariga rahbarlik qilish uchun yangi maslahat organlari tashkil etilmoqda.

Prezident huzuridagi maslahat organlari

Davlatdagi oliy mansabdor shaxslarning maslahat organi sifatida Prezident huzurida **Xavfsizlik Kengashi** faoliyat yuritadi. Bu kengash milliy xavfsizlikning ustuvor yo'nalishlarini va davlat siyosati asoslarini ishlab chiqishga javob beradi. Shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlashga doir barcha dasturlar ushbu tuzilma rahbarligida rejalashtiriladi.

Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yagona strategiyasini ishlab chiqish va iqtisodiy islohotlarning huquqiy negizini takomillashtirish maqsadida maxsus idoralararo kengashlar ham tuzilgan. Ushbu tuzilmalar tayyorlagan tavsiyalar ko'pincha Prezident farmonlari va qarorlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Prezidentning maqomi va cheklovlar

Konstitutsiyaning 107-moddasiga muvofiq, Prezident o'z vazifasini bajarib turgan davrda:

- Boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashi;
- Vakillik organining deputati bo'lishi;
- Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emas.

Prezidentning shaxsi daxlsizdir va qonun bilan muhofaza etiladi. Konstitutsiyaning 113-moddasiga binoan, vakolati tugashi munosabati bilan iste'foga chiqqan Prezident **umrbod Senat a'zosi** lavozimini egallaydi. Prezidentning daxlsizligi va sha'nini himoya qilishga oid qoidalar u iste'foga chiqqanidan keyin ham o'z kuchini saqlab qoladi.

Prezident hujjatlarining turlari

Prezident Oliy Majlis qabul qilgan qonunlarni amalga oshirish va o'z vakolatlarini yuritish maqsadida respublika hududida majburiy kuchga ega bo'lgan bir necha turdagi hujjatlar qabul qiladi:

1. **Farmonlar:** Ijro hokimiyati tizimidagi eng yuqori yuridik kuchga ega hujjatlar bo'lib, ular asosan strategik ahamiyatga ega bo'lgan muhim normativ-huquqiy hujjatlardir.
2. **Qarorlar:** Farmonlarda belgilangan yechimlarni huquqiy jihatdan batafsil yoritib beradi. Iqtisodiy islohotlarning borishini tartibga soladi va g'oyat muhim sohalarda o'zgarishlar qilish uchun asos bo'ladi.
3. **Farmoyishlar:** Odatda tezkor (operativ) va tashkiliy masalalarni hal etish uchun chiqariladi.

Prezident o'z vakolatlarini bajarishni boshqa davlat organlariga yoki mansabdor shaxslarga topshirishga haqli emas. Uning barcha hujjatlari respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiq bo'lishi shart. Prezidentning qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki uning qadr-qimmatiga putur yetkazish qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Agar Prezident betobligi sababli o'z vazifasini bajara olmasligi davlat tibbiy komissiyasi xulosasi bilan tasdiqlansa, 10 kun ichida Oliy Majlis palatalari

tomonidan deputat va senatorlar orasidan 3 oygacha bo'lgan muddatga vaqtincha bajaruvchi saylanadi. Mazkur 3 oy ichida yangi umumxalq saylovi o'tkazilishi shart. Davlat qurilishi sohasidagi tajribasidan foydalanish maqsadida iste'foga chiqqan Prezident umrbod Senat a'zosi lavozimini egallaydi.

Tarixiy jihatdan, Oliy Kengashning 12-chaqiriq 1-sessiyasida Islom Karimov O'zbekistonning birinchi Prezidenti etib saylangan edi. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi qonun asosida 1991-yil 29-dekabr va 2000-yil 9-yanvarda muqobillik asosida to'g'ridan-to'g'ri umumxalq saylovlari o'tkazildi. 2016-yil 2-sentabrda Islom Karimov vafot etishi munosabati bilan o'tkazilgan navbatdan tashqari saylovlarda Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

O'zbekiston davlatchiligi tarixida prezidentlik institutining joriy etilishi suverenitet va haqiqiy mustaqil boshqaruvga o'tishning prinsipial asosi bo'lib xizmat qildi. Birinchi Prezident I.A. Karimov ta'kidlaganidek, bu institut qayta qurishning murakkab mantiqiy jarayonlari va hayotiy zaruriyat taqozosi bilan vujudga keldi. Dastlabki bosqichda prezidentlik hokimiyati siyosiy tizimning o'zagiga aylanib, davlatning bosh islohotchi sifatidagi rolini belgilab berdi.

O'tish davrida demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati poydevorini barpo etish uchun Prezident zimmasiga strategik vazifalar hamda keng vakolatlar yuklatildi. Bu davrda kuchli prezidentlik boshqaruvi modernizatsiyalashni amalga oshirish, demokratik huquq va erkinliklarning haqiqiy kafili bo'lish hamda jamiyatdagi buzg'unchi jarayonlarning oldini olish uchun zarur edi. Amalga oshirilgan islohotlar natijasida mustaqil sud tizimi, inson huquqlari himoyasi va fuqarolarning siyosiy faolligi oshishi uchun mustahkam zamin yaratildi.

Bugungi kunda mamlakatimizni jadal isloh etish va modernizatsiya qilishning yangi bosqichi mantiqiy davom etmoqda. Ushbu davrda davlat hokimiyati tizimida o'zaro mutanosib va barqaror muvozanatni ta'minlashga qaratilgan

muhim demokratik o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, milliy davlatchiligimiz va bozor iqtisodiyoti qaror topgan sari, ilgari Prezidentga tegishli bo'lgan vakolatlarning bir qismi qonun chiqaruvchi (parlament) va ijro etuvchi (hukumat) tuzilmalarga bosqichma-bosqich o'tkazilmoqda.

Prezidentlik institutining huquqiy asoslari sezilarli darajada takomillashib bormoqda. Buni mustaqillik yillarida Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartishlardan ham ko'rish mumkin: Asosiy qonunga kiritilgan 7 ta o'zgartishning 5 tasi bevosita Prezidentning maqomi va vakolatlariga oid XIX bobdagi moddalarga tegishlidir. Bu jarayon hokimiyatlar o'rtasidagi muvozanatni kuchaytirish va boshqaruv tizimini yanada demokratlashtirishga xizmat qilmoqda.

1990-yil 24-martda demokratiya jarayonlarini yanada rivojlantirish, siyosiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, konstitutsion tuzumni hamda fuqarolarning huquq va xavfsizligini mustahkamlash maqsadida MDH davlatlari ichida birinchi bo'lib O'zbekistonda Prezident lavozimi ta'sis etildi. Ushbu lavozim yangi O'zbekiston davlat hokimiyati tizimida markaziy o'rinni egallab, siyosiy tizimning o'zagiga va davlatchilik binosining asosiy tayanchiga aylandi.

O'zbekistonda prezidentlik instituti milliy an'analarimiz va qadriyatlarimizni rivojlangan demokratik davlatlar tajribasi bilan uyg'unlashtirish natijasida vujudga keldi. Mamlakatimizda Prezidentning saylanishi va vakolatlari xalqaro demokratik standartlarga to'la mos keladi. Konstitutsiyamizning 90-moddasiga ko'ra, Prezident umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan besh yil muddatga saylanadi. Prezidentni bevosita xalq tomonidan saylash usuli uning kuchli vakolatlarga ega bo'lishini hamda fuqarolarning saylovoldi dasturi bilan yaqindan tanishib, o'z nomidan ish yurituvchi shaxsni muqobilik asosida tanlashini ta'minlaydi.

O'zbekistondagi prezidentlik institutining o'ziga xosligi shundaki, davlat boshlig'i fuqarolarning huquq va erkinliklariga, Konstitutsiya va qonunlarga

rioya etilishiga kafil hisoblanadi. Shuningdek, u davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi. Saylov jarayonining moliyaviy ta'minoti to'laqonli davlat mablag'lari hisobidan qoplanishi, nomzodlarga teng efir vaqti va bosma maydon ajratilishi hamda hech qanday saylov garovi talab qilinmasligi tizimning demokratik va adolatli ekanligidan dalolat beradi. Mustaqillik yillaridagi saylovlarda fuqarolarning 90 foizdan ortig'i ishtirok etgani ushbu institutning xalq hayotiga qanchalik yaqinligini ko'rsatadi.

Prezidentlik instituti yetti muhim demokratik belgi orqali tavsiflanadi:

1. Prezident fuqarolar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri saylanib, ularning davlat ishlaridagi vakilligini ta'minlaydi.
2. Nomzod bo'lishda barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati va diniy e'tiqodidan qat'i nazar qonun oldida tengdir.
3. Saylovlar halollik, ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida o'tkaziladi.
4. Prezident vakolatlari qat'iy ravishda Konstitutsiya va qonunlar bilan cheklanadi.
5. Lavozimda bo'lish muddati konstitutsiyaviy asosda cheklangan bo'lib, bu xalqning hokimiyat manbai ekanligini tasdiqlaydi.
6. Prezident lavozimga kirishishda xalq saylagan oliy vakillik organi — Oliy Majlisda xalqqa sadoqat bilan xizmat qilishga qasamyod qiladi.
7. Prezidentlik instituti hokimiyat bo'linishi prinsipining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Birinchi Prezident I.A. Karimov ta'kidlaganidek, ushbu institutning joriy etilishi respublikamiz suvereniteti va davlatchiligida prinsipial yangi bosqichni boshlab berdi. Dastlabki bosqichda Prezident davlat va ijro etuvchi hokimiyat

boshlig'i sifatida islohotlarning tashabbuskori va yangilanish jarayonlarini harakatga keltiruvchi asosiy kuch bo'ldi. Kuchli prezidentlik hokimiyati o'tish davridagi murakkab vazifalarni hal etish, demokratik huquqlarni kafolatlash va jamiyatda barqarorlikni saqlash imkonini berdi.

Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mamlakatimizni jadal modernizatsiya qilishning yangi davri davom etmoqda. Ushbu bosqichda davlat hokimiyati tizimida o'zaro mutanosiblikni ta'minlash, hokimiyatlar o'rtasida barqaror muvozanatni saqlash hamda prezidentlik institutining o'rnini va roliga oid muhim demokratik o'zgarishlar izchil hayotga tatbiq etilmoqda.

Milliy davlatchiligimiz va erkin bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan dastlabki yillarda Prezidentga berilgan keng huquq va vakolatlarning bir qismini hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tuzilmalariga o'tkazish ishlari izchilik bilan amalga oshirilmoqda. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan o'zgartishlarning aksariyati aynan Prezidentga oid XIX bobdagi moddalarga tegishli ekanligi prezidentlik institutining huquqiy asoslari sezilarli darajada takomillashayotganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, mamlakatimizda prezidentlik instituti O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishining asosiy omili, suverenitet va davlatchilikning kafolati hamda davlat ramziga aylandi. Ushbu institut huquqiy davlatning muhim belgisi bo'lgan hokimiyat bo'linishi prinsipining tarkibiy qismi sifatida huquqiy tizimimizga kiritildi. Prezident lavozimi ta'sis etilishi bilan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlari faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirish mexanizmlari yaratildi. Bugungi kunda ham ushbu institut jamiyatdagi barqarorlikning kafolati va yangi o'zbek davlatchiligi binosining asosiy tayanchi vazifasini bajarmoqda.

Ijro etuvchi hokimiyatning huquqiy asoslari

Ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida mustahkamlab qo'yilgan.

Konstitutsiyaning XX bobi 114-moddasiga asosan, **Vazirlar Mahkamasi** ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Uning tarkibi quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri;
- Bosh vazir o‘rinbosarlari;
- Vazirlar;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumatining boshlig‘i (o‘z lavozimi bo‘yicha).

Vazirlar Mahkamasi o‘z faoliyatini Prezident tomonidan belgilanadigan ijro etuvchi hokimiyat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari doirasida amalga oshiradi.

Prezidentlik maqomi va saylov tartibi

Konstitutsiyaning 105-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **davlat boshlig‘idir**. U davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta‘minlovchi bosh arbob, millat ramzi va fuqarolar xavfsizligining kafolati hisoblanadi.

Prezidentni saylash tartibi quyidagi demokratik prinsiplarga asoslanadi:

- **Muddati:** 7 yil muddatga saylanadi.
- **Saylov huquqi:** 18 yoshga to‘lgan fuqarolar umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan ishtirok etadilar.
- **Cheklolar:** Faqat sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganlar hamda ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda qatnashish huquqiga ega emaslar. Boshqa har qanday holatda fuqarolarning saylov huquqlarini cheklashga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi mamlakatning oliy ijro etuvchi organi bo‘lib, uning faoliyati Konstitutsiyaning 114-moddasi va «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida»gi qonun bilan tartibga solinadi. Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq, respublika

hududidagi barcha tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar hamda farmoyishlar chiqaradi.

Hukumatning tarkibi va shakllanish tartibi

Vazirlar Mahkamasi tarkibiga Bosh vazir, uning o'rinbosarlari, vazirlar va davlat qo'mitalarining raislari kiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i o'z lavozimi bo'yicha tarkibga a'zo hisoblanadi.

Bosh vazir nomzodini ko'rsatish va tasdiqlash jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

- Taqdim etish: Prezident parlamentdagi siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan maslahatlashuvlar o'tkazgandan so'ng, Bosh vazir nomzodini Oliy Majlis palatalariga taqdim etadi.
- Tasdiqlash: Nomzod Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozini olgan taqdirda tasdiqlangan hisoblanadi.
- Rad etish holati: Agar parlament nomzodni uch marta rad etsa, Prezident Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi va Oliy Majlisni yoki uning palatalaridan birini tarqatib yuborish huquqiga ega bo'ladi.
- Vazirlarni tayinlash: Hukumat a'zolari Bosh vazir taqdimiga binoan Prezident tomonidan tasdiqlanadi.

Faoliyatning asosiy yo'nalishlari va prinsiplari

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida kollegiallik, demokratiya, qonuniylik hamda barcha millat va elatlarning manfaatlarini hisobga olish prinsiplariga tayanadi. Uning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Iqtisodiy rivojlanish: Davlat budjetini ishlab chiqish va uning ijrosini ta'minlash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish.
2. Davlat boshqaruvi: Vazirlik va xo'jalik boshqaruvi organlari faoliyatiga rahbarlik qilish va ularni muvofiqlashtirish.
3. Qonunchilik tashabbusi: Hukumat yangi qonun loyihalarini ishlab chiqish va parlamentga taqdim etish huquqiga ega.

Mas'uliyat va hisobdorlik

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida Oliy Majlis va Prezident oldida javobgardir. Yangi saylangan Oliy Majlis oldida amaldagi hukumat o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi, biroq yangi tarkib shakllantirilguniga qadar faoliyatini davom ettirib turadi. Shuningdek, yangi shakllantirilgan hukumat o'z vakolatlari davri uchun mo'ljallangan faoliyat dasturini parlamentga taqdim etishi shart.

Ijro etuvchi hokimiyat devonini Prezident tuzadi va unga rahbarlik qiladi, Bosh vazir esa bevosita Vazirlar Mahkamasi faoliyatini samarali tashkil etish uchun mas'uldir. Ushbu uyg'unlashgan tizim davlat organlari o'rtasidagi intizomni mustahkamlash va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy omili bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Vazirlar Mahkamasi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar o'ziga xos mantiqiy ketma-ketlik va fundamental tamoyillarga asoslanadi. Bu o'zgarishlar, avvalambor, islohotlarning asta-sekin va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, xalq ruhiyati va mentalitetiga mosligi hamda milliy-tarixiy tajribaga tayanishi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, jarayonlarda xalqaro huquq andozalari va ilg'or xorijiy tajriba ham chuqur inobatga olinadi. O'zbekiston saylov qonunchiligining bosh maqsadi — nafaqat professional va ishchan vakillik organlarini shakllantirish, balki yuksak huquqiy madaniyatga ega bo'lgan saylovchilar qatlamini tarbiyalashdir.

Mustaqillik yillarida milliy saylov tizimi taraqqiyotini uchta asosiy bosqichga bo'lish mumkin:

Birinchi bosqich (1991–2004 yillar): Bir palatali parlament davri.

Bu bosqichda Sobiq Ittifoqdan qolgan tizimdan voz kechilib, ilk bor muqobillik va ko'ppartiyaviylik asosida Prezidentlik saylovlari o'tkazildi. Konstitutsiyada saylov tizimining huquqiy poydevori mustahkamlandi hamda yangi turdagi birinchi o'zbek parlamenti — Oliy Majlis saylandi. Ushbu davrda saylov jarayonlarini tartibga soluvchi dastlabki muhim qonunlar qabul qilindi.

Ikkinchi bosqich (2004-yildan boshlangan davr): Ikki palatali parlament tizimi.

2004-yildan boshlab O‘zbekistonda parlamentarizm yangi bosqichga ko‘tarildi. Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senati (yuqori palata) tashkil etildi. Saylov qonunlari ushbu ikki palatali tizim talablariga moslashtirilib, vakillik organlarining faoliyat samaradorligi oshirildi.

Uchinchi bosqich (Hozirgi davr): Saylov qonunchiligining kodifikatsiyalashishi.

Bu bosqichda tarqoq holdagi qonunlar yagona Saylov kodeksiga birlashtirildi. Bugungi kunda saylov qonunchiligi tizimining o‘zagi va "umurtqasini" O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tashkil etadi. Tizim tarkibiga quyidagi fundamental huquqiy hujjatlar kiradi:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- Oliy Majlisga saylov to‘g‘risidagi qonun;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risidagi qonun;
- Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risidagi qonun;
- Markaziy saylov komissiyasi to‘g‘risidagi qonun;
- Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to‘g‘risidagi qonun.

Ushbu qonunlar majmuasi mamlakatimizda demokratik saylovlarni xalqaro andozalar darajasida o‘tkazish, fuqarolarning siyosiy irodasini erkin ifoda etishlarini ta‘minlash hamda davlat hokimiyati organlarining xalq oldidagi mas‘uliyatini kuchaytirish uchun mustahkam huquqiy zamin yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida saylov tizimiga bag‘ishlangan maxsus XXII bobning mavjudligi milliy huquq tizimining o‘ziga xos demokratik xususiyatidir. Ko‘pgina xorijiy davlatlar asosiy qonunlarida bunday alohida bob uchramaydi. Konstitutsiyaning 128-129-moddalari ulkan huquqiy salohiyatga ega bo‘lib, ular jamiyatdagi ijtimoiy-

siyosiy yetuklik darajasiga qarab, tegishli qonunlar orqali hayotga tatbiq etilmoqda.

Aristotel ta'kidlaganidek, huquq normalari ko'pincha fuqarolarning amaldagi yetukligidan ilgarilab ketadi, biroq aynan fuqarolarning ongliklik darajasi ushbu huquqning amalda ishlashini ta'minlaydi. Tarixiy faktlarga ko'ra, O'zbekiston Konstitutsiyasi loyihasi muhokama qilinayotgan davrda ayrim xorijiy ekspertlar saylov tizimiga bag'ishlangan alohida bobni kiritmaslikni taklif etishgan edi, biroq milliy qonunchiligimizda bu muhim institutning konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi tanlandi.

Saylov huquqi tushunchasi saylov qonunchiligidan ko'ra kengroq ma'noni anglatadi. U huquqning kompleks sohasi sifatida quyidagi normalarni o'z ichiga qamrab oladi:

- **Konstitutsiyaviy normalar:** Saylov tizimining asosiy prinsiplarini belgilaydi.
- **Ma'muriy huquq normalari:** Saylov jarayonini tashkil etish va boshqarish tartibini tartibga soladi.
- **Jinoiy huquq normalari:** Saylov huquqlarining buzilishi va natijalarni soxtalashtirishga qarshi javobgarlikni belgilaydi.

O'zbekiston saylov qonunchiligi umume'tirof etilgan jahon standartlariga to'la mos keladi. Saylovlarga oid xalqaro mezonlar quyidagi hujjatlarda o'z aksini topgan:

1. **BMT hujjatlari:** Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro pakt (1966).
2. **YeXHT hujjatlari:** Insoniylik mezonlariga oid 1990-yilgi Kopengagen anjumani hujjati.
3. **Parlamentlararo Ittifoq:** 1994-yilda qabul qilingan "Erkin va adolatli saylovlar mezonlari to'g'risida"gi deklaratsiya.

O'zbekiston saylov tizimini takomillashtirishda dunyo tajribasidagi eng demokratik yo'l — **mustaqil Markaziy saylov komissiyasini** tuzish yo'lini tanladi. Ushbu organ biron bir davlat hokimiyati bo'g'iniga bo'ysunmaydi va

saylovlarni adolatli, ochiq hamda shaffof o'tkazishning asosiy kafolati hisoblanadi.

O'zbekiston saylov tizimida amalga oshirilgan modernizatsiya jarayonlari xalqaro huquqiy normalar va Yangi O'zbekistonning demokratik islohotlari tamoyillariga to'la mos keladi. 2019-yilda qabul qilingan Saylov kodeksi ushbu islohotlarning huquqiy asosi sifatida demokratik saylovlarning to'rtta fundamental tamoyili — umumiylik, tenglik, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi va yashirin ovoz berish prinsiplarini o'zida to'liq mujassam etdi. Kodeks bilan joriy etilgan 11 ta asosiy xususiyat milliy saylov tizimini tubdan yangiladi: parlament quyi palatasidagi kvotalardan voz kechilib, barcha 150 nafar deputatning to'g'ridan-to'g'ri saylanishi belgilandi; saylovchilarga bir vaqtning o'zida bir nechta partiyani qo'llab-quvvatlash imkoniyati berilishi orqali siyosiy raqobat kengaytirildi; siyosiy partiyalarga nafaqat o'z a'zolarini, balki partiyasiz mutaxassislarni ham nomzod sifatida ko'rsatish vakolati berildi.

Inson huquqlari sohasida muhim gumanistik qadam tashlanib, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar uchun jazo o'tayotgan shaxslarning saylov huquqlari tiklandi. Nomzodlarning targ'ibot ishlarini samarali tashkil etishlari uchun ishonchli vakillar soni sezilarli darajada ko'paytirildi, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida kuzatuvchilarga bayonnoma nusxalarini darhol olish va natijalar bilan 48 soat davomida tanishish imkoniyati yaratildi. Saylov jarayonining har qanday bosqichi ustidan sudga shikoyat qilish mexanizmi uzil-kesil mustahkamlanib, Senat a'zolarini saylash tartibi bevosita qonun darajasiga ko'tarildi. Shuningdek, saylovoldi targ'ibotining turlari va usullari qat'iy belgilanishi barcha ishtirokchilar uchun teng imkoniyatlar yaratdi.

Ommaviylik va hisobdorlikni ta'minlash maqsadida saylov komissiyalari majlislari mutlaqo ochiq o'tkaziladigan bo'ldi. Texnik jihatdan esa Saylovchilarning yagona elektron ro'yxati (SYER) joriy etilishi "bir saylovchi — bir ovoz" tamoyilini kafolatlad. Ushbu islohotlar majmuasi Yangi

O'zbekistonda saylovlarni xalqaro andozalar darajasida o'tkazish, davlat boshqaruvida xalq ishtirokini ta'minlash va qonun ustuvorligini mustahkamlashning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qilmoqda. 2019-yildagi saylovlar jarayonida Saylov kodeksi amaliy sinovdan muvaffaqiyatli o'tib, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari demokratiya, adolat, xolislik va shaffoflik prinsiplari asosida ta'minlanishiga, siyosiy partiyalar va nomzodlar uchun esa keng va teng imkoniyatlar yaratilishiga xizmat qilishi o'z tasdig'ini topdi.

Savol va topshiriqlar:

1. O'zbekiston Respublikasi saylov tizimining asosiy xususiyatlarini yozing.
2. Saylov qonunchiligi haqida qisqacha ma'lumot tayyorlang.
3. Ochiq va adolatli saylovlarni ta'minlash uchun qanday choralar ko'rilishi kerak?
4. Elektron saylov tizimining afzalliklari va kamchiliklari nimalardan iborat?
5. Saylovda fuqarolarning faol ishtirok etishini qanday rag'batlantirish mumkin?

15– MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUD HOKIMIYATI. ADVOKATURA VA PROKURATURA TIZIMI

REJA:

1. Sud hokimiyatining davlat boshqaruvidagi roli.
2. Sud hokimiyatining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan mustaqilligi.
3. Advokatlarning huquqlari va majburiyatlari.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mamlakatimiz taraqqiyoti va inson huquqlarini ta’minlashdagi ahamiyati beqiyosdir. Asosiy Qonunimizda mustahkamlab qo‘yilgan normalar jamiyatda qonuniylikni o‘rnatish va sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini kafolatlashda markaziy o‘rin tutadi. Sud tizimi Konstitutsiya, milliy qonunlar va inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro hujjatlarda e‘lon qilingan fuqarolar erkinliklarini, shuningdek, korxon va tashkilotlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Sudning butun faoliyati qonun ustuvorligini qaror toptirish, ijtimoiy adolatni ta’minlash hamda jamiyatda tinchlik va totuvlikni saqlashga qaratilgandir.

Konstitutsiyaning 130-moddasiga binoan, O‘zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshiriladi. Sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatdan, siyosiy partiyalardan hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan mustaqil ravishda ish yuritadi. Qonunchilikda sud ishlarini amalga oshirish jarayoniga biron-bir tarzda aralashishga yo‘l qo‘yilmasligi va bunday harakatlar uchun jinoiy javobgarlik belgilanishi qat’iy mustahkamlab qo‘yilgan. Sudyalarning faqat qonunga bo‘ysunishi va ularning mustaqilligi konstitutsiyaviy darajada kafolatlanganining asosiy sababi — sud hokimiyatiga boshqa hech bir davlat organiga berilmagan mutlaq vakolat, ya’ni odil sudlovni amalga oshirish huquqi berilganidir.

Odil sudlov jamiyat a'zolarining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda, insonlarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarix davomida odil sudlov har doim eng oliy qadriyat sifatida ulug'langan. Rim faylasuflari tomonidan aytilgan "Pereat mundus et fiat justicia", ya'ni "Mayli dunyo barbod bo'lsin, lekin odil sudlov qaror topsin" degan mumtoz shior, garchi biroz mublag'ali tuyulsa-da, insoniyat hayotida adolatning qanchalik yuqori baholanishini ko'rsatib beradi. Zero, sudning chinakam mustaqilligi va adolati davlatning demokratik poydevori mustahkamligidan dalolat beradi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda sudyalarning mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishi tamoyilini huquqiy jihatdan mustahkamlash maqsadida fundamental qonunlar majmuasi qabul qilindi. Jumladan, 1993-yilda yangi tahrirdagi «Sudlar to'g'risida»gi qonun, 1994-yilda Jinoyat, Jinoyat-protsessual hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslar, 1997-yilda esa Fuqarolik protsessual va Xo'jalik protsessual kodekslari hayotga tatbiq etildi. Ushbu hujjatlar odil sudlovning huquqiy poydevorini yaratib, sud hokimiyatini alohida mustaqil tarmoq sifatida shakllanishiga xizmat qildi.

Biroq vaqt o'tishi, globallashuv jarayonlarining jadallashuvi va jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sud-huquq tizimini tubdan isloh qilishni hayotiy zaruratga aylantirdi. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligiga erishish va aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirish maqsadida mutlaqo yangi bosqich boshlandi. Ushbu yangilanish jarayonida 2016-yil 21-oktyabrdagi PF-4850-sonli Farmon hal qiluvchi rol o'ynadi. Mazkur hujjat sudyalarning daxlsizligini ta'minlash va ularning faoliyatiga har qanday aralashuvning oldini olishga qaratilgan konstitutsiyaviy normalarni amalda ro'yobga chiqarish uchun mustahkam zamin yaratdi. Keyinchalik 2017–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi ushbu islohotlarni tizimli davom ettirdi. Unda sud nufuzini oshirish, tizimni demokratlashtirish va odil sudlovga erishish darajasini yuksaltirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar

belgilandi. Xususan, sudyalik lavozimiga tayinlashning muddatsiz davri joriy etilishi, sudyalarning ijtimoiy himoyasi kuchaytirilishi va sud jarayonlarida taraflarning tortishuvchanlik tamoyilini amalda ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. Bu o'zgarishlar sudning nafaqat jazo beruvchi organ, balki inson huquqlarini ishonchli himoya qiluvchi chinakam "adolat qo'rg'oni"ga aylanishini ta'minladi. O'zbekiston sud tizimida amalga oshirilgan islohotlar sudya mustaqilligini ta'minlashning amaliy mexanizmlarini yaratishga qaratilgan. Bu borada sudya lavozimida bo'lish muddatlarining yangi tartibi joriy etilishi tarixiy ahamiyat kasb etadi. Endilikda sudya lavozimiga ilk bor besh yil muddatga, keyin o'n yilga, o'z vazifasini namunali bajargan taqdirda esa muddatsiz davrga tayinlanishi yoki saylanishi belgilandi. Ushbu tartib sudyaning o'z ustida ishlashi uchun kuchli rag'bat yaratish bilan birga, uni turli tashqi bosimlardan himoya qiladi va faqat qonun asosida adolatli qaror qabul qilishiga zamin yaratadi.

Sudyalarning yosh chegarasini belgilash masalasida ham professional yondashuv tanlandi. Tuman va viloyat sudlari sudyalari uchun 65 yosh, Konstitutsiyaviy va Oliy sud sudyalari uchun esa 70 yosh yuqori chegara etib belgilandi. Bu tajribali, halol va benuqson obro'ga ega bo'lgan mutaxassislarning bilim va mahoratidan uzoq muddat foydalanish, barqaror sudyalar maktabini shakllantirish hamda sud korpusining sifat tarkibini yaxshilash imkonini beradi.

Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlashda Sudyalar oliy kengashining tashkil etilishi burilish nuqtasi bo'ldi. Kengash sudyalar hamjamiyatining organi sifatida konstitutsiyaviy maqomga ega bo'lib, uning tarkibining kamida yarmi sudyalardan iborat ekani tizimning "o'z-o'zini boshqarish" tamoyilini kuchaytiradi. Sud raislarining sudyalarga nisbatan intizomiy ish qo'zg'atish vakolati tugatilib, bu vazifa Kengashga o'tkazilishi sud ichidagi ma'muriy bosimlarga chek qo'ydi.

Bundan tashqari, sudlarning moddiy-texnika ta'minoti va moliyalashtirish vazifalarining adliya organlaridan Oliy sudga o'tkazilishi sud

tizimining ijro etuvchi hokimiyatdan to'liq ajralishini ta'minladi. Endilikda sudlar o'z faoliyatini moliyaviy jihatdan mustaqil boshqaradi, bu esa sud hokimiyatining daxlsizligini va uning boshqa hokimiyat tarmoqlari ta'siridan xoli bo'lishini huquqiy va amaliy jihatdan kafolatlaydi.

Insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlaridan boshlab qonunlar jamiyatni tartibga soluvchi asosiy mexanizm bo'lib xizmat qilgan. Vaqt o'tishi bilan huquqiy masalalarning yechimi avtokratik yondashuvdan xalq manfaatlarini himoya qilish sari o'zgardi. Ushbu muvozanatni saqlash va tizimli huquqiy yordam ko'rsatish ehtiyoji jamiyatda advokatura institutining shakllanishiga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXIV bobi bevosita advokaturaga bag'ishlangan bo'lib, u jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatishning huquqiy kafolati hisoblanadi. Asosiy Qonunimizning 141-moddasida advokatura faoliyatining bosh tamoyillari sifatida qonuniylik, mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish prinsiplari belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, 142-modda advokatning daxlsizligini ta'minlab, uning kasbiy vazifalarini bajarishiga har qanday aralashuvni taqiqlaydi. Davlat advokatga o'z himoyasidagi shaxs bilan hech qanday moneliksiz va xoli uchrashish sharoitini yaratib berishni o'z zimmasiga oladi, advokatning sha'ni, qadr-qimmatini va faoliyati esa qonun muhofazasida bo'ladi.

Advokatura — bu advokatlarning ko'ngilli jamoat birlashmasi bo'lib, u huquqiy davlat qurishning ajralmas bo'lagidir. 1996-yil 27-dekabrda qabul qilingan "Advokatura to'g'risida"gi Qonunga binoan, ushbu muassasa fuqarolarga (shu jumladan, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga) hamda barcha turdagi korxonalariga yuridik yordam ko'rsatuvchi mustaqil tuzilmadir. Advokatlik faoliyati Konstitutsiya va qonun ustuvorligi prinsiplariga tayanadi.

Advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lgan shaxslar o'z ishini tashkil etishda erkindirlar. Ular yakka tartibda advokatlik byurosini ochishlari yoki boshqa hamkasblari bilan ixtiyoriylik asosida advokatlik hay'atlari va firmalarini tashkil etishlari mumkin. Ushbu tuzilmalar (byurolar, hay'atlar, firmalar) belgilangan tartibda Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya

vazirligi hamda viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan ro'yxatga olinadi. Bu tizim jamiyatda har bir shaxsning malakali huquqiy yordam olish huquqini amalda ta'minlashga xizmat qiladi.

Advokatlik byurolari, hay'atlari va firmalarini tashkil etish, ularning shtat birliklari, moliyaviy mablag'larni sarflash tartibi hamda rahbar organlarini saylash kabi barcha tashkiliy masalalar ushbu tuzilmalarning ustavlari (nizomlari) bilan tartibga solinadi. Advokatura o'z mohiyatiga ko'ra **notijorat tashkilot** bo'lib, o'z faoliyatini to'liq o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiradi. Advokatlarning ijtimoiy himoyasi va faoliyat kafolatlari 1998-yilda qabul qilingan alohida qonun bilan mustahkamlangan. Shuningdek, advokatlar o'z kasbiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida ixtiyoriy ravishda jamoat birlashmalarini tuzish huquqiga egadirlar.

Davlat boshqaruvi va huquqiy tartibot tizimida **Prokuratura** organlari alohida strategik o'rin tutadi. U O'zbekiston hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi yagona markazlashgan davlat organi hisoblanadi. Mustaqillik yillarida prokuratura organlarining shakllanishi va rivojlanishi uchta asosiy bosqichni bosib o'tdi:

Birinchi bosqich (1991–2000-yillar): Bu davrda mustaqil O'zbekiston prokuraturasining huquqiy poydevori yaratildi. Sobiq ittifoq tizimidan voz kechilib, milliy manfaatlarga mos keluvchi prokuratura organlari shakllantirildi.

Ikkinchi bosqich (2001–2015-yillar): Prokuratura organlarining davlat organlari tizimidagi roli aniqlashtirildi va ularning vazifalari takomillashtirildi. Bu davrda nazorat funksiyalari bilan bir qatorda huquqbuzarliklar profilaktikasiga e'tibor kuchaytirildi.

Uchinchi bosqich (2016-yildan keyingi davr): Prokuratura tizimida tub burilish davri boshlandi. Asosiy e'tibor prokuraturani "jazolovchi" organdan "xalq prokuraturasi"ga aylantirishga qaratildi. Endilikda prokuratura organlari faoliyati tadbirkorlik subyektlarini himoya qilish, aholi

muammolarini joyida hal etish va ijtimoiy adolatni ta'minlashning kafolatiga aylandi.

Hozirgi kunda prokuratura organlari nafaqat qonun ustuvorligini ta'minlamoqda, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning bevosita ishtirokchisi va himoyachisi sifatida namoyon bo'lmoqda. Tizimning markazlashganligi va yuqori turuvchi prokurorga bo'ysunishi butun respublika hududida qonuniylikning yagona mezonini ta'minlash imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 144-moddasiga binoan, prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimiga O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori boshchilik qiladi. Hududiy tuzilmada Qoraqalpog'iston Respublikasining prokurori Bosh prokuror bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasining oliy vakillik organi tomonidan tayinlanadi, viloyat, tuman va shahar prokurorlari esa bevosita Bosh prokuror tomonidan lavozimga tayinlanadi. Barcha darajadagi prokurorlarning vakolat muddati besh yil qilib belgilangan bo'lib, ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori lavozimini egallashi mumkin emas.

Konstitutsiyaning 145-moddasi prokuratura organlarining mustaqilligini huquqiy jihatdan kafolatlaydi. Unga ko'ra, prokuratura organlari o'z vakolatlarini boshqa davlat organlaridan, tashkilotlardan va mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda, faqat Konstitutsiya va qonunlarga bo'ysungan holda amalga oshiradi. Prokurorlar o'z vakolatlari davrida siyosiy betaraflikni saqlash maqsadida siyosiy partiyalarga va siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi boshqa jamoat birlashmalariga a'zolikni to'xtatib turadilar. Ushbu normalar prokurorlik faoliyatiga aralashishni qat'iyani taqiqlaydi hamda mustaqillik va qonuniylik tamoyillarini ro'yobga chiqarishni ta'minlaydi.

Prokuratura tizimida 2001–2015-yillarni o'z ichiga olgan islohotlarning ikkinchi bosqichi davlat organlari tizimida ushbu organning roli va vazifalarini takomillashtirish davri bo'lganligi bilan ahamiyatlidir. Bu yillarda prokuratura faoliyatini sobiq tuzumdan qolgan jazolash qurolidan voz

kechib, uni qonunlarning qat'iy ijro etilishini, demokratik yangilanishlarni va inson huquqlarining ishonchli himoyasini ta'minlaydigan zamonaviy organga aylantirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Aynan shu davrda prokuratura organlarining ijtimoiy-huquqiy maqomi kuchaytirilib, uning faoliyati jamiyat manfaatlariga xizmat qilishga yo'naltirildi.

Xususan, 2001 yil 29 avgustda yangi tahrirda qabul qilingan "Prokuratura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni⁶ ushbu maqsadda qo'yilgan muhim qadam bo'ldi. O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi (yangi tahriri) qonuniga muvofiq, fuqarolarning prokuror nazorati ob'ektlari qatoridan chiqarilishi inson huquq va erkinliklariga rioya etilishi uchun prokuratura mas'uliyatini yanada oshirdi. Professor B.X.Po'latov ta'kidlaganidek, ushbu qonun universallik xususiyatiga ega bo'lib, u nazorat predmetiga qarab aniqlangan qonunbuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha prokuror vakolatlarini to'la hajmda tartibga soladi. Qonunda tizimning asosiy vazifalari, faoliyat prinsiplari va prokuror nazoratini amalga oshirish mexanizmlari qat'iy belgilangan.

Sud-huquq tizimidagi islohotlar natijasida prokuratura vakolatlaridan quyidagilar chiqarildi:

- **Sud qarorlari ijrosini to'xtatib turish huquqi:** Bu o'zgarish sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlashda muhim qadam bo'ldi.
- **Protsessual muddatlar:** Tuman va shahar prokurorlarining tergov hamda ayblanuvchini qamoqda saqlash muddatlarini uzaytirish huquqlari bekor qilindi.

Islohotlarning uchinchi bosqichi (2016-yildan keyin) prokuraturani "xalq prokuraturasi"ga aylantirishga qaratildi. Endilikda prokuratura nafaqat qonun ustuvorligini ta'minlovchi, balki tadbirkorlik subyektlarini himoya qiluvchi, aholi muammolarini joyida hal etuvchi va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning himoyachisi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. Tizimning markazlashganligi

2.1⁶ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2001 й., 9-10-сон, 168-модда.

respublika hududida qonuniylikning yagona mezonini saqlab qolishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, qamoqxonalarda qonun ijrolari va jazolar ijrosi yuzasidan davlat nazoratini prokuratura organlari tomonidan amalga oshirilishiga qaratilgan islohotlar ham dolzarb ahamiyat kasb etdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 11-martdagi Farmoniga binoan, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida sud qarorlari ijrosini va qamoqqa olinganlarni saqlash jarayonlarini ta'minlashda qonunlarga bo'ysunishni nazorat qilish boshqarmasi va uning hududiy bo'limlari tashkil etildi. Bu esa sud qarorlari ijrosini ta'minlash orqali inson huquqlarini ro'yobga chiqarishga, jazo muassasalarida saqlanayotgan shaxslarning qonuniy huquq va manfaatlarini cheklashning oldini olishga xizmat qildi.

Prokuratura organlari o'z vakolatlarini boshqa davlat organlaridan, o'zga tashkilotlardan va mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda, faqat Konstitutsiya va qonunlarga bo'ysungan holda amalga oshiradi. Prokurorlar o'z vakolatlari davrida siyosiy partiyalarga va siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi boshqa jamoat birlashmalariga a'zolikni to'xtatib turadilar. Ushbu konstitutsiyaviy normalar prokurorlik faoliyatini faqat qonun asosida amalga oshirishni kafolatlashi barobarida, ushbu faoliyatda mustaqillik va qonuniylik kabi tamoyillarni ro'yobga chiqarishni ham ta'minlaydi.

Bugungi kunda prokuratura faoliyati sobiq tuzum davrida bo'lganidek jazolash quroli emas, balki qonunlarning qat'iy ijro etilishini, mamlakatda demokratik islohotlarning izchil rivojlanishini hamda inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlaydigan organdir. Tuman va shahar prokurorlarining tergov va ayblanuvchini qamoqda saqlash muddatlarini uzaytirish huquqlarining bekor qilinishi hamda sud qarorlari ijrosini to'xtatib turish vakolatining chiqarilishi tizimning chinakam demokratik qiyofasini belgilab berdi.

Prokuratura organlari faoliyatida soliq va valyutaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning

muhim yoʻnalishi hisoblanadi. Shu maqsadda Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 6-iyuldagi qarori bilan Davlat soliq qoʻmitasi huzuridagi tegishli boshqarma bazasida Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tashkil etildi. Bu chora iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligini oshirish hamda davlat va fuqarolarning mulkiy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qildi.

Keyinchalik, 2006-yil 21-apreldagi PQ–331-sonli qaror bilan mazkur tuzilmaning vakolatlari kengaytirilib, u Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentiga aylantirildi. Ushbu oʻzgarish moliya-iqtisodiy sohadagi jinoyatlarga qarshi kurashish tizimini yagona markazdan muvofiqlashtirish imkonini berdi.

Inson huquqlarini taʼminlash borasidagi eng muhim islohotlardan biri — 2008-yildan boshlab «Xabeas korpus» institutining joriy etilishi boʻldi. Unga koʻra, ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishga sanksiya berish vakolati prokurorlardan sudlarga oʻtkazildi. Bu qadam sud-huquq tizimida oʻzaro tiyib turish va muvozanat tamoyilini mustahkamladi.

Mazkur islohotning hayotiy zarurati bugungi kunda koʻplab amaliy misollarda oʻz isbotini topmoqda. Qamoqqa olish kabi inson erkinligini cheklovchi jiddiy chora faqat sud tartibida koʻrib chiqilishi, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish darajasini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqdi.

Islohotlarning ikkinchi bosqichida prokuratura organlari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan yangilashga alohida eʼtibor qaratildi. Prezidentning 2007-yil 7-noyabrdagi PQ–727-sonli qarori bilan Bosh prokuraturaning Oliy oʻquv kurslari tashkil etilishi kadrlar salohiyatini yuksaltirishda muhim qadam boʻldi. Bu davrda davlat organlari mansabdor shaxslarining idoraviy hujjatlar ijodkorligi va qonunlarni soʻzsiz

ijro etish borasidagi mas'uliyatini kuchaytirish strategik vazifa sifatida belgilandi.

Qonunchilik ijrosi ustidan nazorat samaradorligini oshirish maqsadida 2014-yil 24-aprelda PF-4636-sonli Farmon qabul qilindi. Mazkur hujjat asosida Bosh prokuraturada Qonunchilik ijrosi ustidan nazorat bosh boshqarmasi va uning hududiy bo'limlari tuzildi. Bu tuzilma davlat organlari tomonidan qabul qilinayotgan huquqiy hujjatlarning qonunchilik talablariga muvofiqligini ta'minlashda asosiy bo'g'inga aylandi. Umuman olganda, ikkinchi bosqich islohotlari prokuraturaning jamiyatda qonuniyligini ta'minlash borasidagi huquqiy maqomini mustahkamladi.

2016-yildan boshlangan uchinchi bosqich esa prokuratura organlarining chinakam "xalq prokuraturasi"ga aylanish davri bo'ldi. Bu bosqichda prokuratura faoliyati faqat nazorat qilish bilan cheklanib qolmay, aholi bilan muloqot qilish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy adolatni ta'minlashning kafolatiga aylandi. Islohotlarning mazkur davri tizimni jazolovchi organdan fuqarolar huquqlarining himoyachisiga transformatsiya qildi.

Yangi O'zbekiston sharoitida prokuratura tizimida olib borilgan tub o'zgarishlar, jumladan, sektorlar kesimida ishlash tizimi, korrupsiyaga qarshi kurashish va inson qadrini ulug'lashga qaratilgan yangi mexanizmlar xususida keyingi paragraflarda batafsil to'xtalib o'tiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 144-moddasi va "Prokuratura to'g'risida"gi qonunning 1-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladigan prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimidir. "Prokuratura to'g'risida"gi qonunning 10-moddasida ushbu tizimning tarkibiy tuzilishi aniq belgilab qo'yilgan.

Prokuratura organlari tizimi quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi;

- Viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari;
- Tumanlar va shaharlar prokuraturalari;
- Viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan organlar: O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi va O‘zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasi;
- Tuman prokuraturalariga tenglashtirilgan organlar: Hududiy harbiy, transport va ixtisoslashtirilgan prokuraturalar.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida ixtisoslashgan tuzilmalar — Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti hamda Majburiy ijro byurosi, shuningdek, ularning joylardagi bo‘linmalari faoliyat ko‘rsatadi.

Qonunning 12-moddasiga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi. Mazkur farmonlar Oliy Majlis Senati tomonidan tasdiqlanishi shart. Bosh prokurorning birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari ham bevosita Prezident tomonidan lavozimga tayinlanadi va ozod etiladi.

Bosh prokurorning vakolatlari Konstitutsiya va “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonundan tashqari, bir qator protsessual hujjatlar — Jinoyat-protsessual, Fuqarolik-protsessual, Iqtisodiy-protsessual hamda Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodekslar bilan tartibga solinadi. Bu prokuratura organlarining jamiyat hayotining barcha huquqiy jabhalarida qonun ustuvorligini ta‘minlashdagi keng ko‘lamli rolini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori davlat boshqaruvida keng ko‘lamli vakolatlarga ega bo‘lib, uning faoliyati qonun ustuvorligini ta‘minlashga qaratilgan. Bosh prokuror Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga qonunchilik tashabbusi bilan murojaat qilish, Konstitutsiyaviy sud va Oliy sud Plenumi majlislarida ishtirok etib, ko‘rilayotgan masalalar yuzasidan o‘z munosabatini bildirish huquqiga ega. Shuningdek, u o‘z vakolatlari doirasida prokuratura tizimi uchun majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqaradi va tarkibiy

bo'linmalar nizomlarini tasdiqlaydi. Agar Bosh prokurorning normativ xususiyatga ega hujjatlari Konstitutsiya va qonunlarga zid kelsa, ular Konstitutsiyaviy sud qarori bilan bekor qilinadi.

Bosh prokurorning hisobdorligi "Prokuratura to'g'risida"gi qonunning 14-moddasi bilan tartibga solingan bo'lib, u bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlis Senati oldida hisobdordir. Axborot taqdim etish tartibi quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

- **Muntazam ravishda:** qonuniylik va jinoyatchilikning umumiy holati to'g'risida;
- **Zudlik bilan:** o'ta og'ir jinoyatlar va yuz bergan favqulodda hodisalar haqida;
- **Har olti oyda:** prokuratura organlari tomonidan bajarilgan barcha ishlar bo'yicha umumiy hisobot.

Davlat boshqaruvi organlari va hokimlar tomonidan chiqarilgan hujjatlar qonunchilikka zid bo'lsa yoki fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini jiddiy kamsitsa, Bosh prokuror ularni to'xtatib turish yoki bekor qilish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga takliflar kiritadi. Bu mexanizm ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatida qonuniylikni ta'minlash va inson huquqlarini davlat darajasida himoya qilishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Bosh prokurorning Oliy Majlis Senati oldida muntazam ravishda hisobot berishi prokuratura organlari faoliyatida ochiqlik va xalq vakillari oldidagi hisobdorlikni ta'minlashning muhim mexanizmi hisoblanadi. Ushbu jarayon Senat Kengashining 2010-yil 30-dekabrda qarori bilan tasdiqlangan maxsus tartib asosida amalga oshiriladi. Unga ko'ra, Bosh prokuror har yili 1-fevraldan kechiktirmasdan o'zi imzolagan yillik hisobotni Senatga taqdim etishi shart. Ushbu hisobotni ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha Senat tomonidan maxsus qaror qabul qilinib, unda prokuratura organlarining faoliyati, mamlakatdagi qonuniylik holati va jinoyatchilikka qarshi kurashning real manzarasi tahlil qilinadi. Shuningdek, qarorda tizim faoliyatini yanada

takomillashtirish va qonun ustuvorligini mustahkamlashga qaratilgan tavsiyalar o'z aksini topadi.

Prokuratura organlarining ichki tuzilmasi va hududiy boshqaruvi ham qat'iy qonuniy asoslarga ega. Bosh prokuratura tarkibida ishni samarali tashkil etish maqsadida bosh boshqarmalar, boshqarmalar va bo'limlar faoliyat yuritadi. Hududiy darajada esa Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi alohida huquqiy maqomga ega. Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan lavozimga tayinlanadi va ozod etiladi. Bunday tashkiliy tuzilma prokuratura tizimining yagona markazlashgan boshqaruvini saqlab qolgan holda, uning demokratik tamoyillar asosida xalq manfaatlarini yo'lida xizmat qilishini kafolatlaydi.

Bosh prokurorning Oliy Majlis Senati oldida muntazam ravishda hisobot berishi prokuratura organlari faoliyatida ochiqlik va xalq vakillari oldidagi hisobdorlikni ta'minlashning muhim mexanizmi hisoblanadi. Ushbu jarayon Senat Kengashining 2010-yil 30-dekabrda qarori bilan tasdiqlangan maxsus tartib asosida amalga oshiriladi. Unga ko'ra, Bosh prokuror har yili 1-fevraldan kechiktirmasdan o'zi imzolagan yillik hisobotni Senatga taqdim etishi shart. Ushbu hisobotni ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha Senat tomonidan maxsus qaror qabul qilinib, unda prokuratura organlarining faoliyati, mamlakatdagi qonuniylik holati va jinoyatchilikka qarshi kurashning real manzarasi tahlil qilinadi. Shuningdek, qarorda tizim faoliyatini yanada takomillashtirish va qonun ustuvorligini mustahkamlashga qaratilgan tavsiyalar o'z aksini topadi.

Prokuratura organlarining ichki tuzilmasi va hududiy boshqaruvi ham qat'iy qonuniy asoslarga ega. Bosh prokuratura tarkibida ishni samarali tashkil etish maqsadida bosh boshqarmalar, boshqarmalar va bo'limlar faoliyat yuritadi. Hududiy darajada esa Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi alohida huquqiy maqomga ega. Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishilgan holda

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan lavozimga tayinlanadi va ozod etiladi. Bunday tashkiliy tuzilma prokuratura tizimining yagona markazlashgan boshqaruvini saqlab qolgan holda, uning demokratik tamoyillar asosida xalq manfaatlari yo'lida xizmat qilishini kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari "Prokuratura to'g'risida"gi qonunning 4-moddasida aniq belgilab qo'yilgan. Ushbu faoliyat turlari jamiyatning barcha jabhalarida qonun ustuvorligini va ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Prokuratura organlari, eng avvalo, vazirliklar, davlat qo'mitalari, hokimliklar, korxonalar hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan qonunlarning qat'iy va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Bu jarayonda inson huquq hamda erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi alohida e'tiborda turadi. Shuningdek, nazorat funksiyasi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va boshqa harbiy tuzilmalarni ham qamrab oladi.

Huquq-tartibotni mustahkamlash sohasida prokuratura tezkor-qidiruv faoliyati, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov organlari ishida qonuniyligni ta'minlaydi hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi harakatlarini muvofiqlashtiradi. Bevosita jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergov olib borish va sudlarda davlat ayblovini quvvatlash ham tizimning eng muhim vazifalaridan biridir. Sud jarayonlarida fuqarolik, ma'muriy va iqtisodiy ishlarni ko'rishda ishtirok etib, qonunga zid sud hujjatlariga protest keltirish orqali adolatni tiklaydi. Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida soliq va valyuta sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish, soliq intizomini mustahkamlash hamda davlatga yetkazilgan zararni qoplash borasidagi qonunlar ijrosi nazorat qilinadi. Shu bilan birga, jazo muassasalarida, ushlab turilgan va qamoqqa olingan shaxslarni saqlash joylarida qonun talablariga rioya etilishi prokuratura tomonidan doimiy ravishda tekshirib boriladi. Yakuniy yo'nalish sifatida prokuratura organlari

davlatning qonun ijodkorligi jarayonida faol qatnashadi va aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan choralarni amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-maydagi Farmoni bilan Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining huquqiy maqomi va vazifalari yangi bosqichga ko‘tarildi. Ushbu Departament iqtisodiy va korrupsiyaviy jinoyatlar, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish hamda ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashuvchi mustaqil ixtisoslashtirilgan huquqni muhofaza qiluvchi organ hisoblanadi. U o‘z vakolati doirasida tezkor-qidiruv faoliyati, tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv ishlarini olib boradi, shuningdek, jinoyatlar oqibatida yetkazilgan iqtisodiy zararining qoplanishini ta‘minlaydi. Shu bilan birga, Departament jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash bo‘yicha mamlakatdagi maxsus vakolatli davlat organi sanaladi.

Energiya resurslari va to‘lov intizomini mustahkamlash maqsadida 2017-yil 29-maydagi Prezident Farmoni bilan Bosh prokuratura huzurida Majburiy ijro byurosi (MIB) tashkil etildi. Ushbu tuzilmaning zimmasiga nafaqat energiya resurslari uchun to‘lovlarni undirish, balki sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarining so‘zsiz ijrosini ta‘minlash vazifasi yuklatildi. Byuro ijro ishi yuritish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan qat‘iy nazorat o‘rnatadi hamda sud qarorlari ijrosidan bo‘yin tovlash yoki to‘sqinlik qilish kabi huquqbuzarliklarga qarshi murossasiz kurash olib boradi. Mazkur ixtisoslashtirilgan tuzilmalarning Bosh prokuratura huzurida faoliyat ko‘rsatishi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish va sud qarorlari ijrosini ta‘minlashda qonun ustuvorligini kafolatlaydi. Departament va Byuroning o‘zaro muvofiqlashgan harakati davlat budjeti mablag‘laridan samarali foydalanishni hamda fuqarolar va tadbirkorlarning mulkiy huquqlari himoyasini yangi sifat bosqichiga yetib keldi.

Prokuratura organlari ish faoliyatining asosiy prinsiplari:Prinsip soʻzi lotincha principium degan soʻzdan olingan boʻlib, asos degan maʼnoni anglatadi.

Prokuratura organlari ish faoliyatining asosiy prinsiplari deganda ushbu organlar faoliyatini tashkil etishda asos, tayanch boʻlib xizmat qiladigan rahbariy qoidalarni tushunish maqsadga muvofiq. Prokuratura organlarining faoliyati asosiy prinsiplari birlik, markazlashganlik, qonuniylik, mustaqillik va oshkoralik hisoblanadi. Birlik prinsipi deganda prokuratura organlarining Bosh prokurori rahbarlik qiladigan yagona markazlashgan tizimni tashkil etishi hamda quyi turuvchi prokurorlarning yuqori turuvchi prokurorlarga va Bosh prokurorga boʻysunishi hamda hisobdorligi asosida faoliyat koʻrsatishi tushuniladi. Shu bilan birga, prokuratura organlarining birligi deganda mazkur organlar zimmasiga yuklatilgan asosiy vazifaning ham birligi anglashiladi. Chunonchi, Konstitutsiyaga muvofiq mamlakat hududida faoliyat yuritayotgan barcha prokuratura organlari zimmasiga yuklatilgan qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish vazifasi nazarda tutilmoqda. Markazlashganlik prinsipi deganda prokuratura organlarining Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladigan yagona markazlashtirilgan tizimni tashkil etishi tushuniladi. Yuqori turuvchi prokuror quyi turuvchi prokurorga koʻrsatmalar berishga yoxud uning har qanday, shu jumladan protsessual qarorini oʻzgartirish yoki bekor qilishga haqlidir, shuningdek u oʻz boʻysunuvidagi barcha prokurorlarning ishlari toʻgʻri tashkil etilishi uchun toʻliq javobgardir.

Qonuniylik prinsipi prokuratura organlari ishini tashkil etishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Mazkur prinsipning mazmuniga koʻra, prokuratura organlarining xodimlari oʻz faoliyatlarida Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda boshqa qonunlarning talablariga aniq rioya etishlari va ularni bajarishlari shartligida namoyon boʻladi. Qonunlarni aniq bajarish va ularga rioya etishdan har qanday chekinish, qanday asoslarga koʻra qilinishidan qatʼi nazar, qonuniylikni buzish deb hisoblanadi va

belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi. Shu bilan birga, prokuratura organlari Konstitutsiya va boshqa qonunlarda zimmlariga yuklatilgan vazifalarni bajarishda faqatgina qonunlarda belgilangan vakolatlardan, usul va vositalardan foydalanadilar. Prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishda ular mustaqilligini ta'minlash ushbu organlarning qonunlarga buysongan holda faoliyat yuritishini kafolatlashga xizmat qiladi. Shu sababli, prokuratura organlari faoliyatida mustaqillik prinsipining roli benihoya kattadir. Ushbu prinsip prokuratura organlari o'z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari hamda mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda, faqat qonunga bo'ysungan holda amalga oshirishida namoyon bo'ladi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, prokuratura organlarining mustaqilligini ta'minlash va ularning faoliyatiga har qanday tashqi aralashuvning oldini olish maqsadida qat'iy huquqiy himoya tizimi o'rnatilgan. Prokurorning g'ayriqonuniy qaror qabul qilishiga erishish maqsadida unga har qanday shaklda ta'sir ko'rsatish, faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki uning daxlsizligiga tajovuz qilish qonun bilan taqiqlanadi. Shuningdek, prokuror yoki tergovchining ruxsatisiz tergov ma'lumotlarini oshkor etish hamda prokurorning qonuniy talablarini bajarmaslik belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 197-moddasida prokurorning qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilganlik uchun aniq jazo choralari belgilangan. Jumladan, quyidagi harakatlar ma'muriy javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi:

- Kerakli hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etishdan bosh tortish;
- Tekshirish va taftishlar o'tkazishga monelik qilish;
- Mutaxassislar ajratishni rad etish yoki prokuraturaga chaqirilganda kelishdan bo'yin tovlash;
- Qonun buzilishi yuzasidan tushuntirish berishni rad etish;

- Prokuror protesti, taqdimnomasi yoki boshqa hujjatlarini ko'rib chiqmaslik yoxud ularni to'liq bajarmaslik.

Prokuratura xodimlarining xizmat vazifalarini xolis va mustaqil bajarishlarini ta'minlash uchun ularga daxlsizlik kafolatlari berilgan. Xususan, prokuror, tergovchi va surishtiruvchiga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atish va dastlabki tergov o'tkazish faqatgina prokuratura organlarining mutlaq vakolati hisoblanadi. Bu mexanizm xodimlarni asossiz jinoyi ta'qiblardan va xizmat faoliyati bilan bog'liq bosimlardan himoya qiladi.

Shuningdek, xodimlarning moddiy va ijtimoiy himoyasi ham qonun bilan mustahkamlangan. Prokuratura organlari xodimlarining ish haqi tarkibiga mansab maoshi bilan birga darajali unvonlar (yoki harbiy unvonlar), ko'p yillik xizmat uchun to'lanadigan ustamalar va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa rag'batlantiruvchi to'lovlar kiritilgan. Ushbu moddiy ta'minot tizimi xodimlarning ijtimoiy barqarorligini ta'minlash va korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Prokuratura organlarida xizmatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, xodimlar uchun alohida mehnat ta'tili tizimi joriy etilgan. Xususan, xodimlarga davomiyligi o'ttiz kalendar kundan iborat haq to'lanadigan yillik asosiy ta'til beriladi. Shuningdek, ko'p yillik xizmati uchun qo'shimcha ta'til kunlari nazarda tutilgan: o'n yildan ortiq ish stajiga ega bo'lganlarga besh kun, o'n besh yildan ortiq staj uchun o'n kun, yigirma yildan ortiq xizmat qilganlarga esa o'n besh kalendar kun qo'shimcha ta'til ajratiladi. Xodimlarning hayoti va sog'lig'i davlat himoyasida bo'lib, respublika budjeti mablag'lari hisobidan majburiy tartibda sug'urtalanadi.

Prokuratura organlari mustaqilligini ta'minlash maqsadida xodimlar uchun kafolatlar bilan bir qatorda ayrim qat'iy cheklolvar ham o'rnatilgan. Xususan, prokuratura xodimlariga ilmiy, pedagogik va ijodiy faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug'ullanish taqiqlanadi. Shuningdek, siyosiy betaraflikni saqlash maqsadida xodimlar o'z vakolatlari davrida siyosiy partiyalarga a'zolikni to'xtatib turadilar.

Oshkoralik prinsipi prokuratura faoliyatining muhim poydevori hisoblanib, unga ko'ra, tizim o'z faoliyatini ochiq va shaffof tarzda amalga oshiradi. Bu jarayonda davlat organlari, jamoat tashkilotlari, fuqarolar hamda ommaviy axborot vositalari bilan yaqin hamkorlik qilinadi. Bunday yondashuv jamiyatda qonuniyligni mustahkamlash bilan birga, aholining huquqni muhofaza qiluvchi organlarga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Prokuratura organlari faoliyatida oshkoralik prinsipining namoyon bo'lishini quyidagi asosiy yo'nalishlar misolida izohlash mumkin:

Jamoatchilik bilan doimiy aloqalarning yo'lga qo'yilganligi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-iyuldagi PQ-3837-son Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida prokuratura organlari huzurida jamoatchilik kengashlari tashkil etilgan. Ushbu kengash jamoatchilik asosida ishlaydigan doimiy maslahat-kengash organi hisoblanadi. U prokuratura organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari, OAV va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorligini ta'minlab, davlat organi va xalq o'rtasida o'ziga xos "ko'pri" vazifasini o'tamoqda.

Jamoatchilikka hisobot taqdim etish mexanizmining mavjudligi.

Prokuratura organlarining o'z faoliyati to'g'risida tizimli ravishda hisobot berishi oshkoralikning muhim kafolatidir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori har yili Senatga yillik hisobot taqdim etadi va u Senatning yalpi majlisida batafsil ko'rib chiqiladi.

Hisobotlarni dastlabki ko'rib chiqish tartibi. Bosh prokurorning hisoboti Senat yalpi majlisiga chiqishidan oldin Senatning Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi hamda prokuratura organlari faoliyati ustidan nazorat qiluvchi komissiya tomonidan birgalikda, professional darajada tahlil qilinadi. Bu jarayon prokuratura faoliyatining qonuniyligi va samaradorligini xalq vakillari tomonidan xolis baholash imkonini beradi.

Hududiy darajada oshkoralikni ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar hamda tuman va shahar prokurorlari

zimmasiga hisobdorlik majburiyati yuklatilgan. Unga ko'ra, prokurorlar har yili tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga hamda xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga o'z faoliyati to'g'risida hisobot taqdim etadilar. Zarur hollarda esa, qonuniylik va jinoyatchilikning holati haqida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini xabardor qilib boradilar. Bu mexanizm jismoniy va yuridik shaxslarning prokuratura faoliyatiga oid axborotlardan erkin foydalanishini kafolatlaydi.

Prokurorlarni lavozimga tayinlash va ozod etish tartibi, shuningdek, ularga nisbatan qo'yiladigan talablar Konstitutsiya va "Prokuratura to'g'risida"gi qonun bilan qat'iy tartibga solingan. Prokuratura organlarida prokuror, tergovchi va surishtiruvchi lavozimlariga oliy yuridik ma'lumotli, zarur kasbiy fazilatlariga ega va salomatligi xizmat vazifalarini bajarishga monelik qilmaydigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tayinlanadi.

Shu bilan birga, zamonaviy talablar va ixtisoslashgan yo'nalishlar (iqtisodiy jinoyatlar, kiberjinoyatchilik va h.k.) mavjudligi sababli, tizimga oliy yuridik ma'lumotdan tashqari quyidagi sohalar bo'yicha mutaxassislar ham qabul qilinishi mumkin:

- Iqtisodiyot va moliya;
- Sotsiologiya;
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Prokuratura organlari xodimlari zimmasiga yuklangan eng asosiy majburiyatlardan biri o'z xizmat vazifalarini halol, vijdonan va xolis bajarishdir. Bu esa tizimda korrupsiyaning oldini olish va jamiyatda adolat tamoyillarini qaror toptirishning muhim sharti hisoblanadi.

Prokuror yoki tergovchi lavozimiga birinchi marta tayinlanayotgan shaxslar o'z xizmat vazifalarini halol va vijdonan bajarishga, qonun buzilishiga qarshi murosasiz kurashishga, fuqaro, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga tantanali ravishda qasamyod qiladilar. Prokuratura organlari xodimlari o'z faoliyatlarini qonuniylik, shaxsiy mas'uliyat, adolatlilik, halollik va xolislik, kasbga sodiqlik hamda fuqarolar

huquq va erkinliklarining ustuvorligi kabi prinsiplar asosida amalga oshiradilar. Xodimlarning xizmat davomida va xizmatdan tashqari vaqtda yurish-turish qoidalari O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan tasdiqlangan Kasb odobnomasida belgilangan.

Unga muvofiq, prokuratura organlari xodimlari zimmasiga quyidagi asosiy majburiyatlar yuklanadi:

- ❖ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonun hujjatlariga so'zsiz rioya etish;
- ❖ Xizmat vazifalarini professional darajada, mas'uliyat, tashabbuskorlik, sadoqat va xolislik bilan bajarish;
- ❖ Bosh prokuror hamda yuqori turuvchi rahbarlarning vakolat doirasida qabul qilgan buyruq, ko'rsatma va topshiriqlarini o'z vaqtida hamda sifatli bajarish;
- ❖ Davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarga g'ayriqonuniy ta'sir o'tkazish uchun xizmat mavqeidan foydalanmaslik;
- ❖ Xizmat vazifalarini bajarishda rasmiyatchilik, soxtakorlik va suiiste'molchilikka yo'l qo'ymaslik;
- ❖ Xizmat vakolatlaridan shaxsiy yoki g'arazli maqsadlarda, shuningdek, boshqa shaxslarning noqonuniy manfaatlarini uchun foydalanmaslik;
- ❖ Maishatbozlikka, sovg'a va boshqa moddiy qimmatliklar ko'rinishidagi poraxo'rlikka yo'l qo'ymaslik;
- ❖ Davlat siri, qonun bilan qo'riqlanadigan va xizmatga oid ma'lumotlarning sir saqlanishini ta'minlash hamda ulardan noqonuniy foydalanmaslik;
- ❖ Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qonunda belgilangan tartib hamda muddatlarda qonuniy, asosli va adolatli hal qilish.

Prokuratura organlari tizimida xodimlarni lavozimga tayinlash va ozod qilishning o'ziga xos tartibi mavjud. Bunda prokuratura organining har bir tizimidagi rahbarlar va xodimlarni lavozimga tayinlash va ozod qilish

farqlanadi. Quyida har bir tizimda prokuratura organlari xodimlarni lavozimga tayinlash va ozod qilish tartibini kengroq yoritamiz.

O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimida lavozimlarga tayinlash va ozod etish iyerarxik tartibda, qat’iy markazlashgan boshqaruv asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi

Bosh prokuror O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan tayinlanadi va ushbu farmon Oliy Majlis Senati tomonidan tasdiqlanadi. Bosh prokurorning birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari ham bevosita Prezident tomonidan lavozimga tayinlanadi va ozod etiladi. Bosh prokuraturadagi boshqarma boshliqlari, yordamchilar va alohida muhim ishlar bo‘yicha tergovchilar esa Bosh prokurorning o‘zi tomonidan tayinlanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokuraturasi

Ushbu tizimning o‘ziga xosligi shundaki, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori Bosh prokuror bilan kelishilgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi tomonidan lavozimga tayinlanadi. Uning o‘rinbosarlari esa Bosh prokuror tomonidan tayinlanadi.

- Bosh prokuror roziligi bilan: Boshqarma boshliqlari va o‘rinbosarlari hamda ichki xavfsizlik yordamchisi tayinlanadi.
- Qoraqalpog‘iston prokurori tomonidan: Prokuror yordamchilari, tergovchilar va prokuror-kriminalistlar tayinlanadi.

Viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari

Viloyatlar, Toshkent shahar hamda ularga tenglashtirilgan (Harbiy, Transport) prokuraturalarning prokurorlari bevosita Bosh prokuror tomonidan tayinlanadi va unga hisobdordir. Ularning o‘rinbosarlari ham Bosh prokuror tomonidan lavozimga qo‘yiladi.

Ushbu darajadagi boshqarma va bo‘lim boshliqlari, shuningdek, ichki xavfsizlik yordamchilari ham Bosh prokuror tomonidan tayinlanadi. Bo‘lim boshliqlari o‘rinbosarlari va kriminalistlar Bosh prokurorning roziligi bilan viloyat prokurori tomonidan, qolgan barcha quyi bo‘g‘in xodimlari va

tergovchilar esa bevosita viloyat (yoki shahar) prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar.

Tuman va shahar prokuraturalari

Tumanlar, shaharlar prokuraturalari hamda ularga tenglashtirilgan ixtisoslashtirilgan prokuraturalar tizimning quyi, ammo aholi bilan bevosita ishlaydigan eng muhim bo'g'ini hisoblanadi. Mazkur darajadagi prokurorlar bevosita O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadi va ozod etiladi. Ular o'z faoliyatida ham yuqori turuvchi hududiy prokurorga, ham Bosh prokurorga bo'ysunadilar.

Tuman va shahar prokurorlarining o'rinbosarlari esa Bosh prokuror bilan kelishilgan holda, tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlari tomonidan tayinlanadi. Shuningdek, ushbu prokuraturalarning katta yordamchilari, tergovchilari va ish o'rganuvchilarini lavozimga tayinlash hamda ozod etish vakolati ham hududiy prokurorlar zimmasiga yuklatilgan.

Yangi O'zbekiston sharoitida prokuratura islohotlari (2016-yildan keyingi davr)

Prokuratura organlari rivojlanishining uchinchi bosqichi tizimning tubdan transformatsiya bo'lishi va "xalq prokuraturasi" tamoyilining amalda joriy etilishi bilan tavsiflanadi. Ushbu davrning asosiy falsafasi — huquqbuzarliklar oqibati bilan kurashishdan ularni barvaqt aniqlash va oldini olishga o'tishdir.

Islohotlarning muhim bosqichlari va huquqiy asoslari:

- 2017-yil 7-yanvarda Prezident Sh.Mirziyoyevning prokuratura xodimlari bilan uchrashuvida tizim faoliyatini tanqidiy tahlil qilgani islohotlarning "yo'l xaritasi"ga aylandi.
- 2016–2020 yillar davomida sohani tartibga soluvchi 20 dan ortiq yangi normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi.
- Tizim xodimlarining nufuzini oshirish va mehnatini rag'batlantirish maqsadida 2016-yil 19-dekabrda Qonun bilan 8-yanvar — O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlari kuni etib belgilandi.

Ushbu bosqichda prokuratura faoliyatida shaffoflik, ochiqlik va aholi muammolarini joyiga chiqqan holda hal etish (sektorlar tizimi orqali) ustuvor yoʻnalishga aylandi. Bu oʻzgarishlar prokuraturani faqat jazolovchi organdan fuqarolar huquqlarining chinakam himoyachisiga aylantirish yoʻlidagi muhim burilish boʻldi.

Soʻnggi yillarda prokuratura organlari faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va bu boradagi tadbirlar samaradorligini oshirish masalasi ustuvor vazifa etib belgilandi. Shu bilan birga, jamiyatda qonun ustuvorligini taʼminlashning muhim sharti sifatida aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Mazkur yoʻnalishda davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalari bilan oʻzaro samarali hamkorligini tashkil etish prokuratura organlarining qonunchilikda koʻrsatilgan asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish orqali prokuratura organlarining jamiyatdagi oʻrni va roli yangi sifat bosqichiga koʻtarilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi PQ–2833-sonli qarori prokuratura organlari faoliyatida huquqbuzarliklarni profilaktika qilish tizimiga sifat jihatidan yangi yondashuvni olib kirdi. Mazkur hujjat bilan Bosh prokuratura huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda voyaga yetmaganlar ishlari boʻyicha respublika idoralararo komissiyalarining yagona muvofiqlashtiruvchi organi etib belgilandi. Shuningdek, tizimda qonun buzilishlarining tub sabablarini oʻrganish maqsadida Bosh prokuratura tarkibida Qonuniylik va huquq-tartibotni taʼminlash muammolarini tahlil qilish boshqarmasi tashkil etildi.

Yangi Oʻzbekistonda prokuratura organlarining roli va nufuzini oshirishda Prezidentning 2017-yil 18-apreldagi PF–5019-sonli farmoni muhim burilish yasadi. Ushbu farmon bilan tizim faoliyatining bosh mezonini sifatida **“Xalq manfaatlariga xizmat qilish”** tamoyili ustuvor vazifa qilib belgilandi.

Mazkur hujjat prokuraturani nafaqat nazorat qiluvchi, balki ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni ro'yobga chiqarishda, mamlakatni modernizatsiya qilishda va inson huquqlarining ishonchli himoyasini ta'minlashda faol ishtirok etadigan organga aylantirdi.

Farmonga ko'ra, qonunlarning so'zsiz ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish orqali jamiyatda adolatni o'rnatish va demokratik islohotlarni qo'llab-quvvatlash prokuratura organlarining strategik yo'nalishiga aylandi. Bu esa tizimning jamiyat hayotidagi rolini kuchaytirish bilan birga, prokuratura xodimlarining xalq oldidagi mas'uliyatini ham yangi bosqichga ko'tardi.

Sud hujjatlari ijrosini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-maydagi PF-5059-sonli Farmoni bilan Bosh prokuratura huzurida Majburiy ijro byurosi (MIB) tashkil etildi. Ushbu tuzilmaning asosiy vazifalari sud va boshqa organlar hujjatlarining so'zsiz ijrosini ta'minlash, ijro ishi yuritish sohasidagi qonunbuzarliklarga qarshi kurashish hamda tizimga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishdan iborat etib belgilandi. Shuningdek, Byuro zimmasiga sohada xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va davlat ijrochilari faoliyati samaradorligini oshirish vazifalari yuklatildi.

2020-yil 2-noyabrda qabul qilingan PF-6118-sonli Farmon esa Majburiy ijro byurosi faoliyatini yanada takomillashtirishda muhim bosqich bo'ldi. Ushbu hujjat fuqarolar va tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish, sud hujjatlarining o'z vaqtida ijro etilishi orqali aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga qaratildi. Mazkur farmon ijro jarayonida Byuroning boshqa vazirliklar, idoralar va mahalliy hokimiyat organlari bilan o'zaro hamkorlik mexanizmlarini yangi darajaga ko'tardi.

Prokuratura organlarining aholi muammolarini aniqlash va hal etishdagi roli Prezidentning 2017-yil 8-avgustdagi PQ-3182-sonli qarori bilan tubdan o'zgardi. Mazkur qarorga asosan hududlarni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha **sektorlar tizimi** joriy etildi. Unga ko'ra, respublika

hududlari to'rtta sektorga bo'linib, prokuratura organlari rahbarlari ikkinchi sektorga mas'ul etib belgilandi.

Ushbu tizimning yo'lga qo'yilishi prokuratura organlarining faqat nazorat funksiyasi bilan cheklanib qolmay, hududlardagi real holatni yaxshilash, aholi bandligini ta'minlash va ijtimoiy masalalarni bevosita joyiga chiqqan holda hal qilish borasidagi mas'uliyatini oshirdi. Bu esa "xalq prokuraturasi" tamoyilini hayotga tatbiq etishning amaliy ifodasiga aylandi.

Yangi O'zbekistonda prokuratura organlari tizimini takomillashtirishning muhim bosqichi sifatida kadrlar tayyorlash va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalalari ustuvor yo'nalishga aylandi. Prezidentning 2018-yil 8-maydagi PF-5438-son Farmoni bilan Bosh prokuraturaning Oliy o'quv kurslari negizida **Bosh prokuratura Akademiyasi** (hozirgi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi) tashkil etildi. Akademiyaning asosiy maqsadi prokuratura xodimlarida tizimli tahlil, tanqidiy fikrlash va qonunlarga so'zsiz rioya etish tuyg'usini shakllantiradigan yagona tayyorlov tizimini yo'lga qo'yishdir. Bunda o'qitishning masofaviy, interfaol va muammoli-vaziyatli uslublaridan foydalanish, shuningdek, huquqni qo'llash amaliyotini ilmiy asosda takomillashtirish vazifalari belgilandi.

Parallel ravishda, budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida 2018-yil 23-maydagi PF-5446-son Farmon bilan amaldagi soliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti **Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti** etib qayta tashkil qilindi. Yangilangan Departamentning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Iqtisodiy jinoyatlar, korrupsiya, jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha tizimli takliflar ishlab chiqish.
- Davlat xaridlarida narxlarni oshirish, budget mablag'larini talon-toroj qilish va asossiz qarzdorliklarni aniqlab, yetkazilgan zararni qoplash.

- Yoqilg'i-energetika, bank, qurilish va ijtimoiy sohalarda "xufyona iqtisodiyot" sxemalariga hamda valyuta mablag'larining noqonuniy muomalasiga chek qo'yish.

Mazkur islohotlar zanjiri prokuratura organlarini faqat jazolovchi mexanizmdan, mamlakat iqtisodiy barqarorligini himoya qiluvchi va aholi muammolarini hal etishga qaratilgan ****"xalq prokuraturasi"****ga aylantirish borasidagi strategik harakatlarning mantiqiy davomidir. Asosiy e'tibor qonun ustuvorligini ta'minlash va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga qaratilgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Sud hokimiyatining mustaqilligi tamoyilini tushuntiring.
2. Advokatlarning asosiy vazifalarini sanab bering.
3. Prokuratura tizimining asosiy vazifalarini yozing.
4. So'nggi yillarda sud tizimida amalga oshirilgan islohotlardan birini tanlab, uning ahamiyatini tahlil qiling.
5. "Yuridik yordam" axborot tizimi orqali advokatlarning elektron reyestri va shaxsiy elektron kabinetining afzalliklarini yozing.
6. Prokuratura tizimida amalga oshirilgan islohotlardan birini tanlab, uning samaradorligini baholang.

V BOB. YAKUNLOVCHI QISM

16-- MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TARAQQIYOTIDA QONUNLAR VA ULARNING XALQCHIL ISHLASH MEXANIZMI

REJA:

1. Qonunlarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni
2. Qonunlar jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy vosita sifatida
3. Qonun ijodkorligining asosiy prinsiplari: xalqchilik, oshkoralik, demokratiklik, ilmiylik, qonuniylik

O‘zbekiston davlatchiligining barqaror rivojlanishi va xalqaro hamjamiyatda munosib o‘rin egallashi bevosita uning huquqiy tizimi qay darajada xalqchil ekanligi bilan belgilanadi. Haqiqiy xalqchil qonunlar esa jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish, amaliy sotsiologiya, psixologiya va siyosatshunoslik fanlarining yutuqlariga tayanish orqali yaratiladi. Yaponiya va Singapur kabi davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlatning qudrati faqatgina moddiy resurslar bilan emas, balki sog‘lom tafakkurli insonlar va adolatli qonunlar bilan o‘lchanadi.

Qonun ustuvorligiga erishishning asosiy sharti — qonunning xalq manfaatlariga xizmat qilishi va fuqarolar hayotidagi muammolarni bartaraf etishidir. Buning uchun qonun ijodkorligi jarayoni jamiyatning real istaklarini to‘laqonli aks ettirishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga muvofiq, qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari qat’iy belgilab qo‘yilgan. Ushbu huquq yangi qonun loyihagini ishlab chiqish va uni parlamentga rasmiy ko‘rib chiqish uchun kiritish imkoniyatini beradi:

Qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo‘lgan subyektlar:

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti — davlat rahbari sifatida eng muhim strategik qonun loyihalarini kiritadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi — o'zining oliy vakillik organi (Jo'qorg'i Kenges) orqali ushbu huquqdan foydalanadi.

Qonunchilik palatasi deputatlari — xalq vakillari sifatida bevosita qonun loyihalari ustida ishlaydilar.

Vazirlar Mahkamasi — ijro etuvchi hokimiyatning oliy organi sifatida hukumat dasturlari bilan bog'liq qonun loyihalarini taqdim etadi.

Shuningdek, Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va Bosh prokuror ham o'z vakolatlari doirasidagi masalalar bo'yicha qonunchilik tashabbusi huquqiga ega hisoblanadilar. Ayniqsa, Bosh prokurorning ushbu huquqdan foydalanishi amaliyotda qonun qo'llashda yuzaga kelayotgan kamchiliklarni bartaraf etish va qonunchilikni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Qonun inson, jamiyat va davlat manfaatlarini nuqtai nazaridan eng muhim ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash, rivojlantirish va tartibga solishning asosiy vositasidir. Davlat oliy vakillik organlari tomonidan qabul qilinadigan ushbu hujjat davlat huquq tizimining poydevorini tashkil etib, boshqa barcha normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan eng yuqori yuridik kuchga ega hisoblanadi. Qonunlarni qabul qilish jarayoni bir necha muhim bosqichdan iborat bo'lib, bularga qonunchilik tashabbusi, loyihaning muhokama qilinishi, qonunning qabul qilinishi va uning rasmiy e'lon qilinishi kiradi.

Qonunlar o'z mohiyati va yuridik xususiyatiga ko'ra bir necha guruhlarga bo'linadi. Xususan, ular konstitutsiyaviy (bevosita konstitutsiya asosida qabul qilinadigan), organik va oddiy qonunlarga ajratiladi. Oddiy qonunlar, o'z navbatida, kodifikatsiya qilingan (kodekslar) va joriy qonunlarga bo'linadi. Shuningdek, xalqaro amaliyotda federativ davlat qonunlari hamda alohida holatlarda amal qiluvchi favqulodda qonunlar ham mavjud. Qonunning eng muhim belgisi uning normativligidir. Bu xususiyat qonun qoidalarining barcha uchun yagona mezon va o'xshash vaziyatlarda cheksiz marta qo'llaniladigan majburiy talab ekanligini anglatadi. Qonunning normativligi unda ifodalangan davlat irodasining qat'iyligi va oliyligi bilan bog'liq bo'lib, aynan shu imperativ mazmun jamiyatdagi xulq-atvor mezonlarini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari iyerarxik jihatdan quyidagi tizimni tashkil etadi:

- **Asosiy qonun — O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi:** u davlat hokimiyatining tashkil etilishini, boshqaruv mexanizmini va konstitutsiyaviy tuzum asoslarini belgilaydi;
- **Konstitutsiyaviy qonunlar;**
- **Qonunlar (kodekslar va joriy qonunlar);**
- **Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari.**

Barcha qonunlar va boshqa normativ hujjatlar orasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi markaziy o‘rinni egallaydi. U jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tizimini mustahkamlovchi, inson va fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini kafolatlovchi oliy hujjatdir. Barcha qonunlar va qonunosti hujjatlari Konstitutsiya normalariga muvofiq bo‘lishi shart.

Konstitutsiya har qanday demokratik jamiyat huquqiy tizimining o‘zagi va barcha qonunchilikning yuridik zamini hisoblanadi. Joriy qonunlarning barchasi aynan Konstitutsiya qoidalari va prinsiplari asosida, ularning ijrosini ta‘minlash maqsadida qabul qilinadi.

Qonunlarning amal qilishi va kuchga kirishi muayyan huquqiy tartiblar bilan belgilanadi:

Qonunlarning kuchga kirishi va bekor bo‘lishi

Qonunlar, odatda, rasman e‘lon qilinganidan keyin **10 kun o‘tgach** yoki qonunning o‘zida yoxud uni amalga kiritish to‘g‘risidagi maxsus hujjatda ko‘rsatilgan muddatdan boshlab kuchga kiradi. Qonun o‘zida belgilangan muddat tugaganda yoki ijtimoiy munosabatlarning shu sohasini tartibga soluvchi yangi qonun qabul qilinib, amaldagisi bekor qilinganda o‘z kuchini yo‘qotadi.

Qonunning zamonda va makonda amal qilishi

- **Zamonda amal qilishi:** Qonunlar, qoida tariqasida, kelajakka yo'naltirilgan bo'ladi. Biroq, ayrim hollarda qonunlar orqaga qaytish kuchiga ega bo'lishi mumkin. Masalan, O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, jinoyat va ma'muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi yoki bekor qiluvchi qonunlar orqaga qaytish kuchiga ega, ya'ni u e'lon qilinmasdan oldin sodir etilgan qilmishlarga nisbatan ham qo'llaniladi.
- **Makonda amal qilishi:** Qonunlar mamlakatning butun hududida — quruqlik, ichki suvlar, hududiy dengiz havzalari, havo bo'shlig'i va yer osti sarhadlarida amal qiladi. Bu hududda bo'lgan barcha sub'yektlar (fuqarolar, yuridik shaxslar, davlat organlari) uchun qonun talablari majburiydir.

Qonunning oliy yuridik kuchi

Qonunning oliy yuridik kuchga egaligi quyidagi tamoyillarda yaqqol namoyon bo'ladi:

1. Qonunni faqat uni qabul qilgan oliy vakillik organigina o'zgartirishi yoki bekor qilishi mumkin.
2. Barcha qonunosti hujjatlar (farmonlar, qarorlar, buyruqlar) qonunga qat'iy muvofiq bo'lishi shart. Agar qonunosti hujjati qonunga zid kelsa, u bekor qilinadi yoki qonunga muvofiqlashtiriladi.
3. Qonunni qabul qilgan organdan boshqa hech qanday kuch uni qo'shimcha tarzda tasdiqlashi yoki uning harakatini to'xtatib qo'yishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining qonunlarida yangilanayotgan ijtimoiy tuzum, huquqiy davlat barpo etishning eng muhim prinsiplari va taraqqiyot yo'nalishlari o'z aksini topadi. Bu jarayonda **qonun ustuvorligi** jamiyatda demokratiyani

mustahkamlovchi va qonunchilikni ta'minlovchi bosh tamoyil bo'lib xizmat qiladi.

Qonun ustuvorligi — barcha davlat hokimiyati organlari faoliyatida Konstitutsiya va qonunlarning oliy yuridik kuchga ega bo'lishidir. Bu degani, qonunlar hokimiyat chiqaradigan boshqa barcha me'yoriy hujjatlar va yo'riqnomalardan ustun turadi. Mazkur tamoyil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining **15-moddasida** qat'iy belgilab qo'yilgan:

"O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi".

Qonun ustuvorligi tamoyili amaliyotda quyidagi uchta yo'nalishda namoyon bo'ladi:

- **So'zsiz itoat etish:** Jamiyat hayotining barcha jabhalarida qonun hukmron bo'lib, barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar unga qat'iy bo'ysunadi.
- **Barqarorlik va tartibot:** Ijtimoiy munosabatlar davlat va fuqaro manfaatlariga mos ravishda tartibga solinadi, natijada mamlakatda mustahkam huquqiy tartibot muhiti shakllanadi.
- **Huquqiy asos va javobgarlik:** Qonunlar huquqbuzarliklarning oldini olishda asosiy tayanch bo'ladi. Agar qonun buzilsa, aybdor shaxslarni belgilangan tartibda javobgarlikka tortish uchun qonuniy poydevor vazifasini bajaradi.

Mamlakatimizda **hokimiyatlar bo'linishi** prinsipining real joriy etilganligi qonun ustunligini ta'minlashning muhim kafolatidir. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati bo'g'inlari faqat o'z vakolatlari doirasida ish yuritadi.

Ularning o‘zaro munosabatlarini tartibga soluvchi va uyg‘unlashtiruvchi yagona oliy hakam esa faqat Qonun ekanligini yaxshi bilamiz.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, mamlakat Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining kafilidir. Prezidentning bu boradagi faoliyati muhim siyosiy-yuridik ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘z farmon va qarorlari bilan konstitutsiyaviy tamoyillarning hayotga to‘la joriy etilishi uchun zarur huquqiy mexanizmlarni yaratadi. Xususan, 2001-yil 4-yanvarda qabul qilingan Konstitutsiyani o‘rganishni tashkil etish to‘g‘risidagi farmoyish jamiyatda asosiy qonunning nufuzini ko‘tarish va aholining huquqiy madaniyatini oshirish orqali Konstitutsiya ustuvorligini ta‘minlashga xizmat qildi.

Qonun ustuvorligini ta‘minlashda ijro etuvchi hokimiyat organlari ham mas‘ul bo‘lib, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan vazirlik va idoralarning me‘yoriy hujjatlari qonuniyligini ta‘minlash vazifasi Adliya vazirligiga yuklatilgan. Unga ko‘ra, umummajburiy tusdagi barcha idoraviy hujjatlar majburiy tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi shart. Rasmiy ro‘yxatdan o‘tmagan idoraviy hujjatlar yuridik kuchga ega bo‘lmaydi va ularni amaliyotda qo‘llash taqiqlanadi. Bu mexanizm quyi bo‘g‘indagi me‘yoriy hujjatlarning yuqori turuvchi qonunlarga zid kelishining oldini oladi.

Konstitutsiya va qonunlarning so‘zsiz ijrosini ta‘minlashda prokuror nazorati alohida o‘rin tutadi. Prokuratura organlari vazirliklar, korxonalar va tashkilotlar tomonidan qonunlar ijrosini nazorat qilib, huquqbuzarliklar sabablarini bartaraf etish choralari ko‘radi. Qonun talablari qo‘pol ravishda buzilgan hollarda prokuratura idoralari aybdor shaxslarni ma‘muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortish masalasini hal qiladi. Bunday nazorat tizimi davlatda yagona huquqiy tartibotni saqlash va qonunlarning amaldagi qudratini ta‘minlashning eng samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekistonda Konstitutsiya va qonunlar ustunligini ta‘minlash uchun tashkiliy-huquqiy kafolatlar hamda yuridik mexanizmlar muttasil

takomillashtirib borilmoqda. Xususan, 2017–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi doirasida davlat va jamiyat hayotini isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun va 4 mingdan ziyod Prezident qarorlari qabul qilindi. Bu islohotlar Yangi O'zbekistonni barpo etishning siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy poydevorini yaratdi.

"Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyili asosida ishlab chiqilgan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash eng asosiy shartlardan biri etib belgilandi. Bunda muhim yangilik sifatida ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga nafaqat jinoyat ishlari, balki fuqarolik va ma'muriy ishlar bo'yicha ham davlat hisobidan bepul yuridik yordam ko'rsatish tartibi joriy etilishi ko'zda tutilgan. Qonun ustuvorligi tamoyili Konstitutsiyaning 15-moddasida o'zining huquqiy ifodasini topgan. Unga ko'ra, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi so'zsiz tan olinadi, Konstitutsiya mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega va to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi. Shuningdek, yangilangan normalarga ko'ra, O'zbekistonning xalqaro shartnomalari milliy huquqiy tizimning tarkibiy qismi hisoblanadi. Agar xalqaro shartnomada milliy qonunchilikda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari ustuvorlik kasb etadi.

Bu mexanizmlarning barchasi jamiyatda demokratiyani mustahkamlash, davlat organlarining ochiqligi va hisobdorligini oshirish hamda inson huquqlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan yagona huquqiy makonni shakllantiradi. Qonun ustuvorligi tamoyili jamiyat hayotining barcha jabhalarida qonunlarning mutlaq hukmronligini anglatib, u birinchi navbatda barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning Konstitutsiya hamda qonunlarga so'zsiz itoat etishida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, bu tamoyil ijtimoiy munosabatlarning shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari muvozanati asosida tartibga solinganini ko'rsatib, mamlakat miqyosida barqaror qonuniy tartibot muhitini shakllantiradi. Uchinchidan esa, huquq buzilishi hollarining oldini olish hamda qonunbuzarlik sodir etilganda

aybdorlarni qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortish uchun mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonda ushbu ustunlikni ta'minlashning muhim kafolati sifatida hokimiyatlar bo'linishi prinsipi real joriy etilgan bo'lib, unga ko'ra qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati bo'g'inlari faqat o'z vakolatlari doirasida faoliyat yuritadi hamda ularning o'zaro munosabatlarida qonun eng oliy hakam hisoblanadi. Konstitutsiyaning 109-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti fuqarolarning huquq va erkinliklariga, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining kafilidir. Prezident o'z farmon va qarorlari bilan konstitutsiyaviy qoidalarning hayotga to'la joriy etilishi uchun yo'l ochadi va tegishli huquqiy mexanizmlarni yaratadi. Shu bilan birga, qonunlar ijrosi va huquqni qo'llash amaliyotining samaradorligi davlat organlari tomonidan tayyorlanadigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining sifatiga bevosita bog'liqdir. Bu jarayonda har bir tashkilotning yuridik xizmati zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi. Shu bois ham yurtimizda yuridik xizmat sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilib, sohaning normativ-huquqiy bazasi to'liq yangilandi va yuridik xizmat maqomini belgilovchi hukumat qarorlari qabul qilindi. Adliya organlari tomonidan mazkur sohaga muntazam uslubiy yordam ko'rsatilib, o'nlab idoraviy hujjatlar va amaliy tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Bundan tashqari, Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markazida yuridik xizmat xodimlarining kasbiy malakasi muntazam oshirib borilishi tizimning sifatli ishlashiga xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini, ayniqsa, o'rta va quyi bo'g'inda huquqiy jihatdan ta'minlash hamda ularga sifatli va professional yuridik xizmat ko'rsatishga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Ushbu yo'nalishdagi ishlarning mantiqiy davomi sifatida Namangan shahri, Qarshi va Marhamat tumanlarida sinov tariqasida jami 23 ta davlat organi va tashkilotlarining hududiy bo'linmalariga yuridik xizmatlar ko'rsatuvchi markazlar faoliyati Adliya vazirligi tizimida yo'lga qo'yildi va o'zining ijobiy samarasini ko'rsatdi. Davlat tashkilotlarida yuridik xizmatlar ko'rsatish

markazlarini tashkil etish bir qator muhim afzalliklarga ega. Avvalo, ushbu markazlarning tashkil qilinishi respublika miqyosida qariyb 40 milliard soʻmdan ortiq byudjet mablagʻlarini iqtisod qilish imkonini beradi. Iqtisodiy samaradorlikdan tashqari, tizimning eng katta yutugʻi uning mustaqilligidadir. Yuridik xizmatlar koʻrsatish markazlari davlat organlari va tashkilotlari rahbarlariga boʻysunmagan holda, toʻla mustaqil faoliyat olib boradi. Bu esa oʻz navbatida davlat idoralarida qonuniylik va qonun ustuvorligini taʼminlash sifatini yangi bosqichga koʻtaradi.

Shuningdek, markazlar tashkil etilishi orqali xodimlar zimmasidan ularning faoliyatiga taalluqli boʻlmagan ortiqcha funksiya va vazifalar olib tashlanadi, bu esa asosiy vazifalarning yanada samarali bajarilishini taʼminlaydi. Mazkur markazlar bevosita tuman adliya boʻlimlari huzurida faoliyat yuritayotganligi sababli, quyi boʻgʻindagi yuridik xizmatlar faoliyatini qoʻshimcha oʻrganish yoki tekshirish zarurati qolmaydi. Tizimda bevosita nazorat vujudga kelishi hujjatlar sifatini oshirishga va qonun buzilishlarining oldini olishga xizmat qiladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Qonunlarning jamiyat taraqqiyotidagi oʻrnini tushuntiring.
2. Oʻzbekiston Respublikasida qonun ijodkorligi tizimining asosiy prinsiplari haqida maʼlumot bering.
3. Xalqchil qonun ijodkorligi mexanizmlarini sanab bering.
4. oʻnggi yillarda qabul qilingan qonunlardan birini tanlab, uning jamiyat taraqqiyotiga qoʻshgan hissasini tahlil qiling.
5. Qonun ijodkorligi jarayonida fuqarolarning ishtirokini oshirish boʻyicha takliflar tayyorlang.
6. Qonunlarning amaliyotga joriy etilishi va xalqchil ishlashini taʼminlash boʻyicha tavsiyalar bering

Xulosa

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish kursi uchun ishlab chiqilgan mazkur o'quv qo'llanmani yakunlab, quyidagi fundamental xulosalarga kelishimiz mumkin:

Birinchidan, har qanday davlatning Konstitutsiyasi asosiy qonun sifatida barcha huquqiy hujjatlarni muvofiqlashtirishi va uyg'unlashtirishi zarur. Mazkur O'quv qo'llanma asosiy qonundagi muhim prinsiplarni izohlash orqali nazariy tahlil qilishga ko'maklashadi. Bu esa o'quvchida davlat va fuqarolar o'rtasidagi birdamlik normalari, siyosiy va fuqarolik institutlarining hamjihatlikdagi faoliyati haqida aniq tasavvurlarni shakllantiradi.

Ikkinchidan, O'quv qo'llanmaning tamal g'oyasi inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan. Unda inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy institutlar uchun keng sharoitlar yaratish, davlat siyosatini monitoring qilish tizimini rivojlantirish hamda aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirishga doir muhim ilmiy nazariyalar bayon etilgan. Bu jamiyatda inson huquqlari madaniyatini qaror toptirishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, Konstitutsiyada milliy madaniyatimiz negizi bo'lgan mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish masalasi demokratik ruhda ochib berilgan. Mahalla jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'ini sifatida oilalarga eng yaqin tuzilma sanaladi. To'rtinchidan, jamiyatda sud organlari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ijtimoiy-siyosiy sohalarning qonunlar asosida ish yuritishini ta'minlashda Konstitutsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, qonuniylik prinsipini ta'minlash huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini qurishning eng muhim shartlaridan biridir. O'quv qo'llanma ushbu prinsipning amaliy mexanizmlarini tushuntirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, ushbu maxsus kurs uchun O'quv qo'llanma yaratishda Konstitutsiyaviy huquq sohasidagi fundamental bilimlar tayanch qilib olindi. Undagi nazariyalar va xulosalar mamlakatimiz qonunchiligidagi amaldagi

qonunlar, Prezident farmon va qarorlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar negizida shakllantirildi. Bu esa O'quv qo'llanmaning ham ilmiy, ham amaliy jihatdan mukammalligini va bugungi kun islohotlariga to'la mosligini ta'minlaydi.

FOR AUTHOR USE ONLY

GLOSSARIY

Inson qadri — insonning jamiyatdagi oʻrni, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining davlat tomonidan eʼtirof etilishi va himoya qilinishi. (13-modda).

Miranda qoidasi — shaxsni ushlab chogʻida uning huquqlari va u nima sababdan ushlangani unga tushunarli tilda tushuntirilishi shartligi (28-modda).

Xabeas korpus (Habeas Corpus) — shaxsning erkinligini cheklash (qamoqqa olish) faqat sud qarori asosida amalga oshirilishi (27-modda).

Aybsizlik prezumpsiyasi — shaxsning aybi qonuniy tartibda sud tomonidan isbotlanmaguncha u aybsiz hisoblanishi (28-modda).

Huquqiy davlat — barcha harakatlar qonun asosida amalga oshiriladigan, inson huquqlari eng oliy qadriyat hisoblangan davlat (1-modda).

Ijtimoiy davlat — har bir insonga munosib turmush darajasi, uy-joy, tibbiy yordam va taʼlim olish imkoniyatini kafolatlovchi davlat (1-modda).

Dunoviy davlat — davlat va din bir-biridan ajratilgan, diniy tashkilotlar davlat ishlariga, davlat esa din ishlariga aralashmaydigan tizim (1-modda).

Xalq deputatlari Kengashi — mahalliy vakillik organi boʻlib, u mahalliy byudjetni tasdiqlaydi va ijroiya hokimiyati (hokimlik) ustidan nazorat oʻrnatadi.

Mahalliy ijroiya hokimiyati — hududda qonunlar ijrosini taʼminlovchi hokim boshchiligidagi organlar tizimi.

Fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organi (Mahalla) — davlat hokimiyati tizimiga kirmaydigan, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni mustaqil hal etuvchi jamoat instituti (127-modda).

Konstitutsiyaviy sud — qonunlar va boshqa hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlaydigan oliy organ.

Konstitutsiyaviy shikoyat — agar fuqaroning fikricha, sudda qoʻllanilgan qonun uning konstitutsiyaviy huquqlarini buzgan boʻlsa, u toʻgʻridan-toʻgʻri Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilishi (133-modda).

Abrogatsiya — qonunni bekor qilish, uni oʻz kuchini yoʻqotgan deb topish.

Aliment — voyaga yetmagan bolalar yoki mehnatga layoqatsiz oila aʼzolarini moddiy taʼminlash uchun toʻlanadigan majburiy pul mablagʻi.

Amnistiya — davlat rahbari yoki parlament tomonidan muayyan toifadagi jinoyatchilarni jazodan ozod qilish yoki jazosini yengillatish.

Apellyatsiya — sudning hali qonuniy kuchga kirmagan qarori ustidan yuqori turuvchi sudga shikoyat qilish.

Referendum — eng muhim davlat masalalarini hal qilish uchun oʻtkaziladigan umumxalq ovoz berish jarayoni.

Impichment — davlatning yuqori lavozimli shaxslarini (masalan, Prezidentni) xizmat vazifasini suiisteʼmol qilgani uchun lavozimidan chetlatish jarayoni.

Legitimlik — hokimiyatning xalq tomonidan tan olingani va qonuniy deb hisoblanishi.

Mandat — saylangan shaxsning (deputatning) oʻz vakolatlarini amalga oshirish huquqi.

Alibi — jinoyat sodir etilgan vaqtda shaxsning boshqa joyda boʻlganini isbotlovchi holat.

Guvoh — ish boʻyicha ahamiyatli maʼlumotlarga ega boʻlgan va sudga chaqirilgan shaxs.

Detsetsiya (Ushlab turish) — shaxsni erkinligini vaqtincha (odatda 48 soatgacha) cheklash.

Reabilitatsiya — asossiz jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxsning huquqlarini tiklash va unga yetkazilgan zararni qoplash.

Sanksiya — qonunbuzarlik uchun belgilangan jazo chorasi yoki prokuror tomonidan beriladigan ruxsatnoma.

Ishonchnoma (Doverennost) — bir shaxs tomonidan ikkinchi shaxsga uchinchi shaxslar oldida vakillik qilish uchun beriladigan yozma vakolat.

Mulk huquqi — shaxsning ashyoga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish (sotish, sovgʻa qilish) huquqi.

Oferta — shartnoma tuzish bo'yicha bir tomondan ikkinchi tomonga yuborilgan rasmiy taklif.

Aksept — ofertani (taklifni) qabul qilish va shartnomaga rozilik berish.

Netse — voyaga yetmaganlar yoki ruhiy kasalligi sababli o'z harakatlariga javob bera olmaydigan shaxslarning holati.

FOR AUTHOR USE ONLY

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro‘yxati

Asosiy adabiyotlar:

Zaruriy adabiyotlar:

1.Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Adolat, 2022.

– B.7-144.

2.Konstitutsionnoe pravo. Uchebnik // Avtorskiy kollektiv. – Tashkent: Tashkentskiy gosudarstvennyy yuridicheskiy universitet, 2018 g. S. 27-39.

3.Ides A., May C. N., Grossi S. Examples & Explanations for Constitutional Law: Individual Rights. – Wolters Kluwer Law & Business, 2018. 599 pages.

4.Chemerinsky E. Constitutional law. – Aspen Publishers, 2019. 1915 pages.

5.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - “KolorPak” MCHJ, 2023. Toshkent.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

Loveland I. Constitutional law, administrative law, and human rights. A critical introduction. 4th. ed. New York: Oxford University Press, 2006.

Barron J. Constitutional Law in a nutshell. 8th ed. 2013

Gregory E. Maggs & Peter J. Smith, Constitutional Law: A Contemporary Approach (2d ed. 2011).

D'Amato, Anthony, "The Relation of the Individual to the State in the Era of Human Rights" (2010). Faculty Working Papers. Paper 99.

Konstitutsionnoye pravo. Uchebnik // Avtorskiy kollektiv. – Tashkent: Tashkentskiy gosudarstvennyy yuridicheskiy universitet, 2018 g. S. 97-107.

Ides A., May C. N., Grossi S. Examples & Explanations for Constitutional Law: Individual Rights. – Wolters Kluwer Law & Business, 2018. 599 pages.

Chemerinsky E. Constitutional law. – Aspen Publishers, 2019. 1915 pages

Xorijiy adabiyotlar

1. Hans Kelzen. General theory of law and state. – Cambridge: Harvard University Press, 2009. – 517 p.

2. Scott Veitch, Emilios Christodoulidis, Lindsay Farmer. Jurisprudence Themes and Concepts. Second edition. – London: Routledge publication, 2012.

– 305 p.

3. Hart H.L.A. The Concept of Law. 3rd edition. – Oxford: Oxford university press, 2012. – 333 p.

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: Adolat, 2023. – 76 b.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2002 y., 12-son, 213-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 39-son, 457-modda.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2002 y., 12-son, 215-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 14-son, 213-modda.

4. O‘zbekiston Respublikasining 2003 yil 29 avgustda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2003 y.,

9-10-son, 136-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 39-son, 457-modda.

5. O‘zbekiston Respublikasining 2003 yil 29 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining reglamenti to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2003 y., 9-10-son, 137-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 39-son, 457-modda.

6. O‘zbekiston Respublikasining 2006 yil 11 oktyabrdagi “Qonun loyihalarini tayyorlash va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2006 y., 41-son, 406-modda; 2014 y., 20-son, 222-modda.

7. O‘zbekiston Respublikasining 2001 yil 30 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining referendumi to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001 y., 9-10-son, 176-modda;

8. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004 y., 51-son, 514-modda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001 y., 9-10-son, 168-modda. Po‘latov B.X. Prokuror nazorati: O‘quv qo‘llanma / T.: «O‘zbekiston», 2009. – 36 b.

9. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2006 y., 18-son, 147-modda. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007 y., 46-47-son, 464-modda.

10. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.05.2018 y., 06/18/5446/1251-son.

11. *Новая философская энциклопедия. В четырех томах. / In-t filosofii RAN. Nauchno-red. sovet: V.S. Stepin, A.A. Guseynov, G.IU. Semigin. M., Mysl, 2010, t. III, N – S, s. 346.*

12. B. X. Po‘latov Prokuror nazorati. “O‘zbekiston”, 2009 y, 46 B.

FOR AUTHOR USE ONLY

**More
Books!**



yes
I want morebooks!

Buy your books fast and straightforward online - at one of world's fastest growing online book stores! Environmentally sound due to Print-on-Demand technologies.

Buy your books online at
www.morebooks.shop

Kaufen Sie Ihre Bücher schnell und unkompliziert online – auf einer der am schnellsten wachsenden Buchhandelsplattformen weltweit! Dank Print-On-Demand umwelt- und ressourcenschonend produziert.

Bücher schneller online kaufen
www.morebooks.shop



info@omniscryptum.com
www.omniscryptum.com

OMNIScriptum



FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY